

**TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**



# O'QUV USLUBIY MAJMUASI



TOSHKENT- 2023

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR  
yo'nalishi**

**“ZAMONAVIY MOLIYA TIZIMI”**

**MODULI BO'YICHA**

**O' Q U V – U S L U B I Y  
M A J M U A**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchi:** Qurbanov X.A.- TDIU dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchi:** Malikov T.S.- TMI professor, i.f.d.

**Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 23 dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. MA'RUDA MATNI.....	29
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	45
V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR .....	85
VI. KEYSLAR BANKI.....	86
VII. GLOSSARIY.....	92
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	98

## **I. ISHCHI DASTUR KIRISH**

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lism muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lism muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477- sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lism muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lism sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lism jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lism jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lism xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Zamonaviy moliya tizimi” **modulining maqsadi**: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarida zamonaviy moliya tizimi va uning kontseptual asoslarini, zamonaviy moliya tizimiga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini, zamonaviy sharoitlarda zamonaviy moliya tizimidagi islohotlarning ustuvor yo’nalishlari **bo'yicha** ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Zamonaviy moliya tizimi” **modulining vazifalari**:

- zamonaviy moliya tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning zamonaviy moliya tizimiga oid ilmiy qarashlari haqidagi ilmiy bilimlar bazasini aniqlashtirish;
- zamonaviy sharoilarda fiskal siyosat va uning kontseptual asoslari bo'yicha tinglovchilarnining bilimi, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish;
- zamonaviy sharoitlarda jahon mamlakatlari davlat moliyasi tizimidagi mavjud dolzarb muammolar, byudjet taqchilligi, davlat qarzlarini boshqarish tizimiga oid tinglovchilarning layoqatlarini rivojlantirish.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Zamonaviy moliya tizimi” kursini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- moliya tizimining rivojlanish bosqichlarini;
- globallashuv jarayoni va milliy moliya tizimiga ta’sirini;
- davlat moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini;
- klassik va zamonaviy ilmiy qarashlarniing kontseptual asoslarini;
- zamonaviy sharoitlarda O’zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari;
- byudjet-soliq tizimidagi islohotlarning samarali iqtisodiy o’sishni ta’minlashga ta’siri, amaldagi ijtimoiy islohotlardagi roli;
- inqirozning navbatdagi to’lqini sharoitida davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muamolar va islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini **bilishi kerak**.

**Tinglovchi:**

- moliya tizimida davlat moliyasining o’rni va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan baholay olish;
- davlat byudjeti daromad va xarajatlari parametrlarining gorizontal va vertikal tahlil qilish natijasida byudjet-soliq siyosatining strategik maqsadlari realizatsiyasi to’g’risida xulosalar tizimini shakllantirish;
- iqtisodiyotdagi soliq yuki va davlat byudjet xarajatlari multiplikativ samarasini baholash;
- rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo’llari bo'yicha islohotlarning ustuvor yo’nalishlariga oid xulosalarni shakllantirish **ko'nikmalarini egallashi zarur**.

### **Tinglovchi:**

- davlat moliyasi va uni boshqarishning funksional elementlari asosida kompleks tahlilini amalga oshirish;
- zamonaviy sharoitlarda fiskal siyosat va uni samarali iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy jihatdan tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish;
- rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimida kuzatilayotgan dolzarb muammolar, ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;
- mamlakatimiz davlat moliyasi tizimidagi yaqin va istiqbolga mo'ljallangan islohotlar strategiyasini tahlil qilish va o'ziga xos ravishdagi taraqqiyot senariysini ishlab chiqishga oid **malakalarни egallashi lozim**;

### **Tinglovchi:**

- moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning kontseptual asoslari bo'yicha ilmiy va amaliy ma'lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish;
- moliya tizimi, davlat moliyasiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar, O'zbekistonda davlat moliyasi tizimidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga oid yangi ilmiy va amaliy ma'lumotlarni tizimlashtirish;
- davlat moliyasiga oid zamonaviy bilimlarga asoslangan holda mutaxassislik guruhlarida ma'ruza va amaliy mashg'ulot olib borish **kompetentsiyalarini egallashi lozim**.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

"Zamonaviy moliya tizimi" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'quv jarayonida ta'limning interfaol o'qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Kutish yo'ldoshi", "Kontseptual jadval", "O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing" kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishlash, SWOT- tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalarni qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

"Zamonaviy moliya tizimi" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Korporativ moliya", "Davlat moliyasi" va "Davlat qarzlarini boshqarish" o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning kontseptual asoslari, davlat qarzlarini boshqarish bo'yicha ilmiy va amaliy ma'lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish bo'yicha kompetentlikka ega bo'ladilar.

## Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jam'i	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Moliya tizimi: uning bo'g'inlari va XXI asr boshlarida uning transformallahuv tendentsiyalari.	6	2	4	
2	O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari	12	4	6	2
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>6</b>	<b>10</b>	<b>2</b>

### NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

#### **1 - mavzu. Moliya tizimi: uning bo'g'inlari va XXI asr bo'sag'asida uning transformallahuv tendentsiyalari .**

Moliya tizimining rivojlanish bosqichlari. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida moliya nazariysi bo'yicha ilmiy qarashlar va moliya tiziminining transformallahuvi. Globallashuv jarayoni va milliy moliya tizimiga ta'siri. Zamonaviy moliya tizimining kontseptual asoslari va bo'g'inlari.

Davlat moliyasining bo'g'inlari va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari. Turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik sub'ektlari moliyasi va undagi mvjud global muammolar. Davlatning kredit tizimi va uni boshqarish muammolari. Davlat qarzlari va uni boshqarishning global muammolari. Banklar va bank tizimi rivojlanishning zamonaviy tendentsiyalari. Moliya bozorlari va hozirgi globallashuv sharoitida uning rivojlanish tendentsiyalari.

#### **2- mavzu. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari**

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining shakllanishi. Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan islohotlarning birinchi bosqichida moliya tizimidagi islohotlar. Islohotlarning keyingi bosqichlarida moliya tizimidagi islohotlar. O'zbekiston

Respublikasi bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Pul-kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Milliy sug'urta tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Davlat moliyasini isloh qilish va uning ustuvor yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimini shakllanishi. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Soliq tizimining rivojlanishi va uning huquqiy asoslari.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot.**

**O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.**

1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.
2. Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.
3. Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

### **2-amaliy mashg'ulot.**

**O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari(davomi).**

1. Moliyaviy siyosat va uning turlari.
2. Fiskal siyosat va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri.
3. Monetar siyosat va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri.

### **3-amaliy mashg'ulot.**

**O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.**

1. Mustaqillik yillarda moliya tizidagi islohotlar.
2. O'zbekistonni rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi" asosidagi moliya tizidagi islohotlarning kontseptual asoslari.

### **4-amaliy mashg'ulot.**

**O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari.**

- 1.O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari.
2. Soliq siyosati kontseptsiyasi va uning zamonaviy sharoitlardagi zaruriyati.

3.O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari.

## **KO'CHMA MASHG'ULOT**

“Zamonaviy moliya tizimi” moduli bo'yicha o'quv dasturida “O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari” mavzusida 2-soat ko'chma mashg'ulot rejalashtirilgan.

## **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi:

→ *o'quv ishini tashkillashtirishning interfaol shakllaridan:* binar-ma'ruza, provokatsion-ma'ruza, savol-javobli ma'ruza, suhbat-ma'ruzalar orqali tashkillashtirish nazarda tutilgan.

→ *o'quv faoliyatini tashkil etish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanish nazarda tutilgan:*

- ma'ruza mashg'ulotlarida ommaviy, juftlik, individul;
- amaliy mashg'ulotlarda guruhli, jamoaviy, juftlik, individual.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

**1-mavzu**

### **Moliya tizimi: uning bo'g'inlari va XXI asr boshlarida uning tranformallahuv tendentsiyalari**

(Ma'ruza – 2 soat)

#### **1.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lism texnologiyasi modeli**

Vaqti – 2 soat	Tinglovchilar soni: 15-30 ta
<i>Mashg'ulot turi</i>	Axborot vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.</li><li>2. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida moliya nazariyasi bo'yicha ilmiy qarashlar va moliya tizimining transformallahuvuvi.</li><li>5. Moliyaviy siyosat va uning yo'naliishlari.</li></ol>

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** Moliya tizimi: uning bo'g'inlari va XXI asr bo'sag'asida uning tranformallahuv tendentsiyalari haqida tushuncha berishdan iborat.

<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• predmetning vazifalari va funktsiyalari, o'quv fanlari tizimidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;</li><li>• o'quv predmeti tarkibini sharhlash va tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy adabiyotlar ro'yxatini berish;</li><li>• moliya tizimining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asoslarini olib berish;</li><li>• XX asr oxiri va XXI asr boshlarida moliya nazariyasi bo'yicha ilmiy qarashlar va moliya tiziminining transformallahuvini yoritib berish;</li><li>• zamonaviy moliya tizimining kontseptual asoslari va bo'g'inlarini tavsiflash;</li><li>• moliyaviy siyosat va uning yo'naliishlari haqida ma'lumotlar beradi;</li><li>• zamonaviy moliya tizimi nazariy qarashlariga asoslangan holda fiskal va monetar siyosatning xususiyatlarini asoslaydi.</li></ul>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>• predmetning vazifalari va funktsiyalari, o'quv fanlari tizimidagi o'rni va rolini ifodalaydi;</li><li>• o'quv predmeti fanning tuzilmasini va tarkibini sharhlaydi, adabiyotlar ro'yxati bilan tanishadi;</li><li>• moliya tizimining rivojlanish bosqichlarini ilmiy asoslarini olib beradi;</li><li>• XX asr oxiri va XXI asr boshlarida moliya nazariyasi bo'yicha ilmiy qarashlar va moliya tiziminining transformallahuvini ifodalaydi;</li><li>• zamonaviy moliya tizimining kontseptual asoslari va bo'g'inlarini tavsiflaydi;</li><li>• davlat qarzları va uni boshqarishning global muammolarini sanab beradi;</li><li>• moliyaviy siyosatning makroiqtisodiy siyosat elementi sifatidagi xususiyatlarini asoslaydi;</li><li>• fiskal va monetarsiyosat instrumentlari orqali multiplikativ samara va siqib chiqarish samarasiga oid ilmiy qarashlarni (Keynschilik va monetarizm) tushunib etadi.</li></ul>
<b>O'qitish usullari</b>	Ma'ruza matni, aqliy hujum, suhbat, B/B/B texnikasi, FSMU texnologiyasi
<b>O'qitish shakllari</b>	Ommaviy, jamoa bo'lib
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, slaydlar
<b>O'qitish shartlari</b>	Texnik vositalar, kompyuter va videoproektor bilan ta'minlangan, guruhlar bilan ishslash uchun mo'ljalangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol va javoblar

## Ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
<b>1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1.1. Mavzu bo'yicha mashg'ulot mazmunini tayyorlaydi.</p> <p>1.2. Axborot vizual ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlaydi.</p> <p>1.3.O'quv modulini o'rgatishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati tayyorlaydi.</p>	
<b>2-bosqich. Kirish (15 daqiqa.)</b>	<p>2.1. O'quv modulining nomini e'lon qiladi. Fan bo'yicha umumiy tasavvur keltiradi. Ishning metodologik va tashkiliy xususiyatlarini yoritib beradi.</p> <p>2.2. Mavzular ro'yxatini keltiradi va ularga qisqacha tavsif beradi. Asosiy adabiyotlar ro'yxatini beradi va sharhlaydi.</p> <p>2.3. Mashg'ulot mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2.4. Tinglovchilarni aqliy hujumga tortish uchun shu mavzu bo'yicha jonlantiruvchi savollar beradi. (1-ilova)</p>	<p>2.1.Tinglaydilar</p> <p>2.2. Tinglaydilar.</p> <p>2.3. Yozib odadilar.</p> <p>2.4.Savollarga javob beradilar.</p>
<b>3-bosqich. Asosiy qism (65 daqiqa)</b>	<p>3.1. Ma’ruza rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qiladi. (2- ilova).</p> <p>3.2. Mavzuning tayanch iboralari, asosiy joylarini yozib olishlarini so'raydi..</p> <p>3.3. Moliya tizimining rivojlanish bosqichlari bo'yicha tinglovchilar bilan suhbat uysushtiradi.</p> <p>3.4. Tinglovchilar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p> <p>3.5. Tinglovchilarga B/B/B usuli bo'yicha ifodalangan jadvalni namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi (3-ilova).</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, o'rganadilar, yozadi-lar, aniqlaydilar, savollar beradilar.</p> <p>3.2. Har bir tayanch tushuncha muhokama kiladilar. Yozadilar.</p> <p>3.3. Fikrlarini bayon qiladilar.</p> <p>3.4. Muhokamada ish-tirok etadilar.</p> <p>3.5. Jadvalni to'ldiradilar.</p>
<b>4 bosqich. Yakun yasash (10 daqiqa)</b>	<p>4.1.Olingan axborotlarni umumlashtiradi va sharhlaydi. Paydo bo'lgan savollarga javob beradi, muhim qo'shimcha axborotni beradi.</p>	<p>4.1.Tinglaydilar. Savol beradilar.</p> <p>4.2.Topshiriqlarni oladilar.</p>

	4.2. Mashg'ulotni yakunlaydi. Topshiriqlar beradi.	
--	---	--

-ilova

### Aqliy hujum usuli

**Ақлий хужум** (брейнstromинг-ақллар түзони) – амалий ёки илмий муаммолар ечиш ғоясини жавоавий юзага келтириш.

#### Aqliy hujum va masalani echish bosqichlari

1. Мустакил фикрланг хаёлингизга келган барча ғоя, фикрларни қоғозга ёзинг.
2. Барча ғоя ва фикрларни ёзинг, агар улар тақрорланаётган бўлса, маҳсус белги қўйинг.
3. Ғояларни баҳоланг.
4. Энг мақбул ғоя гурух ғояси сифатида шакллантиради.
5. Барча ёзилган ғоялар гурух муаммосини ечиш учун гурухлаштириш мумкин.
6. Гуруҳнинг умумий жавоби шакллантирилади.

#### Savollar:


1. Mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi qarashlarni o'zgartirish zaruratiga sabab nimada?
2. Yangi hayotni eskicha qarash va ong-tafakkur bilan qurib bo'lmasligi.
3. Jamiyat taraqqiyotidagi tub o'zgarishlar.


## Vizual materiallar

1-slayd



2-slayd





### МОЛИЯ ТИЗИМИ

**Ж.Ван Жорн:** Молия тизими - давлат, фирмалар ва фуқароларга турли хил хизматлар кўрсатувчи молиявий муассасалар ва бозорларнинг маъмуаси.

**З.Боди, Р. Мертон:** Молия тизими – бу молиявий шартномалар, активлар ва рисклар алтмашиш жараённада иштирок этувчи бозорлар ва бошқа институтлар маъмуасидир.

**Л.Дробозина :** «Молия тизими - пул маблағлари фондини ташкил килиш ва фойдаланиш жараённадаги молиявий муносабатларнинг турли соҳаларини маъмуасидан иборат.

**Г.Поляк:** молия тизими - давлат, хўжалик субъектлари ва уй хўжаликларининг пул маблағлари фондини турли хил усуллар ва шаклларда тақсимлаш жараённадаги турли молиявий муносабатлар маъмуаси.

**Т.С. Маликов:** ...турли пул фондларидан шакланнадиган ва фойдаланилайдиган молиявий муносабатларнинг турли соҳалари маъмуига молия тизими дейилтади.

5-slayd




6-slayd



7-slayd



8-slayd



3-ilova

### B/B/B texnikasini qo'llash bo'yicha ko'rsatma.

1. Ma'ruza rejasiga mos holda 2-устуни то'ldiring.
2. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilasiz, 3-устуни то'ldiring.
3. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilish kerak, 4-устуни то'ldiring.

4. Ma’ruzani tinglang va vizual materiallar bilan tanishing.

5. 5-ustunni to’ltiring.

### B/B/B jadvali (Bilaman/Bilishni xoxlayman/Bildim)

Nº	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1.	Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uning ilmiy asoslari			
2.	Moliya haqidagi fanning rivojlanish taraqqiyoti			
3.	Moliya tizimi va u haqidagi qarashlar			
4.	Moliya tiziminining bo’g’inlari			
5.	XX asr oxiri va XXI asr boshlarida moliya nazariyasi bo'yicha ilmiy qarashlar va moliya tiziminining transformallashuvi			
6.	Davlat qarzlari va uni boshqarishning global muammolari			

#### 1.2. Seminar mashg’ulotida o’qitish texnologiyasi.

Vaqti-4 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O’quv mashg’ulotining shakli	Seminar-munozara
O’quv mashg’ulotining rejasi	<p><b>Moliya tizimi: uning bo’g’inlari va XXI asr bo’sag’asida uning tranformallahuv tendentsiyalari</b></p> <p>Reja</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.</li> <li>2. Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.</li> <li>3. Inqirozning navbatdagi to’qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o’ziga xos xususiyatlari.</li> <li>4. Moliyaviy siyosat va uning turlari.</li> <li>5. Fiskal siyosat va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri.</li> <li>6. Monetar siyosat va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta’siri.</li> </ul>
O’quv mashg’ulotining maqsadi:	Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida moliya tizimini isloh qilish va yangi moliyaviy arxitekturaning shakllanishi borasida talabalar bilimini kengaytirish.

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;</li> <li>- bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko'nikmasini hosil qilish;</li> <li>- o'z fikrni shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish;</li> <li>- kommuniktsiya, guruhda ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish.</li> </ul>	<p>Tinglovchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- moliyaviy bozorlarni tartibga solish usullari va uni takomillashuvini tushunib etadi;</li> <li>- Evropa moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: kelib chiqish sabablari va islohotlarni izohlaydi;</li> <li>- rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimidagi islohotlarni bayon etadi.</li> </ul>
O'qitish usullari va texnikasi	Hamkorlikda o'qitish, munozara, taqdimot, blits-so'rov, "Davra suhbati", insert
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanmalar, proektor, markerlar, skotch, A32 bichimdagি qog'oz varaqlari.
O'qitish shakllari	Individual, frontal, guruhlar / juftliklarda ishslash.
O'qitish sharoitilari	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi.</p> <p>1.2. Mavzuni munozara tarzida o'tishini ma'lum qiladi.</p>	<p>1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar</p>
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-so'rov o'tkazadi. Raqobat uning mohiyati va maqsadini ifodalab berishni topshiradi.</p> <p>2.2. Ish guruhlarda /juftliklarda o'quv vazifani bajarilgandan so'ng "Davra suhbati" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Davra suhbati" qoidalari bilan tanishtiradi (ilova 1). Guruhlarda ishslash qoidalari eslatadi.</p>	<p>2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar.</p> <p>2.2. Esse yozadilar va o'qib beradilar.</p> <p>2.3. Tinglaydilar, savollar beradilar.</p>
3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishslash (20 min.)	<p>3.1. Talabalarni gurhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlar/juftliklarga taqsimlaydi (ilova 2). Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin</p>	<p>3.1. O'quv vazifasi, yo'riqnomalar va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar;</p> <p>3.2. Vazifani bajaradilar, taqdimot</p>

	emasligini tushuntiradi. Natijalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e'lon qiladi, maslahatlar beradi.	varaqlarini rasmiylashtiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, baholar qo'yadi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

1- ilova.

### Guruh bilan ishlash qoidalari

Har bir guruh a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

2-ilova

### Guruhsiz vazifalar

#### 1. Guruh.

1. Moliyaviy bozorlar va ularing taraqqiyotini izohlang.

#### 2. Guruh.

1. Evropa moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: kelib chiqish sabablari va islohotlarni izohlang.

#### 3. Guruh.

1. Rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimidagi islohotlar izohlang.

### Baholash ko'rsatkichlari (ballda)

Guruh	Mavzuning echimi	Tushuntirish (aniqlik, mantiq)	Guruh faolligi (qo'shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baho
				(1,2)	(0,6)
1.					
2.					

**2-mavzu**

**O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan  
islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va  
uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari**

### 2.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

<b>Vaqti – 2 soat</b>	<b>Tinglovchilar soni: 15-20 ta</b>
<b>Mashg'ulot turi</b>	Vizual, axborot ma'ruza
<b>Ma'ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi va zamonaviy sharoitlarda undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari.</li> <li>3. O'zbekiston Respublikasi fiskal va monetar siyosatining ustuvor yo'nalishlari.</li> </ol>

**O'quv mashg'ulotining maqsadi:** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari haqida tushuncha berishdan iborat.

<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tavsiflaydi;</li> <li>• mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlarni tushuntiradi.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq va pul-kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlarini yoritib beradi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tavsiflaydi;</li> <li>• mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlarni tushuntiradi.</li> <li>• O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq va pul-kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlarini yoritib beradi.</li> </ul>
<b>O'qitish usullari</b>	Ma'ruza matni, blits so'rov, insert usuli, "Sinkveyn" (5 qator) texnikasi
<b>O'qitish shakllari</b>	Ommaviy, jamoa bo'lib
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruzalar matni, tarqatma materiallar, slaydlar
<b>O'qitish shartlari</b>	Texnik vositalar, kompyuter va videoproektor bilan ta'minlangan, guruhlar bilan ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya.
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol va javoblar

## Ma’ruza mashg’ulotining texnologik xaritasi

Ishlar bosqichi va mazmuni	Faoliyat mazmuni	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchi
<b>1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi</b>	<p>1.1. Mavzu bo'yicha mashg'ulot mazmunini tayyorlaydi.</p> <p>1.2. Axborot vizual ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlaydi.</p> <p>1.3.O'quv modulini o'rgatishda foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati tayyorlaydi.</p>	
<b>2-bosqich. Kirish (15 daqiqa.)</b>	<p>2.1. Mashg'ulot mavzusi, maqsadi, vazifalari va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Tinglovchilar bilan asosiy tushunchalar bo'yicha blits-so'rov o'tkazadi. (1-ilova)</p>	<p>2.1.Tinglaydilar</p> <p>2.2.Savollarga javob beradilar.</p>
3-bosqich. Asosiy qism (65 daqiqa)	<p>3.1. Ma'ruza rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qiladi. (2- ilova).</p> <p>3.2. Mavzuning tayanch iboralari, asosiy joylarini yozib olishlarini so'raydi.</p> <p>3.3. Mavzu bo'yicha ma'ruza, tarqatma materiallar tarqatiladi, u asosida Insert jadvalini tuzishni va ularga olingan axborotlarni kiritishni taklif qiladi (3-ilova).</p> <p>3.4. O'zbekistonda davlat moliyasi va undagi islohotlar bo'yicha tinglovchilar bilan savol-javob shaklida suhbat uyushtiradi.</p> <p>3.5. Tinglovchilar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, o'rganadilar, yozadi-lar, aniqlaydilar, savollar beradilar.</p> <p>3.2. Har bir tayanch tushuncha muhokama kiladilar. Yozadilar.</p> <p>3.3. Jadvalni to'ldiradilar..</p> <p>3.4. Muhokamada ish-tirok etadilar.</p> <p>3.5. Tinglaydilar va yozadilar.</p>
4 bosqich. Yakun yasash (10 daqiqa)	<p>4.1.Olingan axborotlarni umumlashtiradi va sharhlaydi. Paydo bo'lgan savollarga javob beradi, muhim qo'shimcha axborotni beradi.</p> <p>4.2. Mustaqil ishslash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savolarni beradi: davlat moliyasi, davlat byudjeti, davlat maqsali jamg'armalariga "Sinkveyn" misoli yordamida ta'rif berishni topshiradi (4-ilova).</p>	<p>4.1.Tinglaydilar. Savol beradilar.</p> <p>4.2. Topshiriqni yozib oladilar.</p>

1-ilova

### Blits-so'rov o'tkazish uchun asosiy tushunchalar

1. Davlat moliysi.
2. Byudjet tizimi.
3. Davlat byudjeti daromadlari.
4. Soliqlar.
5. Soliq yuki.
6. Maqsadli jamg'armalar.


2-ilova



### Vizual materiallar

1-slayd



2-slayd





6-slayd.

### ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТЛАРДА БЮДЖЕТ ТИЗИМИДАГИ ИСЛОХОТЛАР

- бюджет дефицитини самаралы бошқарши;
- Газначитик тизимини боскичма боскич ривожлантириши;
- бюджет қонунчилигини мустаҳкамлаши;
- ўрта мудатли фисат сиёсат амалиётини жорий қилиши;
- натижасага йўналтирилган бюджет моделини жорий этиши;
- дотацийон режсимидаги бюджетларни тугатиши ва маҳаллий бюджетлар барқарортигини таъминлаши;

7-slayd

#### Давлат бюджетининг даромадлари

Асосий бюджеткўрсаткичлари	2012 йил	2013 йил	2013 йилда жамига нисбатан %да
Мақсадли фондларсиз давлат бюджети даромадлари	20614,1	25104,9	69,4
Мақсадли жамғармалар даромадлари	10499,8	13571,9	32,7
Молия вазирлиги хузуридаги суториладигон өвлорнинг меморатив холатини яхшилаш жамғармаси даромадлари	210,0	227,5	0,5
Ўзбекистон Республикаси Тиклониш ва тараққиёт жамғармаси даромадлари	4747,6	2618,5	6,3
Жами марказлашган жамғармалар	36071,5	41522,8	100

7-slayd

#### Давлат бюджети харажатлари, млрд. сўм

Кўрсаткичлар	2011 йил		2012 йил	
	Млрд. сўм	%да	Млрд. сўм	%да
Давлат бюджети харажатлари, млрд.сўм	16991	100	21571	100
Ижтимоий соҳа ва ахолни ижтимоий қўллаб-куватлаш харажатлари	10112	59,5	12513	58
Иктиносидётта харажатлар	1952	11,5	2372	11,0
Марказлашган инвестицияларни молниялаштириш	950	5,7	1059	4,9
Таълим ва тиббёт муассасаларни реконструкция қилиш, капитал таъмирилаш ва жихозлаш Фондига ажратмалар			264	1,2
Давлат хокимияти ва бошқаруви органлари, суд органлари харажатлари	472	2,7	629	2,9
Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқарниш органлари	152	0,9	191	0,9
Вазирлар Махкамасининг захира жамғармаси	57	0,3	70	0,3
Бошқа харажатлар	3290	19,3	4471	20,7
Давлат бюджетининг режсалаштирилган тақчиллиги	-812		957	
ДИИда нисбатан, %	-1,0%		1%	

3-ilova.

## **“Insert usuli”**

**Инсерт** - самарали ўқиши ва фикрлаш учун белгилашнинг интерфаол тизими хисобланиб, мустақил ўқиб-ўрганишда ёрдам беради. Бунда маъруза мавзулари, китоб ва бошқа материаллар олдиндан таълим олувчига вазифа қилиб берилади. Уни ўқиб чиқиб, «V; +; -; ?» белгилари орқали ўз фикрини ифодалайди.

### **Matnni belgilash tizimi**

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

### **Insert jadvali**

Tushunchalar	V	+	-	?
O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasi tizimi				
O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi				
Davlat byudjeti daromadlari				
Davlat byudjeti xarajatlari				
Byudjet tizimidagi islohotlar				
Zamonaviy sharoitlarda moliya tizimidagi islohotlar				
Byudjet-soliq siyosati				

3-ilova.

### **“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi**

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

- 1-qator – tushuncha;
- 2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;
- 3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l;
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z birikmasi;
- 5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

## 2.2. Seminar mashg'ulotida o'qitish texnologiyasi.

Vaqti-4 soat	Talabalar soni: 15-20 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Seminar-munozara
O'quv mashg'ulotining rejasি	<ol style="list-style-type: none"> <li>Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar.</li> <li>O'zbekistonni rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi" asosidagi moliya tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari.</li> <li>O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari.</li> <li>Soliq siyosati kontseptsiyasi va uning zamonaviy sharoitlardagi zaruriyat.</li> <li>O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari..skal va monetar siyosatining ustuvor yo'nalishlari.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish.	
Pedagogik vazifalar:	<p><i>O'quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>Tinglovchi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar bosqichlari va davrlarini tushunib etadi;</li> <li>- davlat moliyasi tizimidagi islohotlar bo'yicha axborotlarga ega bo'linadi;</li> <li>- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan byudjet-soliq siyosatining kontseptual asoslari bo'yicha bilimmlar tizimlashtiriladi;</li> <li>- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan pul-kredit siyosatining kontseptual asoslari bo'yicha bilimmlar tizimlashtiriladi.</li> </ul>
O'qitish usullari va texnikasi	Munozara, taqdimot, blits-so'rov, "Davra suhbat", ekspress test
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanmalar, proektor, markerlar, skotch, A32 bichimdagи qog'oz varaqlari.
O'qitish shakllari	Individual, guruhlar / juftliklarda ishslash.
O'qitish sharoitilar	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishslash uchun mo'ljallangan auditoriya

### Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalahtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.2. Mavzuni munozara tarzida o'tishini ma'lum qiladi.	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar va yozib oladilar
2-bosqich. Asosiy (45 min.)	2.1. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga tarif berishni taklif qiladi va shu asosida blits-so'rov o'tkazadi. Raqobat uning mohiyati va maqsadini ifodalab berishni topshiradi. 2.2. Ish guruhlarda /juftliklarda o'quv vazifani bajarilgandan so'ng "Davra suhbat" sifatida davom ettirilishini e'lon qiladi. "Davra suhbat" qoidalari bilan tanishtiradi (ilova 1). Guruhlarda ishslash qoidalarni eslatadi.	2.1. Iqtisodiy tushunchalarga tarif beradilar.  2.2. Esse yozadilar va o'qib beradilar.  2.3. Tinglaydilar, savollar beradilar.

3-bosqich. Guruhlarda juftliklarda ishlash (20 min.)	3.1. Talabalarni gurhlarga/ juftliklarga ajratadi. Davra suhbatida muhokama qilish uchun savollar va vazifalarni tarqatma va guruhlardan taqsimlaydi (ilova 2). Vazifani bajarishda qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkin emasligini tushuntiradi. Natjalarni baholash varaqlarini tarqatadi. 3.2. Guruhlarda ish boshlaganligini e'lon qiladi, maslahatlar beradi.	3.1. O'quv vazifasi, yo'riqnomalar va natijalar kartochkasi bilan tanishadilar; 3.2. Vazifani bajaratdilar, taqdimot varaqlarini rasmiylashtiradilar.
4-bosqich. Yakuniy (5 min.)	4.1. Ishga yakun yasaydi, baholar qo'yadi. 4.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi	4.1. Tinglaydilar, vazifani yozib oladilar.

### 1- ilova.

#### Guruh bilan ishslash qoidalari

Har bir guruh a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini xurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishslashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'raganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

### 2-ilova

#### Guruhlar uchun vazifalar

##### 1. Guruh.

1. Moliyaviy bozorlar va ularing taraqqiyotini izohlang.

##### 2. Guruh.

1. Evropa moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: kelib chiqish sabablari va islohotlarni izohlang.

##### 3. Guruh.

1. Rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimidagi islohotlar izohlang.

#### Baholash ko'rsatkichlari (ballda)

Guruh	Mavzuning echimi	Tushuntirish (aniqlik, mantiq)	Guruh faolligi (qo'shimchalar, savollar)	Jami ballar	Baho
	(1,2)	(1,2)	(0,6)	(3,0)	
1.					
2.					
3.					
4.					

### 3-ilova

#### "Insert usuli"

**Insert** - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilarini orqali o'z fikrini ifodalaydi.

#### Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
- (+) – yangi ma'lumot.
- (-) – men bilgan narsaga zid.
- (?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

**Insert jadvali**

<b>Tushunchalar</b>	<b>V</b>	<b>+</b>	<b>-</b>	<b>?</b>
Inqiroz				
Moliyaviy muassasalar				
Davlat qarzi				
Byudjet taqchiligi				
Inflyatsiya				
Retsessiya				
Soliq tizimini isloh qilish				

### **III. MA’RUZA MATNLARI**

#### **1 - MAVZU. Moliya tizimi: uning bo’g’inlari va XXI asr bo’sag’asida uning transformallashuv tendentsiyalari.**

##### **Reja**

- 1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.**
- 2. Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.**
- 3. Inqirozning navbatdagi to’qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o’ziga xos xususiyatlari.**
- 4. Moliyaviy siyosat va uning turlari**

##### **1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.**

Moliya tizimi sifatida «moliyaviy munosabatlarning tashkil qilish shakli» yoki «moliyaviy munosabatlarning tashkiliy tuzilmalari majmuasi» sifatida ko’rib o’tish mumkin. Masalan, Taniqli amerikalik mutaxassis J.Van Xorn moliya tizimiga - davlat, firmalar va fuqarolarga turli xil xizmatlar ko’rsatuvchi moliyaviy muassasalar va bozorlarning majmuasi<sup>1</sup> –degan ta’rifni beradi. L.Drobozinaning fikricha «Moliya tizimi - pul mablag’lari fondini tashkil qilish va foydalanish jarayonidagi moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini majmuasidan iborat<sup>2</sup>»-degan ta’rifni beradi.

Professorlar A.V.Vahobov, T.S. Malikovning fikricha “...turli pul fondlaridan shaklannadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini majmuiga moliya tizimi deyiladi”<sup>3</sup>. E.F.Gadoev va X.A.Qurbanovlarning fikricha “Moliya tizimi - moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o’z ichiga olib, turli sohalar pul mablag’lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va usullari majmuasi bilan tavsiflanadi”<sup>4</sup>.

Yuqoridagi moliya tizimi bo’yicha keltirilgan ta’riflarda mantiiqiy yahlitlik bo’lib, ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlanish jarayonida hosil bo’ladigan pul mablag’lari fondini shakllantirish va undan foydalanish jarayoni moliya tizimining markaziy mazmunini tashkil qilish ta’kidlanadi.

Moliya tizimining asosiy funktsiyalari quyidagilardan iboratdir:

- rejalashtirish funktsiyasi;
- tashkillashtirish funktsiyasi;
- rag’batlantirish funktsiyasi;
- nazorat.

Tashkillashtirish moliya tizimining asosiy funktsiyasi sifatida davlat moliyaviy resurslarini shakllanishi va taqsimlanish ko’lamini aniqlash, vakolatli kredit tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqalarni o’z ichiga oladi. Amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat va uning strategik yo’nalishlari va uning taktik


<sup>1</sup> Ван Хорн Дж. Основы управления финансами М.: Финансы и статистика, 1996. 34 с

<sup>2</sup> Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение и кредит. М.: Финансы и статистика, 2000.

<sup>3</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумазарий масалалар (ўкув кўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 63 б.

<sup>4</sup> Gadoev E.F., Qurbanov X.A., Bauetdinov M.J. Moliya (O’quv qo’llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2006 yil , 24 b.

vazifalari tashkillashtirishning moddiy asosini tashkil etadi.



### 1-rasm. Moliya tizimi haqidagi ilmiy qarashlarning turkumlanishi<sup>5</sup>.

Rag’batlantirish funksiyasi pul mablag’larga ehtiyojni hisobga olgan holda moliyaviy faoliyatga ta’sir etuvchi omillar nazarda tutiladi.

Moliya tizimining rejalashtirish funksiyasi maqsadlarni shakllantirish va uni amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash bilan bog’liq tadbirlarni ko’zda tutadi.

Moliya tizimining nazorat funksiyasida o’rnatilgan maqsadlarga erishishni solishtirish uchun olingan natijalarni baholash va me’yorlar ishlab chiqish jaranlarini o’z ichiga oladi.

Iqtisodiy sub’ektlarning daromadlarini shakllanish usullariga bogliq ravishda moliya tizimini markazlashtirilgan moliya(davlat moliyasi) va markazlashtirilmagan moliya(xo’jalik sub’ektlari va uy xo’jaliklari moliyasi) kabi 2 asosiy turga ajratish qabul qilingan.

Moliya tizimi pul munosabatlari tizimini tashkil qilish shakli sifatida moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanishni ta’minlovchi 3 asosiy o’zaro bog’liq tizimlarga bo’linadi: Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining moliyasi, xo’jalik sub’ektlari moliyasi, uy xo’jaliklari moliyasi(aholi moliyasi).


Yahlit moliya tizimini tashkil qiluvchi mazkur tizimlar ham iqtisodiy sub’ektlarning aniq pul mablag’lari fondini tashkil qilinishiga qarab o’z navbatida alohida bo’g’inlarga ajratiladi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki moliya tizimining bo’g’inlari mamlakat miqyosida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish bilan bog’liqdir.

Markazlashtirilgan molianing tarkibida davlat moliyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasi xo’jalik sub’ektlari moliyasi bilan bevosa bog’liqdir. Chunki byudjet daromadlarini asosiy manbalaridan biri ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladigan milliy daromad hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining moliya

<sup>5</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўқув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 45 б.



## 2-rasm. Moliya tizimining bo'g'inlari.<sup>6</sup>

Byudjet davlat moliyasini asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Chunki byudjet orqali YaIMning taxminan 20-25% i qayta taqsimlanadi. Davlat byudjet orqali yirik miqdordagi pul resurslariga ega bo'ladi. Bunday pul resurslari orqali davlat o'zining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa vazifalarini amalga oshiradi. Chunonchi, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda byudjet asosiy rol o'ynaydi. Hozirgi sharoitda umumiy byudjet xarajatlarining taxminan 60 % atrofida ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo'naltirilmoqda.

Moliya tizimining asosini markazlashtirilmagan moliya tashkil qiladi. Chunki, aynan bu sohada yalpi ichki mahsulot yaratiladi. Birlamchi daromadlar va jamg'armalarning manbai yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.


Birlamchi daromadlar(milliy daromad) soliq tizimi, turli to'lovlar tizimi va foydani taqsimlanish tizimi orqali qayta taqsimlash jarayonining manbai hisoblanadi.

Markazlashtirilmagan moliyaning tarkibidagi moliyaviy vositachi muassasalar moliyasi muhim aahamiyat kasb etadi. Ushbu bo'g'inning markazi y institutlari mamlakatning kredit tizimini tashkil etadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar butun moliya tizimida markaziy o'rinni moliyaviy vositachi muassasalar egallaydi. Yuqori darajadagi takomillashgan moliyaiy infrastruktura tizimini mayjudligi va moliyaviy vositachilikni rivojlanganligi natijasida ularda investitsion maqsadlardagi yirik moliyaviy resurslar kontsentratsiyasi sodir bo'lgan.

XX asrning oxirgi 10 yilidagi moliyaviy innovatsiyalarning shiddat bilan

<sup>6</sup> Gadoev E.F., Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J.. Moliya (O'quv qo'llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2009 yil , 24 b.

rivojlanishiga qaramasdan rang-barang moliyaviy vositachilik turlari moliyaviy resurslarni oxirgi iste'molchilar uchun samarali joylashuvini ta'minlovchi «moliyaviy mahsulot»ni jalb qilish va sotish kabi umumiy funksiyalarni bajaradi.



### **3-rasm. Moliya tizimining institutsional tarkibi<sup>7</sup>.**

Moliyaviy vositachilar tarkibida tijorat banklari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalar, xususiy pensiya fondlari, moliyaviy kompaniyalar va boshqalar hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning moliyaviy sektorini asosini tashkil qiladi. Buni E.F.Gadoev va X.A.Qurbanovlar quyidagi tarzda ifodalaydilar.

Iqtisodiyotning moliyaviy sektorini keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Birinchi holatda moliyaviy sektor bilan birgalikda nazorat qiluvchi organlar va moliyaviy ittifoqlarni tushunishimiz mumkin.

Nazorat qiluvchi organlarning asosiy vazifalari moliya tizimini barqaror faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hukumat tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlar hamda me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llash va bevosita moliyaviy institutlar faoliyati ustidan nazratni amalga oshirish hisoblanadi.

Moliyaviy ittifoqlarning asosiy vazifalari davlat va jamiyat oldida moliyaviy institutlar guruhlarining manfaatlarini taqdim etish va himoya qilish hisoblanadi.

Moliyaviy sektorning moliyaviy institutlariga bank tizimi va nobank moliyaviy vositachi muassasalarini kiritishimiz mumkin. O'z navbatida bank tizimi tarkibida markaziy banklar alohida o'ringa egadir. Markaziy banklar davlatning pul kredit siyosatini amalga oshirishda mas'ul muassasa hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklari ustidan nazorat va ularni kreditlashni amalga oshiradi, emissiya(pullar, banknotalar va boshqa kredit pullarini muomalaga chiqarish), davlatni kreditlash va hukumat uchun hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish, oltin-valyuta zahiralarini saqlash va boshqa funksiyalarni bajaradi.

Tijorat banklari universal moliyaviy muassasalar hisoblanib, kredit, investitsion, moliyaviy vositachilik, hisob kitob operatsiyalarni amalga oshiradi. Zamonaviy tijorat banklari asosan aktsionerlik shaklida tashkil qilinadi. Tijorat banklari: aktiv

<sup>7</sup> Gadoev E.F., Qurbanov X.A., Bauetdinov M.J.. Moliya (O'quv qo'llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2009 yil , 24 b.

operatsiyalar, passiv operatsiyalar, vositachilik va ishonch operatsiyalari va boshqa qator operatsiyalarni bajaradi.



**4-rasm. Moliya tizimining institutsional tarkibi<sup>8</sup>.**

Nobank kredit tashkilotlari qonun buyicha belgilangan alohida bank operatsiyalari amalga oshirish huquqiga egadirlar. Ammo ular to’laqonli bank operatsiyalarni amalga oshira olmaydilar. Shuning uchun ham aksariyat adabiyotlarda nobank moliyaviy muassasalarga nisbatan «kvazibanklar» degan tushuncha keltiriladi.

Moliyaviy vositachi muassasalar tarkibida sug’urta muassasalarining ahamiyati yuksakdir. Umuman, sug’urta munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida aksariyat iqtisodchi olimlar sug’urtani moliya tizining alohida bo’gini sifatida qaraydilar.


Umuman yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, “Moliya tizimi” va “Moliya-kredit tizimi” tushunchalari o’rtasida aniq jiddiy chegaralanishlar mavjud bo’lmasdan, ular doimo bir birini to’ldirib boradilar.

Masalan, Aksariyat xorijiy iqtisodchilar jamiyatning moliya tizimi deganda asosiy urg’uni bank tizimi va moliyaviy bozorlarga qaratishadi. Bunga asosiy sabab rivojlangan mamlakatlar moliya tizimining taraqqiy etish xususiyatlari, yuqorida ko’rib o’tgan bo’g’inlarning ma’lum bir turining rivojlanishi xususiyatlari asosiy ta’sir etuvchi omil bo’lib xizmat qiladilar.

Nazariy jihatdan moliya tizimi deganda pul mablag’laraning xarakati v ushbu xarkatda ishtirok etuvchi sub’ektlar nazarda tutiladi. Buni quyidagi rasm ma’lumotlaridan ko’rishiiz mumkin.

Yuqoridagi rasmdan ko’rinib turibdiki, moliya tizimining asosiy funtsional vazifasi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezuvchi sektorlarga ortiqcha moliyaviy resurslar mavjud bo’lgan sektorlardan moliyaviy resurslarni xarakatga keltirish, qayta taqsimlash hisoblanadi.

<sup>8</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўқув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 51 6.



### **5-rasm. Turli mamlakatlar moliya tizimining xususiyatlarining tashkiliy chizmasi<sup>9</sup>.**

Ushbu bo'sh mablag'larni jamlash va uni ehtiyoj sezuvchi sektorlarga xarakatlanishida moliya tizimining har qaysi bo'g'inining faol ishtirok etishi ushbu bo'g'inning moliya tizimidagi etakchilik rolini ta'minlaydi.

AQSh moliya tizimining o'ziga xos xusustiyatlari unda moliyaviy bozorlarning etakchilik mavqeい hisoblanishi va fond bozorlarining kapitallashuv jarayonining yuqori ko'lami bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham AQSh moliya tizimi moliyaviy bozorlarga asoslangan tizimi sifatida tavsiflanadi.

Moliyaviy resurslar kontsentratsiyasi bank tizimida yuqori bo'lgan mamlakatlar moliya tizimi banklarga asoslangan moliya tizimi hisoblanadi. Bunday moliya tizim amal qiluvchi mamlakatlarga misol tariqasida Shveysariya, Germaniya moliya tizimilarini misol keltirish mumkin.

Davlatning jamiyat xayotidagi rolining yuqoriligi, iqtisodiyotdagi davat sektorining salmoqli hissasining mavjudligi sharoitida ayrim mamlakatlar moliya tizimida davlat moliyasining etakchi mavqeい amal qiladi.

Hozirgi kunda hukm surayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida har bir mamlaat moliya tizimiga inqirozning ta'sir darajasi ham ushbu mamlakatlar moliya tizimining shakllanishi, uning har bir bo'g'irlari kapitallashuv darajasining miqdoriga bevosita bog'liq bo'lmoqda. Shuning uchun ham amalga oshirilayotgan islohotlarda moliya tizimining ahamiyatini yanada oshirish birinchi navbatda har bir mamlakat kesimida moliya tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyasining to'g'ri tanlanayotganligiga bog'liqdir. Bu borada respublikamiz milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib o'tamiz.

### **2.Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.**

Yuqorida ta'kidalaganimizdek, moliya kredit tizimining barqaror faoliyati milliy

<sup>9</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўқув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 57 б.

iqtisodiyot barqaror taraqqiyotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun to'liq bandlik va yalpi ichki mahsulotni noinflyatsion ishlab chiqarishga yo'naltirilgan muomaladagi pul massasini bosharish bo'yicha chorat tadbirlarni o'zida ifodalovchi pul-rkdeti siyosati va shuningdek, to'liq bandlik va yalpi ichki mahsulotni noinflyatsion ishlab chiqarishga yo'naltirilgan davlat xarajatlari va solqlarni boshqarish bo'yicha chorat tadbirlarni o'zida ifodalovchi byudjet soliq siyosati moliyaviy siyosatning yo'nalishlari sifatida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalgamoshirmokda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng muhimlaridan biridavlatning izchil moliyaviy siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e'tibor beriladi.

Moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, uni falsafiy kategoriya taqkoslaysidan bo'lsak, ustqurmaga taalluqlidir. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ham davlat biron-bir maqsadga erishish, oldiga qo'ygan vazifa va majburiyatlarini bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi.

Moliya kredit tizimini tartibga solishning birinchi vazifasi to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash, inflaytsiyani jilovlash va pirovard natijada barqaror to'lov balansini shakllantirish hisoblanadi.

Kredit moliya-tizimining barqarorligining ta'minlash, uning alohida bo'g'inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Monetar siyosatning asosiy masalalari pul-kredit siyosati bilan bog'liq bo'lib, umumiktisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning, bozor kon'yukturasini yuqori darajada ushlab turish, bandlikka ta'sir o'tkazish, inqirozli tushumlarni oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, monetar siyosatning nazariy masalalari - muomaladagi pul mablag'lari miqdorini, bank kreditlari hajmini, foiz stavkalarini, valyuta kurslarini, to'lov balansini va o'z navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti holatini o'zgartirish uchun yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidir. Iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish to'g'risidagi etakchi nazariyalarning mohiyatini tushunmasdan turib, ilmiy asoslangan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish, uning strategiyasi va taktikasini aniq belgilab olish mumkin emas. Bu holat, ayniqsa, o'z mustaqilligini nisbatan yaqinda qo'lga kiritgan va mustaqil iqtisodiy siyosat, shu jumladan, pul-kredit siyosatini amalga oshirayotgan davlatlar uchun juda muhimdir.

Davlat siyosatining eng asosiy maqsadi, keynschilarining qarashlariga ko'ra, mehnat resurslarining yuksak darajada bandligini va ishlab chiqarishning maksimal darajada o'sish sur'atini ta'minlash bo'lsa, monetarchilar uchun asosiy vazifa baholarning va milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli, monetarchilarining modellarida ishchi kuchi bozoridagi xolat va ishlab

chiqariladigan mahsulot xajmi tarkibiy omillar ta'sirida shakllanadi va shu sababli, iqtisodiy siyosat chora-tadbirlari yordamida o'zgarishi mumkin emas. Ana shunga asoslangan holda, ular, kon'yunkturaning davriy tebranishlariga har qanday vositalar bilan barxam berishga harakat kiladilar.

Bozor iktisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali tartiga solishning ob'ekti pul bozoridagi talab va taklif xamda uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yori hisoblanadi. Pul-kredit orqali tartibga solish sub'ekti esa mamlakat Markaziy banki hisoblanadi

Bozor iktisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali tartibga solishning ob'ekti pul bozoridagi talab va taklif hamda uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yori hisoblanadi. Pul-kredit orkali tartibga solish sub'ekti esa mamlakat Markaziy bank hisoblanadi. Bular quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- birinchidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- uchinchidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarishni litsenziyalash;

- birinchidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- uchinchidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini nazorat qilish, kimmatlari qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarishni litsenziyalash;

- monetar siyosatning asosiy yo'naliishlari samarali bo'lishini ta'minlash uchun, avvalambor, albatta o'tgan yillardagi mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura har tomonlama chuqr tahlil qilinmog'i zarur. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulotning tarkibi, o'sish yoki kamayish dinamikasi, ularning sabablari o'r ganiladi. Yalpi ichki mahsulotning qishloq xo'jaligidagi, sanoat, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, investitsiya va qurilish sohalaridagi o'zgarishlari va ularning sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan inflyatsiya va narxlarning o'sish darajalari, tendentsiyasi va sabablari to'liq o'r ganiladi.

Byudjet-soliq tizimini tartibga solish sohasidagi asosiy maqsad mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tamilash, yahlit ijtimoiy sohadagi davlat siyosatini izchi amalga oshirishga yoo'naltirilgan adekvat tizimni shakllantrish hisoblanib, bu boradagi asosiy vazifalar quyidagilardan iboratdir:

1. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini soliqlar orqali rag'batlantirish maqsadida soliq yukini izchil kamaytirish va soliq ma'murchilagini takomillashtirish.

Albatta bu sohada qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib, soliq yukini qichartirish siyosati islohotlarning ustuor yo'naliшlaridan biri sifatida belgilab olindi.

2. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, faol ivesitsiya siyosatida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar moliyaviy resurslarining mobilizatsiya qilish va davlat investitsiyalarini samarali sohalarga investitsiyalash. Hozirgi halqaro bozorlardagi investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida faol investitsiya siyosatini olib borish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham umumiyl investitsiyalar tarkibida asosiy salmoqni tashkil etmasa-da, byudjet resurslari hisobiga investitsiyalash davlat tomonidan iqtisodiyotni qo'llab quvvatlash siyosatini o'zida ifodalaydi.

3. Hozirgi sharoitdagi asosiy vazifalardan biri davlatning ijtimoiy siyosatini samarali realizatsiya qilish. Kuchli ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy asoslarini shakllantirish hisoblanadi. Ijtimoiy sohalarni qo'llab quvvatlash orqali bir qator oraliq vazifalarning ham ijrosi ta'minlanadi:

birinchidan, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish daromadlar tengsizligini oldi olinadi va daromadlarni sohalar bo'yicha qayta taqsimanishi amalga oshiriladi;

ikkinchidan, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish siyosati orqali yalpi talab tarkibidagi iste'mol talabning barqarorlashuvi ta'minlanadi. Iste'mol talabi hozir hukm surayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida barcha mamlakatlardagi dolzarb masalalardan biri hisolanadi. Masalan, AQShdagi inqirozning boshlanishi AQSh iqtisodiyotidagi iste'mol talabining pasayishi natijasida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishidan boshlangan. Shuningdek, hozirgi kunda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan fiskal siyosat asosan iste'mol talabini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridaғи fikrlardan ko'rнib turibdiki, joriy yilda byudjet tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lган vazifalar o'zida byudjet tizimidagi islohotlarning istiqbolga mo'ljalangan strategik yo'naliшlarini o'z ichiga oladi.

Xususan, 2016 yilgi Davlat byudjetida ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalarni inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorlarda oshirib borish yo'li bilan aholi daromadlari hamda turmush darajasi og'ishmay o'sib borishini ta'minlash, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish, byudjetlararo munosabatlar tizimini yanada isloh qilib, mahalliy hokimiyyat organlari mustaqilligini hamda daromadlar bazasini kengaytirishdan va resurslardan samarali foydalanishdan manfaatdorligini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Ma'muriy islohot va davlat xizmati islohotini samarali amalga oshirish islohotlar jarayoni bilan bir vaqtida davlat organlari faoliyatining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday takomillashtirishning bosh maqsadlari, birinchidan, samaradorlik yoki unumdarlikni oshirish, ya'ni davlat organlarining funktsiyalarini bajarishga xarajatlarni qisqartirish, davlat xizmatlarining sifatini saqlab qolgan yoki yanada yaxshilagan holda ularni arzonlashtirish, ikkinchidan, davlat

xizmatida faoliyatni doimiy yaxshilashning ichki rag'batlarini yaratish, shu jumladan, tashkiliy jihatdan rivojlanish hamda ish texnologiyalarini optimallashtirishdir. Ma'muriy islohot doirasida qo'llanilgan yangi iqtisodiy mexanizm unga lozim darajada faol tus berish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish, uning o'zini-o'zi rivojlantirishini ta'minlashga qodir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Davlat moliyasini boshqarish islohotining 2007-2018 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingan va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat dasturi tayyorlanmoqda, ma'muriy islohot yo'nalishlari aniqlanmoqda.

Mazkur islohot, agar u davlat organlari faoliyatini boshqarish, rejalashtirish, byudjetlashtirish va mazkur faoliyatga baho berish islohotlari, ya'ni davlat boshqaruvi iqtisodiy mexanizmini isloq qilish bilan birga amalga oshirilsa, yanada samaraliroq bo'ladi.

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy asosi bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan Qarori<sup>10</sup> xazmat qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarda quyidagilar belgilab olingan:

- davlat moliyasini boshqarish samaradorligini yanada oshirish;
- davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik tizimini joriy etish va natijada davlat moliyaviy resurslarini boshiarishning zamonaviy mexanizmini shakllantirish;
- davlat byudjetini boshqarishning asosiy funktsional elementi hisoblangan byudjet jarayonini va byudjetni rejalashtirish tizimini takomillashtirish.

Byudjet jarayoni va byudjetni rejalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'rta muddatli byudjet strategiyasiga o'tishga tayyorgarlikni;
- byudjetni tuzish jarayoniga birlamchi miqdoriy cheklashlarni ishlab chiqish bosqichini kiritishni (byudjetlarni tayyorlash asoslarini shakllantirish maqsadida);
- byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqsadli usulini joriy etishni.

Hozirgi vaqtda ushbu usulning elementlari alohida byudjet mablag'larini oluvchilar tomonidan qo'llanilmoqda (masalan, ilmiy muassasalar, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va boshqalar).

Byudjetlashtirishning dasturiy-maqsadli usuli xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirishning smeta usulidan natijaga yo'naltirilgan byudjetni rejalashtirishga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi.

Byudjet ijrosi jarayonini isloq etish. Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- byudjetning daromadlar va xarajatlar bo'yicha operatsiyalarini ko'pgina tijorat banklarida ochilgan byudjet tashkilotlarining hisob raqamlari o'rniga Yagona g'aznachilik hisobvarag'ida jamlash;
- g'anachilik tomonidan (Markaziy bank o'rniga) byudjetning kassa ijrosini mablag'ni ajratishdan boshlab byudjet ijrosi to'g'risida hisobot tayyorlagunga qadar amalga oshirish;

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Давлат молиясини бошқаришни ислоҳ қилиш" лойихасини амалга оширишга тайёрланиш чора-тадбирлари тўғрисида" 2002 йил 26 мартааги 144-сон Қарори

- g'aznachilikning yagona axborot tizimini yaratish;
- byudjet mablag'lari maqsadli ishlatalishi ustidan dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni amalga oshirish;
- davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisoboti yagona standartlarini yaratish.

### **3.Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini izdan chiqarayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi mutanosibliklar, xususan real va moliyaviy sektor o'rtasidagi nisbatning keskin buzilishi oqibatida vujudga kela boshladi. Bu mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalar tomonidan o'zining xususiy korporativ manfaatlarini amalga oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me'yor va tartiblarning qo'pol tarzda buzilishi, jahondagi ko'plab davlatlarning real aktivlaridan spekulyativ tarzda foydalanish orqali katta daromad olishga intilish va shu tariqa global moliyaviy arxitekturada jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash uchun "arzon pullar" siyosatining qo'llanishi kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayishi va borgan sari keskin, muqarrar ravishda inqiroz holatini keltirib chiqaradigan darajada tus olishiga sabab bo'ldi.

XXI asrning dastlabki davrlarida jahon iqtisodiyotida kuzatilgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz keyingi qariyib yarim asr mobaynida taraqqiy etib borgan zamonaviy moliya tizimidagi dolzarb muammolar ta'sirida hanuzgacha davom etib kelmoqda. Keyingi yillarda kuzatilgan shiddatli globallashuv jarayonlari moliya tizimining ham umumiyligi trasformallashuviga ta'sir etdi. Ushbu davrlarda moliya tizimining tom ma'nodagi "arxitektura"si o'zgarib bordi va parallel ravishda uning kontseptual asosini tashkil etuvchi moliyaning neoklassik nazariyasi shakllanib bordi. Zamonaviy moliya tizimi "arxitekturasi" quyidagi omillar ta'sirida shakllandi:

- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qisqartirilib, iqtisodiyotdagi tadbirkorlik faoliyati erkinlashtirildi. Pirovard natijada, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida hosil qilinadigan pul fondlari tarkibida korporativ birliklar kesimida shakllantiriladigan markazlashmagan pul fondlarining hissasi va ko'lami haddan ziyod ortib bordi. Ushbu holat moliya tizimida korporativ sektor moliyasini va moliyaviy vositachilik faoliyatini bilan shug'ullanuvchi institutlarning ahamiyatini ortib borishiga olib keldi;

- moliya tizimida davlat moliyasi moliyalashtirishning etakchi segmenti bo'lgan bo'lsa, moliyaviy innovatsiyalarning avj olishi va moliyaviy bozorlarda yangi moliyaviy instrumentlarni (derivativalar, xedj instrumentlari va boshqalar) paydo bo'lishi natijasida ushbu tendentsiyada moliyaviy vositachilik operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy institutlar, bozorlarning ahamiyatini ortishiga olib keldi;

- davlatning iqtisodiy qudrati, uning moliya tizimini barqarorligi xususiy sektorning iqtisodiy qudratini sezilarli darajadaligi bilan belgilanadi. Ko'p ukladli

iqtisodiyotning shakllantirilishi, yalpi ichki mahsulotning shakllantirilishida xususiy ukladning etakchiligi, ularning davlat moliyaviy resurslari shakllantirishdagi ahamiyatining ortishiga olib keldi. Pirovard natijada davlat moliyasining barqarorligida xususiy sektor barqaror taraqqiyotining ta'sir kuchi o'sib bordi.

- kapitallar, tovarlar, mehnat bozorlarining baynalminallashuvi alohida mamlakatlarning moliya tizimini integratsion jarayonlarga intilib borish tendeniyasini shakllantirdi. Bu holat o'z navbatida har bir mamlakat milliy moliya tizimini boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lgan inqirozli holatlarga o'zaro ta'sir kuchini yuzaga keltirdi. Ayniqsa keyingi yillarda ayrim resurslarning global darajada iste'molining kuchayishi ushbu resurslar bozoridagi kon'yunkturaning moliya tizimi barqarorligiga ta'sir etish imkoniyatining kuchayishiga olib keldi. Masalan, uglevodorod xom ashvosini(asosan neft) eksport qiluvchi mamlakatlar va ushbu xom ashvoni asosiy import qiluvchi mamlakatlar moliya tizimining barqarorligi ushbu mahsulotlarga nisbatan jahon bozoridagi kon'yunkturaga kuchli bog'liq bo'lmoqda.

Yuqoridagi omillar ta'sirida shakllangan zamonaviy moliya tizimidagi dolzarb muammolar quyidagilardan iboratdir:

1. Xalqaro savdo va kapitallar xarakatidagi disbalansning hanuzgacha saqlanib qolinayotganligi. Bu holat keyingi yillarda turli mamlakatlar kesimida olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasi hisoblanadi. Xususan, halqaro zahiralar xajmi bo'yicha etakchilik qilayotgan Xitoy iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganligi va shuningdek, asosiy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ayrim tovarlar va xizmatlarga nisbatan iste'molga "yotib olishi" halqaro kapitallar xarakatidagi disbalansning buzilishiga olib kelgan edi. Ushbu muammoni 2008 yilda rasman tan olingan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini vujudga kelishidagi asosiy omil sifatida e'tirof etilgan edi. Keyingi yillardagi tendentsiya ko'rsatmoqdaki bu boradagi faoliyatni tartibga solish borasida jiddiy o'zgarishlar kuzatilgani yo'q. Masalan, Xitoyning AQShga tovarlar va ximatlar eksporti 2012 yilda 10,3%ga ortgan.

2. Keyingi yillarda olib borilgan monetar siyosatning salbiy ta'sirining davom etishi. Bugungi kunda kuchli moliyaviy-iqtisodiy inqirozni boshdan o'tkazayotgan evropa iqtisodiy konfederatsiyasi moliya tizimidagi dolzarb muammolar qatorida olib borilgan kredit ekspansiyasi siyosati natijasidagi bank tizimida global likvidlilik muammosi muhim o'rinn egallaydi. Taniqli moliyaviy sharhlovchi Embrosa Evansa Pritchardning ta'kidlashicha Evropa banklari normal darajaga chiqishi uchun qariyib 7 trillion evro miqdoridagi berilgan kredit resurslarini qaytarib olishi lozim. Banklarning ushbu mablag'lari tarkibida davlat obligatsion zayomlariga qo'yimlar xajmi ham sezilarli salmoqni tashkil etadi.

3. Jahon moliya bozori kapitallashuv darajasining ortishi va unda yuqori riskli aktivlar bilan keragidan ortiq darajada to'ynishi ushbu yuqori riskli aktivlar bo'yicha operatsiyalar ustidan mavjud nazorat tizimini kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lindi.

4. Davlatlar tomonidan olib borilgan qarz siyosati va uning natijasida qarzdorlik muammosining avj olishi.

5. AQSh dollarining 2002-2008 yillardagi qadrsizlanishi, aksariyat mamlakatlarda uning rezerv valyuta sifatidagi statusining pasayishiga olib keldi va hatto ayrim mamlakatlar xalqaro hisob kitoblarda alternativ valyuta haqida qaror qabul qilish holatlarini kuzatilishiga olib kelmoqda.

6. Keyingi yillarda jahon iqtisodiyoti va har bir mamlakatlarda iqtisodiy muvozanatni saqlashga qaratilgan moliyaviy siyosat asosan global talab va taklifni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Lekin, olib borilayotgan moliyaviy siyosat global iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jiddiy ta'sir kuchiga ega bo'lmayapti.

Dastlab bu chora-tadbirlar 2009-2010 yillarda ma'lum natija bergandek bo'ldi. Xususan, jahon iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining pasayishi to'xtatildi, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, investitsion faollik jonlandi. Biroq, ushbu chora-tadbirlardagi o'zaro mutanosiblik darajasining pastligi, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarini qo'llashdagi izchillikning yo'qligi ularning samarasini keskin pasaytirib yubordi, aksariyat hollarda ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermadi.

2011 yil inqirozning ikkinchi to'lqini boshlanishi ehtimoli bilan bog'liq bozor vahimalarining qaytadan kuchayish davri bo'ldi. Ayniqsa, evrohududdagi qarzdorlik inqirozi chuqurlashib, uning bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoriga tarqalishi kuzatildi. Evropa siyosatchilari yakdil bir qarorga kelishda sustkashlik va layoqatsizlikni namoyon etishda davom etdilar.

Umuman Evropa ittifoqida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kuchayishi quyidagilar bilan bevosita bog'liqdir:

Dastlab Evropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar moliya tizimini(bank,soliq va byudjet tizimi) tizimli nazorat qiluvchi organlar shakllantirilishi zarur edi. Shundan so'ng umumi kredit-pul tizimi joriy etilishi zarur edi. Hozirgi sharoitda Evrokommisiya va Evropa markaziy banki(EMB) Evrohudud iqtisodiyoti va moliya tizimini real boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmayapti. Natijada uning evroni miliy valyuta sifatida qabul qigan mamlakatlardagi moliyaviy holatni nazorat qilish imkoniyati mavjud emas.

EMB tomonidan olib borilayotgan siyosat ham asosan evrohudud tarkibidagi kuchli mamlakatlarga qaratilgan. Boshqa mamlakatlarning ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlari umumi qaror qabul qilishda ta'sir kuchiga ega bo'lmasdi. "Zaif bo'g'in" hisoblangan mamlakatlar Evrokommisiya tomonidan e'lon qilinganshartlarni to'liq bajarish imkoniyatiga ega emas edilar. Natijada ushbu mamlakatlar byudjet muvozanatini ta'minlashga yo'naltirilgan EI qoidalarini buza boshladilar. Masalan, Gretsya evrohududga a'zo mamlakatlar tomonidan imzolagan "Barqarorlik Pakti", Byudjet intizomi bo'yicha belgilangan chegaradan chetga chiqqa boshladi. Masalan, ushbu barqarorlik paktiga binoan davlat qarzlariga belgilangan chegaraviy mezonlar YaIMga nisbatan 60% qilib belgilangan edi.

### **1-jadval**

#### **Jahonning ayrim mamlakatlarida davlat qarzlarining holati to'g'risida ma'lumot<sup>11</sup>**

Nº	Mamlakatlar nomi	YaIMga nisbatan Davlat qarzlari, %da	Axborot tegishli yil
1.	Yaponiya	220,90	2015
2.	Gretsya	175,30	2015
3.	Italiya	126,10	2015
4.	Portugaliya	119,70	2015
5.	Irlandiya	118,00	2015

<sup>11</sup> www.Vesti.ru

6.	Frantsiya	89,10	2015
7.	Buyuk Britaniya	88,70	2015
8.	Ispaniya	83,20	2015
9.	Germaniya	80,50	2015
10.	AQSh	105,40	2015

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tanlanma kuzatish o'tkazilayotgan 10 mamlakatlarda davlat qarzdorligi YaIMganisbatan 60%dan ortib ketgan. Maastrixt mezonlari bo'yicha davlat qarzlari YaIMga nisbatan 60%dan ortib ketmsligi tavsiya etiladi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlari hamda uni boshqarish aksariyat rivojlangan mamlakatlar oldidagi dolzARB muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, aksariyat mamlakatlarda surunkali byudjet taqchilligi kuzatilmoqda. Ayniqsa hozirgi kunda Evrohudud tarkibidagi mamlakatlarda davlat moliyasi bilan bog'liq dolzARB muammolarda byudjet taqchilligi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Xususan, Italiyada (-5,6%), Frantsiyada (-5,8%), Buyuk Britaniyada (-8,8%), Ispaniyada(-8,5%), Gretsiyada (-9,6%), AQShda (-8,9%) byudjet taqchilligi o'rtacha me'yoriy darajadan ortib ketgan(Maastrixt mezonlari bo'yicha o'rtacha me'yoriy daraja 3%ni tashkil etadi).

Byudjet taqchilligining ortishi va uni o'sib borishi aksariyat mamakatlardagi davlat qarzlarining tobora ko'payib borishiga olib kelmoqda.

Davlat xarajatlarini qisqartirish iqtisodiyotdagi umumiyo o'sishni sekinlashuviga olib keldi (Gretsiyada 100000 korxona yopildi, qariyib 30% aholi nochor, Iqtisodiy o'sishning pasayishi aksariyat evropa mamlakatlarida ishsizlikni 10%dan ortishiga olib keldi).

Gretsiya 2010 yil aprel oyida sodir bo'lishi kutilgan defolt qutulish maqsadida Evropa komisiyasiga murojat qildi. Evropa komissiyasi, EMB va XVF 240 mlrd euro miqdoridagi kreditni taqdim etish majburiyatini oldi. Buning uchun Gretsiya xukumati oldiga byudjetni iqtisod qilish siyosatini olib borish bo'yicha qattik shartlar belgiladi. Pirovard natijada uy xo'jaliklari iqtisodiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

## 2-jadval

### Jahonning ayrim mamlakatlarida byudjet holati to'g'risida ma'lumot<sup>12</sup>

Nº	Mamlakatlar nomi	YaIMga nisbatan % da	Axborot tegishli yil
1.	Germaniya	- 1.70	2018
2.	Italiya	- 5.60	2018
3.	Kanada	- 3.80	2018
4.	Qirg'iziston	- 5.10	2018
5.	Frantsiya	- 5.80	2018
6.	Ispaniya	- 8.50	2018
7.	Buyuk Britaniya	- 8.80	2018
8.	AQSh	- 8.90	2018
9.	Gretsiya	- 9.60	2018

Evropa ittifoqi mamlakatlarida olib borilgan kredit ekspansiyasi siyosati natijasida bank tizimida global likvidlilik muammosi vujudga keltirdi. Taniqli moliyaviy sharhlovchi Embrosa Evansa-Pritchardning ta'kidlashicha evropa banklari

<sup>12</sup> www.Vesti.ru

normal darajaga chiqishi (AQSh va Yaponiya banklari darajasiga) uchun qariyib 7 trillion berilgan kreditlarini qaytarishi lozim).

Evropada moliya tiimining muhim bo'g'ini hisoblangan davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muammolar keskinlashib borayotgan bir paytda AQSh moliya tizimida ham tanazzulli holatlar boshlandi. Ushbu holat o'z navbatida moliya-kredit tizimini tartibga solish sohasida adekvat strategiyani ishlab chiqish zarurligini ko'rsatib berdi. Yuqri darajadagi davlat xarajatlari va yuqori darajadagi byudjet taqchilligi sharoitida davlat qarzlarining miqdori keskin ortib bordi. Xususan, 2015 yil uchun belgilagan limit 16,4 trln. dollar qilib belgilangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni imkon darajasida uzoq davr ushlab turishga yo'naltirilgan Barak Obamaning dasturi amalga oshirilishi AQSh iqtisodiyotida o'ziga xos bo'lgan "Fiskal jarlik" ehtimolli holati bo'lishini bashorat qilina boshladi.

Fiskal jarlik ("Fiscal cliff") — AQSh byudjet sektoridagi holat shunday nomlanmoqda. Ya'ni 2013 yildan avtomatik rashvida soliqlarning ortishi va xarajatlarning qisqartirilishi kutilmoqda ushbu tadbirlarning umumiy summasi 600 mlrd. doll.ni tashkil etadi. Hozirgi ekspertlik markazlarining e'tirof etishicha Amerika iqtisodiyoti 0,5% ga pasayishi mumkin ekan.

Agar Barak Obama tomonidan taklif etilgan dastur amalga oshirilsa quyidagi holatlarning kutilishi ehtimol qilindi:

1. Keyingi 3 yil moaynida saqlanib qoayotgan YaIMga nisbatan 8,3% ishsizlikning 9,1%na ko'tarilishi.
2. 1,7%ga o'sshi kutilayotgan YaIMning 0,5%ga pasayishi.
3. Soliqlarning o'sishi va byudjet xarajatlarining qisqarishi istie'mol talabiga salbiy ta'sir etadi.
4. Byudjet taqchillagini 3%gacha qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida teskari tendentsiya ya'ni 5,5-8,5%gacha o'sishi kutilishi mumkin.

#### **4.Moliyaviy siyosat va uning turlari**

Moliyaviy siyosat – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'lvchi tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy siyosat – bu davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisidir.

Moliya - iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, uning moddiy asosini takror ishlab chiqarish jarayonidagi pul aylanishi tashkil qiladi. Shuning uchun ham har qanday moliyaviy siyosat amalga oshirishidan qat'iy nazar ishlab chiqarish manfaatlari, uning uzuksiz davom etish qonuniyatlarini buzmasligi lozim.

Moliyaviy siyosatning muhim vazifasi – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu siyosat iqtisodiy siyosatga bog'liq ammo bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtida davlat siyosatini har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun hoh ijtimoiy, hoh iqtisodiy, yoki xalqaro munosabatlar doirasida muhim vositadir.

Moliyaviy siyosat quyidagi muhim bo'g'lnarni o'z ichiga oladi:

a) moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan kontseptsiyalarini ishlab chiqish.

b) istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish.

v) qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko'rish.

Hal qilinishi lozim bo'lган vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrini uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

1. Moliyaviy strategiya.

2. Moliyaviy taktikaga bo'linadi.

Moliyaviy strategiya – ijtimoiy va iqtisodiy strategiyani belgilab bergan uzoq istiqbolga muljallangan va yirik masshtabdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo'lib, u moliya rivojlanishining asosiy kontseptsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarini belgilashni ko'zda tutadi.

Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

### **O'z-o'zini baholash savollari:**

1. Moliyaning ijtimoiy – iqtisodiy mazmuni nimalardan iborat?
2. Moliya tizimi vau bo'yicha ilmiy qarashlar nimalardan iborat?
3. Moliya tizimi qanday bo'g'lnarni o'z ichiga oladi?
4. Moliyaning rivojlanishi necha davrga bo'linadi?
5. Moliyaviy siyosat va uning turlarini aytib bering.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 7 fevral.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiysi organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent shahri, 2017 yil 13 dekabr

3. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi // <https://regulation.gov.uz/ru/document/1678>.

4. Bodi Z., Merton R. Finansi.: Per. s angl.: Uch. Pos.- M.: «Vilyams», 2008.

5. Gadoev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. - T. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.- 189 b.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

## **1-amaliy mashg'ulot:**

**Moliya tizimi: uning bo'g'inlari va XXI asr bo'sag'asida uning transformallashuv tendentsiyalari.**

### **SEMINAR-AMALIY MASHG'ULOTI UCHUN REJA-TOPShIRIQ**

#### **❖ Muhokama uchun savollar**

- 1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.**
- 2. Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.**
- 3. Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari.**

#### **4. Moliyaviy siyosat va uning turlari**

**Ishdan maqsad:** Bozor iqtisodiyoti sharoitida Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari o'rganish.

#### **Masalaning qo'yilishi**

#### **O'quv faoliyatini natijalar:**

#### **Tinglovchilar biladilar:**

- ✓ Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini;
- ✓ Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalarini;
- ✓ Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlarini;
- ✓ Moliyaviy siyosat va uning turlarini;

#### **Tinglovchilar uddalaydilar:**

- ✓ Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlarini tushunib etadilar;
- ✓ Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalarini tahlil qiladilar, bir necha mamlakatlar kesimida solishtiradilar;
- ✓ Moliyaviy siyosat va uning turlariga oid grafik va chizmalarini tahlil qiladilar.

### ***MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:***

***Topshiriq 1.*** Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlarini

o'rganish.

**Ish mazmuni:** Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalarini tizimli ravishda o'rganish.

**Topshiriq 2.** Makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotni muvozanatli taraqqiyo etishia davlatning roli va vazifalarini o'rganish.

**Ish mazmuni:** resurslar, tovarlar va xizmatlar bozoridagi aylanma va makroiqtisodiy tartibga solish tizimida foydalaniladigan instrumentlar bilan tanishish.

## **1. Zamonaviy moliya tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.**

Moliya tizimi sifatida «moliyaviy munosabatlarning tashkil qilish shakli» yoki «moliyaviy munosabatlarning tashkiliy tuzilmalari majmuasi» sifatida ko'rib o'tish mumkin. Masalan, Taniqli amerikalik mutaxassis J.Van Xorn moliya tizimiga - davlat, firmalar va fuqarolarga turli xil xizmatlar ko'rsatuvchi moliyaviy muassasalar va bozorlarning majmuasi<sup>13</sup> –degan ta'rifni beradi. L.Drobozinaning fikricha «Moliya tizimi - pul mablag'lari fondini tashkil qilish va foydalanish jarayonidagi moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini majmuasidan iborat<sup>14</sup>»-degan ta'rifni beradi.

Professorlar A.V.Vahobov, T.S. Malikovning fikricha “...turli pul fondlaridan shaklannadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini majmuiga moliya tizimi deyiladi”<sup>15</sup>. E.F.Gadoev va X.A.Qurbanovlarning fikricha “Moliya tizimi - moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, turli sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish shakllari va usullari majmuasi bilan tavsiplanadi”<sup>16</sup>.

Yuqoridagi moliya tizimi bo'yicha keltirilgan ta'riflarda mantiiqiy yahlitlik bo'lib, ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlanish jarayonida hosil bo'ladigan pul mablag'lari fondini shakllantirish va undan foydalanish jarayoni moliya tizimining markaziy mazmunini tashkil qilish ta'kidlanadi.

Moliya tizimining asosiy funktsiyalari quyidagilardan iboratdir:

- rejalashtirish funktsiyasi;
- tashkillashtirish funktsiyasi;
- rag'batlantirish funktsiyasi;
- nazorat.


Tashkillashtirish moliya tizimining asosiy funktsiyasi sifatida davlat moliyaviy resurslarini shakllanishi va taqsimlanish ko'lамини aniqlash, vakolatli kredit tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Amalga oshiriladigan moliyaviy siyosat va uning strategik yo'naliishlari va uning taktik vazifalari tashkillashtirishning moddiy asosini tashkil etadi.

<sup>13</sup> Ван Хорн Дж. Основы управления финансами М.: Финансы и статистика, 1996. 34 с

<sup>14</sup> Дробозина Л.А. Финансы, денежное обращение и кредит. М.: Финансы и статистика, 2000.

<sup>15</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўкув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 63 б.

<sup>16</sup> Gadoev E.F., Qurbanov X.A., Bauetdinov M.J. Moliya (O'quv qo'llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2006 yil , 24 b.



### 1-rasm. Molija tizimi haqidagi ilmiy qarashlarning turkumlanishi<sup>17</sup>.

Rag’batlantirish funktsiyasi pul mablag’larga ehtiyojni hisobga olgan holda moliyaviy faoliyatga ta’sir etuvchi omillar nazarda tutiladi.

Moliya tizimining rejalshtirish funktsiyasi maqsadlarni shakllantirish va uni amalga oshirishning moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash bilan bog’liq tadbirlarni ko’zda tutadi.

Moliya tizimining nazorat funktsiyasida o’rnatilgan maqsadlarga erishishni solishtirish uchun olingan natijalarini baholash va me’yorlar ishlab chiqish jaranlarini o’z ichiga oladi.

Iqtisodiy sub’ektlarning daromadlarini shakllanish usullariga bogliq ravishda molija tizimini markazlashtirilgan molija(davlat moliyasi) va markazlashtirilmagan molija(xo’jalik sub’ektlari va uy xo’jaliklari moliyasi) kabi 2 asosiy turga ajratish qabul qilingan.

Moliya tizimi pul munosabatlari tizimini tashkil qilish shakli sifatida moliyaviy resurslarni shakllantirish va foydalanishni ta’minlovchi 3 asosiy o’zaro bog’liq tizimlarga bo’linadi: Davlat va mahalliy boshqaruv organlarining moliyasi, xo’jalik sub’ektlari moliyasi, uy xo’jaliklari moliyasi(aholi moliyasi).


Yahlit molija tizimini tashkil qiluvchi mazkur tizimlar ham iqtisodiy sub’ektlarning aniq pul mablag’lari fondini tashkil qilinishiga qarab o’z navbatida alohida bo’g’inlarga ajratiladi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki molija tizimining bo’g’inlari mamlakat miqyosida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish bilan bog’liqdir.

Markazlashtirilgan molianing tarkibida davlat moliyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasi xo’jalik sub’ektlari moliyasi bilan bevosa bog’liqdir. Chunki byudjet daromadlarini asosiy manbalaridan biri ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida yaratiladigan milliy daromad hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining molija tizimi

<sup>17</sup> Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўқув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 45 б.



## 2-rasm. Moliya tizimining bo’g’inlari.<sup>18</sup>

Byudjet davlat moliyasini asosiy bo’g’ini hisoblanadi. Chunki byudjet orqali YaIMning taxminan 20-25% i qayta taqsimlanadi. Davlat byudjet orqali yirik miqdordagi pul resurslariga ega bo’ladi. Bunday pul resurslari orqali davlat o’zining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa vazifalarini amalga oshiradi. Chunonchi, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda byudjet asosiy rol o’ynaydi. Hozirgi sharoitda umumiy byudjet xarajatlarining taxminan 60 % atrofida ijtimoiymadaniy tadbirlarga yo’naltirilmoqda.

Moliya tizimining asosini markazlashtirilmagan moliya tashkil qiladi. Chunki, aynan bu sohada yalpi ichki mahsulot yaratiladi. Birlamchi daromadlar va jamg’armalarning manbai yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.


Birlamchi daromadlar(milliy daromad) soliq tizimi, turli to’lovlar tizimi va foydani taqsimlanish tizimi orqali qayta taqsimlash jarayonining manbai hisoblanadi.

Markazlashtirilmagan moliyaning tarkibidagi moliyaviy vositachi muassasalar moliyasi muhim aahamiyat kasb etadi. Ushbu bo’g’inning markazi y institutlari mamlakatning kredit tizimini tashkil etadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar butun moliya tizimida markaziy o’rinni moliyaviy vositachi muassasalar egallaydi. Yuqori darajadagi takomillashgan moliyaiy infrastruktura tizimini mavjudligi va moliyaviy vositachilikni rivojlanganligi natijasida ularda investitsion maqsadlardagi yirik moliyaviy resurslar kontsentratsiyasi sodir bo’lgan.

XX asrning oxirgi 10 yilidagi moliyaviy innovatsiyalarning shiddat bilan rivojlanishiga qaramasdan rang-barang moliyaviy vositachilik turlari moliyaviy resurslarni oxirgi iste’molchilar uchun samarali joylashuvini ta’minlovchi «molivayi

<sup>18</sup> Gadoev E.F., Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J.. Moliya (O’quv qo’llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2009 yil , 24 b.

mahsulot»ni jalg qilish va sotish kabi umumiy funktsiyalarni bajaradi.



### **3-rasm. Moliya tizimining institutsional tarkibi<sup>19</sup>.**

Moliyaviy vositachilar tarkibida tijorat banklari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalar, xususiy pensiya fondlari, moliyaviy kompaniyalar va boshqalar hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning moliyaviy sektorini asosini tashkil qiladi. Buni E.F.Gadoev va X.A.Qurbanovlar quyidagi tarzda ifodalaydilar.

Iqtisodiyotning moliyaviy sektorini keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Birinchi holatda moliyaviy sektor bilan birgalikda nazorat qiluvchi organlar va moliyaviy ittifoqlarni tushunishimiz mumkin.

Nazorat qiluvchi organlarning asosiy vazifalari moliya tizimini barqaror faoliyatini qo'llab-quvvatlash, hukumat tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlar hamda me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llash va bevosita moliyaviy institutlar faoliyati ustidan nazratni amalga oshirish hisoblanadi.

Moliyaviy ittifoqlarning asosiy vazifalari davlat va jamiyat oldida moliyaviy institutlar guruhlarining manfaatlarini taqdim etish va himoya qilish hisoblanadi.

Moliyaviy sektorning moliyaviy institutlariga bank tizimi va nobank moliyaviy vositachi muassasalarini kiritishimiz mumkin. O'z navbatida bank tizimi tarkibida markaziy banklar alohida o'ringa egadir. Markaziy banklar davlatning pul kredit siyosatini amalga oshirishda mas'ul muassasa hisoblanadi. Shuningdek, tijorat banklari ustidan nazorat va ularni kreditlashni amalga oshiradi, emissiya(pullar, banknotalar va boshqa kredit pullarini muomalaga chiqarish), davlatni kreditlash va hukumat uchun hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish, oltin-valyuta zahiralarini saqlash va boshqa funktsiyalarni bajaradi.

Tijorat banklari universal moliyaviy muassasalar hisoblanib, kredit, investitsion, moliyaviy vositachilik, hisob kitob operatsiyalarini amalga oshiradi. Zamonaqiy tijorat banklari asosan aktsionerlik shaklida tashkil qilinadi. Tijorat banklari: aktiv operatsiyalar, passiv operatsiyalar, vositachilik va ishonch operatsiyalari va boshqa qator operatsiyalarini bajaradi.

<sup>19</sup> Gadoev E.F., Qurbanov X.A., Bauetdinov M.J.. Moliya (O'quv qo'llanma) T.: Adabiyot nashriyoti. 2009 yil , 24 b.



**4-rasm. Moliya tizimining institutsional tarkibi<sup>20</sup>.**

Nobank kredit tashkilotlari qonun buyicha belgilangan alohida bank operatsiyalari amalga oshirish huquqiga egadirlar. Ammo ular to’laqonli bank operatsiyalarni amalga oshira olmaydilar. Shuning uchun ham aksariyat adabiyotlarda nobank moliyaviy muassasalarga nisbatan «kvazibanklar» degan tushuncha keltiriladi.

Moliyaviy vositachi muassasalar tarkibida sug’urta muassasalarining ahamiyati yuksakdir. Umuman, sug’urta munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida aksariyat iqtisodchi olimlar sug’urtani moliya tizining alohida bo’gini sifatida qaraydilar.


Umuman yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, “Moliya tizimi” va “Moliya-kredit tizimi” tushunchalari o’rtasida aniq jiddiy chegaralanishlar mavjud bo’lmasdan, ular doimo bir birini to’ldirib boradilar.

Masalan, Aksariyat xorijiy iqtisodchilar jamiyatning moliya tizimi deganda asosiy urg’uni bank tizimi va moliyaviy bozorlarga qaratishadi. Bunga asosiy sabab rivojlangan mamlakatlar moliya tizimining taraqqiy etish xususiyatlari, yuqorida ko’rib o’tgan bo’g’inlarning ma’lum bir turining rivojlanishi xususiyatlari asosiy ta’sir etuvchi omil bo’lib xizmat qiladilar.

Nazariy jihatdan moliya tizimi deganda pul mablag’laraning xarakati v ushbu xarkatda ishtirok etuvchi sub’ektlar nazarda tutiladi. Buni quyidagi rasm ma’lumatlaridan ko’rishiiz mumkin.

Yuqoridagi rasmdan ko’rinib turibdiki, moliya tizimining asosiy funtsional vazifasi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezuvchi sektorlarga ortiqcha moliyaviy resurslar mavjud bo’lgan sektorlardan moliyaviy resurslarni xarakatga keltirish, qayta taqsimlash hisoblanadi.

<sup>20</sup> Ваҳобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўкув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 51 6.



### **5-rasm. Turli mamlakatlar moliya tizimining xususiyatlarining tashkiliy chizmasi<sup>21</sup>.**

Ushbu bo'sh mablag'larni jamlash va uni ehtiyoj sezuvchi sektorlarga xarakatlanishida moliya tizimining har qaysi bo'g'inining faol ishtirok etishi ushbu bo'g'inning moliya tizimidagi etakchilik rolini ta'minlaydi.

AQSh moliya tizimining o'ziga xos xusustiyatlari unda moliyaviy bozorlarning etakchilik mavqeい hisoblanishi va fond bozorlarining kapitallashuv jarayonining yuqori ko'lami bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham AQSh moliya tizimi moliyaviy bozorlarga asoslangan tizimi sifatida tavsiflanadi.

Moliyaviy resurslar kontsentratsiyasi bank tizimida yuqori bo'lgan mamlakatlar moliya tizimi banklarga asoslangan moliya tizimi hisoblanadi. Bunday moliya tizim amal qiluvchi mamlakatlarga misol tariqasida Shveysariya, Germaniya moliya tizimilarini misol keltirish mumkin.

Davlatning jamiyat xayotidagi rolining yuqoriligi, iqtisodiyotdagi davat sektorining salmoqli hissasining mavjudligi sharoitida ayrim mamlakatlar moliya tizimida davlat moliyasining etakchi mavqeい amal qiladi.

Hozirgi kunda hukm surayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida har bir mamlaat moliya tizimiga inqirozning ta'sir darajasi ham ushbu mamlakatlar moliya tizimining shakllanishi, uning har bir bo'g'irlari kapitallashuv darajasining miqdoriga bevosita bog'liq bo'lmoqda. Shuning uchun ham amalga oshirilayotgan islohotlarda moliya tizimining ahamiyatini yanada oshirish birinchi navbatda har bir mamlakat kesimida moliya tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyasining to'g'ri tanlanayotganligiga bog'liqdir. Bu borada respublikamiz milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarga to'xtalib o'tamiz.

<sup>21</sup> Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия: умумназарий масалалар (ўқув қўлланма) / Тошкент Молия институти. – Тошкент, 2007. – 57 б.

## **2.Moliya tizimini tartibga solish jarayonining maqsadi va vazifalari.**

Yuqorida ta’kidalaganimizdek, moliya kredit tizimining barqaror faoliyati milliy iqtisodiyot barqaror taraqqiyotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun to’liq bandlik va yalpi ichki mahsulotni noinflyatsion ishlab chiqarishga yo’naltirilgan muomaladagi pul massasini bosharish bo'yicha chorat tadbirlarni o'zida ifodalovchi pul-rkdeti siyosati va shuningdek, to’liq bandlik va yalpi ichki mahsulotni noinflyatsion ishlab chiqarishga yo'naltirilgan davlat xarajatlari va soliqlarni boshqarish bo'yicha chorat tadbirlarni o'zida ifodalovchi byudjet soliq siyosati moliyaviy siyosatning yo'nalishlari sifatida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltiriladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlarni amalgamashirmokda. Islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday dastaklardan eng muhimlaridan bire davlatning izchil moliyaviy siyosati hisoblanadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat moliyaviy siyosatini olib borish va iqtisodni moliyaviy tartibga solish muammolariga alohida e'tibor beriladi.

Moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, uni falsafiy kategoriyaga taqkoslaydigan bo'lsak, ustqurmaga taalluqlidir. Ma'lumki, har qanday jamiyatda ham davlat biron-bir maqsadga erishish, oldiga qo'ygan vazifa va majburiyatlarini bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi.

Moliya kredit tizimini tartibga solishning birinchi vazifasi to'lov tizimining barqarorligini ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash va pirovard natijada barqaror to'lov balansini shakllantirish hisoblanadi.

Kredit moliya-tizimining barqarorligining ta'minlash, uning alohida bo'g'inlarining birinchi navbatda tijorat banklari faoliyatini barqarorligini ta'minlash mamlakat markaziy bankning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Markaziy bankning yana bir asosiy vazifalaridan kredit organlarini (tizimini) faoliyatini tartibga solish va umumlashtirishdan iboratdir.

Monetar siyosatning asosiy masalalari pul-kredit siyosati bilan bog'liq bo'lib, umumiktisodiy infratuzilmalarni tartibga solishning, bozor kon'yukturasini yuqori darajada ushlab turish, bandlikka ta'sir o'tkazish, inqirozli tushumlarni oldini olishning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, monetar siyosatning nazariy masalalari- muomaladagi pul mablag'lari miqdorini, bank kreditlari hajmini, foiz stavkalarini, valyuta kurslarini, to'lov balansini va o'z navbatida bevosita mamlakat iqtisodiyoti holatini o'zgartirish uchun yo'naltirilgan tadbirlar majmuasidir. Iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solish to'g'risidagi etakchi nazariyalarning mohiyatini tushunmasdan turib, ilmiy asoslangan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish, uning strategiyasi va taktikasini aniq belgilab olish mumkin emas. Bu holat, ayniqsa, o'z mustaqilligini nisbatan yaqinda qo'lga kiritgan va mustaqil iqtisodiy siyosat, shu jumladan, pul-kredit siyosatini amalga oshirayotgan davlatlar uchun juda muhimdir.

Davlat siyosatining eng asosiy maqsadi, keynschilarining qarashlariga ko'ra, mehnat resurslarining yuksak darajada bandligini va ishlab chiqarishning maksimal

darajada o'sish sur'atini ta'minlash bo'lsa, monetarchilar uchun asosiy vazifa baholarning va milliy pul birligining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli, monetarchilarning modellarida ishchi kuchi bozoridagi xolat va ishlab chiqariladigan mahsulot xajmi tarkibiy omillar ta'sirida shakllanadi va shu sababli, iqtisodiy siyosat chora-tadbirlari yordamida o'zgarishi mumkin emas. Ana shunga asoslangan holda, ular, kon'yunkturaning davriy tebranishlariga har qanday vositalar bilan barxam berishga harakat kiladilar.

Bozor iktisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali tartiga solishning ob'ekti pul bozoridagi talab va taklif xamda uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yorি hisoblanadi. Pul-kredit orqali tartibga solish sub'ekti esa mamlakat Markaziy banki hisoblanadi

Bozor iktisodiyoti sharoitida pul-kredit orqali tartibga solishning ob'ekti pul bozoridagi talab va taklif hamda uning natijasida vujudga keladigan foiz me'yorি hisoblanadi. Pul-kredit orkali tartibga solish sub'ekti esa mamlakat Markaziy banki hisoblanadi. Bular quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- birinchidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;
- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;
- uchinchidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarishni litsenziyalash;
- birinchidan, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;
- ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasida hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;
- uchinchidan, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarini nazorat qilish, qimmatli qog'ozlar blanklarini nazorat qilish, kimmatlari qog'ozlar blanklarini ishlab chiqarishni litsenziyalash;
- monetar siyosatning asosiy yo'naliishlari samarali bo'lislini ta'minlash uchun, avvalambor, albatta o'tgan yillardagi mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura har tomonlama chuqur tahlil qilinmog'i zarur. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulotning tarkibi, o'sish yoki kamayish dinamikasi, ularning sabablari o'rganiladi. Yalpi ichki mahsulotning qishloq xo'jaligidagi, sanoat, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, investitsiya va qurilish sohalaridagi o'zgarishlari va ularning sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan inflyatsiya va narxlarning o'sish darajalari, tendentsiyasi va sabablari to'liq o'rganiladi.

Byudjet-soliq tizimini tartibga solish sohasidagi asosiy maqsad mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tamlash, yahlit ijtimoiy sohadagi davlat siyosatini izchi amalga oshirishga yoo'naltirilgan adekvat tizimni shakllantrish hisoblanib, bu boradagi asosiy vazifalar quyidagilardan iboratdir:

4. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini soliqlar orqali rag'batlantirish maqsadida soliq yukini izchil kamaytirish va soliq ma'murchilagini takomillashtirish. Albatta bu sohada qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib, soliq yukini qichartirish siyosati islohotlarning ustuar yo'naliшlaridan biri sifatida belgilab olindi.

5. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, faol ivesitsiya siyosatida davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar moliyaviy resurslarining mobilizatsiya qilish va davlat investitsiyalarini samarali sohalarga investitsiyalash. Hozirgi halqaro bozorlardagi investitsiya resurslarining taqchilligi sharoitida faol investitsiya siyosatini olib borish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham umumiyl investitsiyalar tarkibida asosiy salmoqni tashkil etmasa-da, byudjet resurslari hisobiga investitsiyalash davlat tomonidan iqtisodiyotni qo'llab quvvatlash siyosatini o'zida ifodalaydi.

6. Hozirgi sharoitdagi asosiy vazifalardan biri davlatning ijtimoiy siyosatini samarali realizatsiya qilish. Kuchli ijtimoiy himoya tizimining moliyaviy asoslarini shakllantirish hisoblanadi. Ijtimoiy sohalarni qo'llab quvvatlash orqali bir qator oraliq vazifalarning ham ijrosi ta'minlanadi:

birinchidan, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish daromadlar tengsizligini oldi olinadi va daromadlarni sohalar bo'yicha qayta taqsimanishi amalga oshiriladi;

ikkinchidan, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish siyosati orqali yalpi talab tarkibidagi iste'mol talabning barqarorlashuvi ta'minlanadi. Iste'mol talabi hozir hukm surayotgan jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida barcha mamlakatlardagi dolzarb masalalardan biri hisolanadi. Masalan, AQShdagi inqirozning boshlanishi AQSh iqtisodiyotidagi iste'mol talabining pasayishi natijasida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishidan boshlangan. Shuningdek, hozirgi kunda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan fiskal siyosat asosan iste'mol talabini oshirishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rniб turibdiki, joriy yilda byudjet tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lган vazifalar o'zida byudjet tizimidagi islohotlarning istiqbolga mo'ljalangan strategik yo'naliшlarini o'z ichiga oladi.

Xususan, 2016 yilgi Davlat byudjetida ish haqi, stipendiyalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalarini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorlarda oshirib borish yo'li bilan aholi daromadlari hamda turmush darajasi og'ishmay o'sib borishini ta'minlash, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning manzilliligini kuchaytirish, byudjetlararo munosabatlar tizimini yanada isloh qilib, mahalliy hokimiyat organlari mustaqilligini hamda daromadlar bazasini kengaytirishdan va resurslardan samarali foydalanishdan manfaatdorligini kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Ma'muriy islohot va davlat xizmati islohotini samarali amalga oshirish islohotlar jarayoni bilan bir vaqtda davlat organlari faoliyatining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday takomillashtirishning bosh maqsadlari, birinchidan, samaradorlik yoki unumidorlikni oshirish, ya'ni davlat organlarining

funktsiyalarini bajarishga xarajatlarni qisqartirish, davlat xizmatlarining sifatini saqlab qolgan yoki yanada yaxshilagan holda ularni arzonlashtirish, ikkinchidan, davlat xizmatida faoliyatni doimiy yaxshilashning ichki rag'batlarini yaratish, shu jumladan, tashkiliy jihatdan rivojlanish hamda ish texnologiyalarini optimallashtirishdir. Ma'muriy islohot doirasida qo'llanilgan yangi iqtisodiy mexanizm unga lozim darajada faol tus berish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish, uning o'zini-o'zi rivojlantirishini ta'minlashga qodir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda Davlat moliyasini boshqarish islohotining 2007-2018 yillarga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingan va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan davlat dasturi tayyorlanmoqda, ma'muriy islohot yo'nalishlari aniqlanmoqda.

Mazkur islohot, agar u davlat organlari faoliyatini boshqarish, rejalashtirish, byudjetlashtirish va mazkur faoliyatga baho berish islohotlari, ya'ni davlat boshqaruvi iqtisodiy mexanizmini isloh qilish bilan birga amalga oshirilsa, yanada samaraliroq bo'ladi.

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy asosi bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2002 yilda qabul qilingan Qarori<sup>22</sup> xazmat qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi islohotlarda quyidagilar belgilab olingan:

- davlat moliyasini boshqarish samaradorligini yanada oshirish;
- davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik tizimini joriy etish va natijada davlat moliyaviy resurslarini boshiarishning zamonaviy mexanizmini shakllantirish;
- davlat byudjetini boshqarishning asosiy funktsional elementi hisoblangan byudjet jarayonini va byudjetni rejalashtirish tizimini takomillashtirish.

Byudjet jarayoni va byudjetni rejalashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'rta muddatli byudjet strategiyasiga o'tishga tayyorgarlikni;
- byudjetni tuzish jarayoniga birlamchi miqdoriy cheklashlarni ishlab chiqish bosqichini kiritishni (byudjetlarni tayyorlash asoslarini shakllantirish maqsadida);
- byudjetni rejalashtirishning dasturiy-maqsadli usulini joriy etishni.

Hozirgi vaqtda ushbu usulning elementlari alohida byudjet mablag'larini oluvchilar tomonidan qo'llanilmoqda (masalan, ilmiy muassasalar, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va boshqalar).

Byudjetlashtirishning dasturiy-maqsadli usuli xarajatlarni rejalashtirish va moliyalashtirishning smeta usulidan natijaga yo'naltirilgan byudjetni rejalashtirishga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi.

Byudjet ijrosi jarayonini isloh etish. Byudjet ijrosining g'aznachilik tizimini joriy etish quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- byudjetning daromadlar va xarajatlar bo'yicha operatsiyalarini ko'pgina tijorat banklarida ochilgan byudjet tashkilotlarining hisob raqamlari o'rniga Yagona g'aznachilik hisobvarag'ida jamlash;
- g'anachilik tomonidan (Markaziy bank o'rniga) byudjetning kassa ijrosini

<sup>22</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Давлат молиясини бошқаришни ислоҳ қилиш" лойихасини амалга оширишга тайёрланиш чора-тадбирлари тўғрисида" 2002 йил 26 мартааги 144-сон Қарори

mablag'ni ajratishdan boshlab byudjet ijrosi to'g'risida hisobot tayyorlagunga qadar amalga oshirish;

- g'aznachilikning yagona axborot tizimini yaratish;
- byudjet mablag'lari maqsadli ishlatalishi ustidan dastlabki, joriy va yakuniy nazoratni amalga oshirish;
- davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisoboti yagona standartlarini yaratish.

### **3.Inqirozning navbatdagi to'qini sharoitida jahon mamlakatlarida moliya-kredit tizimini tartibga solish va isloh qilishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini izdan chiqarayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz o'tgan asrning so'nggi choragidan e'tiboran rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi mutanosibliklar, xusan real va moliyaviy sektor o'rtasidagi nisbatning keskin buzilishi oqibatida vujudga kela boshladi. Bu mamlakatlardagi yirik moliyaviy muassasalar tomonidan o'zining xususiy korporativ manfaatlarini amalga oshirish maqsadida bank-moliya sohasidagi me'yor va tartiblarning qo'pol tarzda buzilishi, jahondagi ko'plab davlatlarning real aktivlaridan spekulyativ tarzda foydalanish orqali katta daromad olishga intilish va shu tariqa global moliyaviy arxitekturada jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'yilishi, milliy iqtisodiyotdagi yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, tobora o'sib borayotgan tashqi qarzlarni cheklash uchun "arzon pullar" siyosatining qo'llanishi kabi xatti-harakatlar yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarning yanada kuchayishi va borgan sari keskin, muqarrar ravishda inqiroz holatini keltirib chiqaradigan darajada tus olishiga sabab bo'ldi.

XXI asrning dastlabki davrlarida jahon iqtisodiyotida kuzatilgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz keyingi qariyib yarim asr mobaynida taraqqiy etib borgan zamonaviy moliya tizimidagi dolzarb muammolar ta'sirida hanuzgacha davom etib kelmoqda. Keyingi yillarda kuzatilgan shiddatli globallashuv jarayonlari moliya tizimining ham umumiy trasformallahuviga ta'sir etdi. Ushbu davrlarda moliya tizimining tom ma'nodagi "arxitektura"si o'zgarib bordi va parallel ravishda uning kontseptual asosini tashkil etuvchi moliyaning neoklassik nazariyasi shakllanib bordi. Zamonaviy moliya tizimi "arxitekturasi" quyidagi omillar ta'sirida shakllandi:

-davlatning iqtisodiyotga aralashuvi qisqartirilib, iqtisodiyotdagi tadbirkorlik faoliyati erkinlashtirildi. Pirovard natijada, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida hosil qilinadigan pul fondlari tarkibida korporativ birliklar kesimida shakllantiriladigan markazlashmagan pul fondlarining hissasi va ko'lami haddan ziyod ortib bordi. Ushbu holat moliya tizimida korporativ sektor moliyasini va moliyaviy vositachilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi institutlarning ahamiyatini ortib borishiga olib keldi;

- moliya tizimida davlat moliyasi moliyalashtirishning etakchi segmenti bo'lgan bo'lsa, moliyaviy innovatsiyalarning avj olishi va moliyaviy bozorlarda yangi moliyaviy instrumentlarni (derivativalar, xedj instrumentlari va boshqalar) paydo bo'lishi natijasida ushbu tendentsiyada moliyaviy vositachilik operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi moliyaviy institutlar, bozorlarning ahamiyatini ortishiga olib keldi;

- davlatning iqtisodiy qudrati, uning moliya tizimini barqarorligi xususiy sektorning iqtisodiy qudratini sezilarli darajadaligi bilan belgilanadi. Ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllantirilishi, yalpi ichki mahsulotning shakllantirishida xususiy ukladning etakchiligi, ularning davlat moliyaviy resurslari shakllantirishdagi ahamiyatining ortishiga olib keldi. Pirovard natijada davlat moliyasining barqarorligida xususiy sektor barqaror taraqqiyotining ta'sir kuchi o'sib bordi.

- kapitallar, tovarlar, mehnat bozorlarining baynalminallashuvi alohida mamlakatlarning moliya tizimini integratsion jarayonlarga intilib borish tendeniyasini shakllantirdi. Bu holat o'z navbatida har bir mamlakat milliy moliya tizimini boshqa mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lgan inqirozli holatlarga o'zaro ta'sir kuchini yuzaga keltirdi. Ayniqsa keyingi yillarda ayrim resurslarning global darajada iste'molining kuchayishi ushbu resurslar bozoridagi kon'yunkturaning moliya tizimi barqarorligiga ta'sir etish imkoniyatining kuchayishiga olib keldi. Masalan, uglevodorod xom ashyosini(asosan neft) eksport qiluvchi mamlakatlar va ushbu xom ashyoni asosiy import qiluvchi mamlakatlar moliya tizimining barqarorligi ushbu mahsulotlarga nisbatan jahon bozoridagi kon'yunkturaga kuchli bog'liq bo'lmoqda.

Yuqoridagi omillar ta'sirida shakllangan zamonaviy moliya tizimidagi dolzarb muammolar quyidagilardan iboratdir:

7. Xalqaro savdo va kapitallar xarakatidagi disbalansning hanuzgacha saqlanib qolinayotganligi. Bu holat keyingi yillarda turli mamlakatlar kesimida olib borilgan iqtisodiy siyosat natijasi hisoblanadi. Xususan, halqaro zahiralar xajmi bo'yicha etakchilik qilayotgan Xitoy iqtisodiyotining eksportga yo'naltirilganligi va shuningdek, asosiy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ayrim tovarlar va xizmatlarga nisbatan iste'molga "yotib olishi" halqaro kapitallar xarakatidagi disbalansning buzilishiga olib kelgan edi. Ushbu muammoni 2008 yilda rasman tan olingan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini vujudga kelishidagi asosiy omil sifatida e'tirof etilgan edi. Keyingi yillardagi tendentsiya ko'rsatmoqdaki bu boradagi faoliyatni tartibga solish borasida jiddiy o'zgarishlar kuzatilgani yo'q. Masalan, Xitoyning AQShga tovarlar va ximatlar eksporti 2012 yilda 10,3%ga ortgan.

8. Keyingi yillarda olib borilgan monetar siyosatning salbiy ta'sirining davom etishi. Bugungi kunda kuchli moliyaviy-iqtisodiy inqirozni boshdan o'tkazayotgan evropa iqtisodiy konfederatsiyasi moliya tizimidagi dolzarb muammolar qatorida olib borilgan kredit ekspansiyasi siyosati natjasidagi bank tizimida global likvidlilik muammosi muhim o'rinnegallaydi. Taniqli moliyaviy sharhlovchi Embrosa Evansa Pritchardning ta'kidlashicha Evropa banklari normal darajaga chiqishi uchun qariyib 7 trillion evro miqdoridagi berilgan kredit resurslarini qaytarib olishi lozim. Banklarning ushbu mablag'lari tarkibida davlat obligatsion zayomlariga qo'yimalar xajmi ham sezilarli salmoqni tashkil etadi.

9. Jahon moliya bozori kapitallashuv darajasining ortishi va unda yuqori riskli aktivlar bilan keragidan ortiq darajada to'yinishi ushbu yuqori riskli aktivlar bo'yicha operatsiyalar ustidan mavjud nazorat tizimini kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lindi.

10. Davlatlar tomonidan olib borilgan qarz siyosati va uning natijasida qarzdorlik muammosining avj olishi.

11. AQSh dollarining 2002-2008 yillardagi qadrsizlanishi, aksariyat mamlakatlarda uning rezerv valyuta sifatidagi statusining pasayishiga olib keldi va

hatto ayrim mamlakatlar xalqaro hisob kitoblarda alternativ valyuta haqida qaror qabul qilish holatlarini kuzatilishiga olib kelmoqda.

12. Keyingi yillarda jahon iqtisodiyoti va har bir mamlakatlarda iqtisodiy muvozanatni saqlashga qaratilgan moliyaviy siyosat asosan global talab va taklifni rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Lekin, olib borilayotgan moliyaviy siyosat global iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jiddiy ta'sir kuchiga ega bo'lmayapti.

Dastlab bu chora-tadbirlar 2009-2010 yillarda ma'lum natija bergandek bo'ldi. Xususan, jahon iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining pasayishi to'xtatildi, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, investitsion faollik jonlandi. Biroq, ushbu chora-tadbirlardagi o'zaro mutanosiblik darajasining pastligi, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarini qo'lllashdagi izchillikning yo'qligi ularning samarasini keskin pasaytirib yubordi, aksariyat hollarda ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermadi.

2011 yil inqirozning ikkinchi to'lqini boshlanishi ehtimoli bilan bog'liq bozor vahimalarining qaytadan kuchayish davri bo'ldi. Ayniqsa, evrohududdagi qarzdorlik inqirozi chuqurlashib, uning bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoriga tarqalishi kuzatildi. Evropa siyosatchilari yakdil bir qarorga kelishda sustkashlik va layoqatsizlikni namoyon etishda davom etdilar.

Umuman Evropa ittifoqida moliyaviy-iqtisodiy inqirozning kuchayishi quyidagilar bilan bevosita bog'liqdir:

Dastlab Evropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar moliya tizimini(bank,soliq va byudjet tizimi) tizimli nazorat qiluvchi organlar shakllantirilishi zarur edi. Shundan so'ng umumi kredit-pul tizimi joriy etilishi zarur edi. Hozirgi sharoitda Evrokommisiya va Evropa markaziy banki(EMB) Evrohudud iqtisodiyoti va moliya tizimini real boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmayapti. Natijada uning evroni miliy valyuta sifatida qabul qigan mamlakatlardagi moliyaviy holatni nazorat qilish imkoniyati mavjud emas.

EMB tomonidan olib borilayotgan siyosat ham asosan evrohudud tarkibidagi kuchli mamlakatlarga qaratilgan. Boshqa mamlakatlarning ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlari umumi qaror qabul qilishda ta'sir kuchiga ega bo'lindi. "Zaif bo'g'in" hisoblangan mamlakatlar Evrokommisiya tomonidan e'lon qilinganshartlarni to'liq bajarish imkoniyatiga ega emas edilar. Natijada ushbu mamlakatlar byudjet muvozanatini ta'minlashga yo'naltirilgan EI qoidalarini buza boshladilar. Masalan, Gretsiya evrohududga a'zo mamlakatlar tomonidan imzolagan "Barqarorlik Pakti", Byudjet intizomi bo'yicha belgilangan chegaradan chetga chiqsa boshladilar. Masalan, ushbu barqarorlik paktiga binoan davlat qarzlariga belgilangan chegaraviy mezonlar YaIMga nisbatan 60% qilib belgilangan edi.

### 1-jadval

#### Jahonning ayrim mamlakatlarida davlat qarzlarining holati to'g'risida

### ma'lumot<sup>23</sup>

Nº	Mamlakatlar nomi	YaIMga nisbatan Davlat qarzlari, %da	Axborot tegishli yil
11.	Yaponiya	220,90	2015
12.	Gretsiya	175,30	2015
13.	Italiya	126,10	2015
14.	Portugaliya	119,70	2015
15.	Irlandiya	118,00	2015
16.	Frantsiya	89,10	2015
17.	Buyuk Britaniya	88,70	2015
18.	Ispaniya	83,20	2015
19.	Germaniya	80,50	2015
20.	AQSh	105,40	2015

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tanlanma kuzatish o'tkazilayotgan 10 mamlakatlarda davlat qarzdorligi YaIMganisbatan 60%dan ortib ketgan. Maastrixt mezonlari bo'yicha davlat qarzlari YaIMga nisbatan 60%dan ortib ketmsligi tavsiya etiladi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda davlat byudjeti taqchilligi va davlat qarzlari hamda uni boshqarish aksariyat rivojlangan mamlakatlar oldidagi dolzARB muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, aksariyat mamlakatlarda surunkali byudjet taqchilligi kuzatilmoqda. Ayniqsa hozirgi kunda Evrohudud tarkibidagi mamlakatlarda davlat moliyasi bilan bog'liq dolzARB muammolarda byudjet taqchilligi muammosi tobora keskinlashib bormoqda. Xususan, Italiyada (-5,6%), Frantsiyada (-5,8%), Buyuk Britaniyada (-8,8%), Ispaniyada(-8,5%), Gretsiyada (-9,6%), AQShda (-8,9%) byudjet taqchilligi o'rtacha me'yoriy darajadan ortib ketgan(Maastrixt mezonlari bo'yicha o'rtacha me'yoriy daraja 3%ni tashkil etadi).

Byudjet taqchilligining ortishi va uni o'sib borishi aksariyat mamakatlardagi davlat qarzlarining tobora ko'payib borishiga olib kelmoqda.

Davlat xarajatlarini qisqartirish iqtisodiyotdagi umumiyo o'sishni sekinlashuviga olib keldi (Gretsiyada 100000 korxona yopildi, qariyib 30% aholi nochor, Iqtisodiy o'sishning pasayishi aksariyat evropa mamlakatlarida ishsizlikni 10%dan ortishiga olib keldi).

Gretsiya 2010 yil aprel oyida sodir bo'lishi kutilgan defolt qutulish maqsadida Evropa komisiyasiga murojat qildi. Evropa komissiyasi, EMB va XVF 240 mlrd evro miqdoridagi kreditni taqdim etish majburiyatini oldi. Buning uchun Gretsiya xukumati oldiga byudjetni iqtisod qilish siyosatini olib borish bo'yicha qattik shartlar belgiladi. Pirovard natijada uy xo'jaliklari iqtisodiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

### 2-jadval

#### Jahonning ayrim mamlakatlarida byudjet holati to'g'risida ma'lumot<sup>24</sup>

<sup>23</sup> [www.Vesti.ru](http://www.Vesti.ru)

<sup>24</sup> [www.Vesti.ru](http://www.Vesti.ru)

Nº	Mamlakatlar nomi	YaIMga nisbatan % da	Axborot tegishli yil
10.	Germaniya	- 1.70	2018
11.	Italiya	- 5.60	2018
12.	Kanada	- 3.80	2018
13.	Qirg'iziston	- 5.10	2018
14.	Frantsiya	- 5.80	2018
15.	Ispaniya	- 8.50	2018
16.	Buyuk Britaniya	- 8.80	2018
17.	AQSh	- 8.90	2018
18.	Gretsiya	- 9.60	2018

Evropa ittifoqi mamlakatlarida olib borilgan kredit ekspansiyasi siyosati natijasida bank tizimida global likvidlilik muammosi vujudga keltirdi. Taniqli moliyaviy sharhlovchi Embrosa Evansa-Pritchardning ta'kidlashicha evropa banklari normal darajaga chiqishi (AQSh va Yaponiya banklari darajasiga) uchun qariyb 7 trillion berilgan kreditlarini qaytarishi lozim).

Evropada moliya tiimining muhim bo'g'ini hisoblangan davlat moliyasi tizimidagi dolzarb muammolar keskinlashib borayotgan bir paytda AQSh moliya tizimida ham tanazzulli holatlar boshlandi. Ushbu holat o'z navbatida moliya-kredit tizimini tartibga solish sohasida adekvat strategiyani ishlab chiqish zarurligini ko'rsatib berdi. Yuqri darajadagi davlat xarajatlari va yuqori darajadagi byudjet taqchilligi sharoitida davlat qarzlarining miqdori keskin ortib bordi. Xususan, 2015 yil uchun belgilagan limit 16,4 trln. dollar qilib belgilangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichni imkon darajasida uzoq davr ushlab turishga yo'naltirilgan Barak Obamaning dasturi amalga oshirilishi AQSh iqtisodiyotida o'ziga xos bo'lgan "Fiskal jarlik" ehtimolli holati bo'lishini bashorat qilina boshladi.

Fiskal jarlik ("Fiscal cliff") — AQSh byudjet sektoridagi holat shunday nomlanmoqda. Ya'ni 2013 yildan avtomatik rashvida soliqlarning ortishi va xarajatlarning qisqartirilishi kutilmoqda ushbu tadbirlarning umumiy summasi 600 mlrd. doll.ni tashkil etadi. Hozirgi ekspertlik markazlarining e'tirof etishicha Amerika iqtisodiyoti 0,5% ga pasayishi mumkin ekan.

Agar Barak Obama tomonidan taklif etilgan dastur amalga oshirilsa quyidagi holatlarning kutilishi ehtimol qilindi:

5. Keyingi 3 yil moaynida saqlanib qoayotgan YaIMga nisbatan 8,3% ishsizlikning 9,1%na ko'tarilishi.
6. 1,7%ga o'sshi kutilayotgan YaIMning 0,5% ga pasayishi.
7. Soliqlarning o'sishi va byudjet xarajatlarining qisqarishi istie'mol talabiga salbiy ta'sir etadi.
8. Byudjet taqchillagini 3%gacha qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida teskari tendentsiya ya'ni 5,5-8,5%gacha o'sishi kutilishi mumkin.

#### **4.Moliyaviy siyosat va uning turlari**

Moliyaviy siyosat – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisidir.

Moliyaviy siyosat – bu davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo’lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo’naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig’indisidir.

Moliya - iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki, uning moddiy asosini takror ishlab chiqarish jarayonidagi pul aylanishi tashkil qiladi. Shuning uchun ham har qanday moliyaviy siyosat amalga oshirishidan qat’iy nazar ishlab chiqarish manfaatlari, uning uzluksiz davom etish qonuniyatlarini buzmasligi lozim.

Moliyaviy siyosatning muhim vazifasi – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdir. Bu siyosat iqtisodiy siyosatga bog’liq ammo bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko’rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo’lish bilan bir vaqtda davlat siyosatini har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish uchun hoh ijtimoiy, hoh iqtisodiy, yoki xalqaro munosabatlar doirasida muhim vositadir.

Moliyaviy siyosat quyidagi muhim bo’g’inlarni o’z ichiga oladi:

- a) moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan kontseptsiyalarini ishlab chiqish.
- b) istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo’nalishlarini belgilab olish.
- v) qo’yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko’rish.

Hal qilinishi lozim bo’lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrini uzoqligiga qarab, moliyaviy siyosat:

1. Moliyaviy strategiya.
2. Moliyaviy taktikaga bo’linadi.

Moliyaviy strategiya – ijtimoiy va iqtisodiy strategiyani belgilab bergan uzoq istiqbolga muljallangan va yirik masshtabdagi vazifalarni bajarishga qaratilgan bo’lib, u moliya rivojlanishining asosiy kontseptsiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillarini belgilashni ko’zda tutadi.

Moliyaviy taktika – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

### **O’z-o’zini baholash savollari:**

6. Moliyaning ijtimoiy – iqtisodiy mazmuni nimalardan iborat?
7. Moliya tizimi vau bo’yicha ilmiy qarashlar nimalardan iborat?
8. Moliya tizimi qanday bo’g’inlarni o’z ichiga oladi?
9. Moliyaning rivojlanishi necha davrga bo’linadi?
10. Moliyaviy siyosat va uning turlarini aytib bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sون Farmoni, 2017 yil 7 fevral.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiysi organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent shahri, 2017 yil 13 dekabr

8. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi // <https://regulation.gov.uz/ru/document/1678>.

9. Bodi Z., Merton R. Finansi.: Per. s angl.: Uch. Pos.- M.: «Vilyams», 2008.

10. Gadoev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. - T. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.- 189 b.

## **2- amaliy mashg'ulot:**

### **O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari (4 soat)**

#### **SEMINAR-AMALIY MASHG'ULOTI UCHUN REJA-TOPSHIRIQ**

##### **❖ Muhokama uchun savollar**

2.1. Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar.

2.2 . O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari.

1.3.O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlari

**Ishdan maqsadi:** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tinglovchilarining bilimlarini mustahkamlash.

#### **O'qувфаолияти на тижалари:**

##### **Tinglovchilar biladilar:**

✓ Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlarni;

✓ O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlarini;

✓ O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlarini;

##### **Masalaning qo'yilishi:**

Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarida ko'rib o'tilgan nazariy masalalar asosida amaliy mashg'ulotda tinglovchilar guruhlarga bo'linib, paragraflar kesimida jamoaviy mulohazalarni shakllantiradilar.

##### **Tinglovchilar uddalaydilar:**


✓ Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlarni tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish;

- ✓ O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan vazifalarni ijrosini tahlil qilish;
  - ✓ mavjud tahliliy materiallar asosida O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'nalishlarini yaqin istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish;

## Kichik guruhlarda ishslash qoidasi

1. Tinlovchilar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo'lmog'i lozim.
  2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
  3. Kichik guruh oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
  4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
  5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'rinqoma berishi lozim.
  6. Asosiy qoida: Nima bo'lganda ham muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

## «Nima uchun?» texnikasi



## Baholash mezoni va ko'rsatkichlari

Guruhsar	Savolning to'liq va aniq yoritilishi 0-5 ball	Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball	Guruh a'zolarining faolligini 0-5 ball	Jami ball

15 – 13 ball – «a'lo»; 12 – 10 ball – «yxaxshi»; 9 – 6 ball – «qoniqarli».

**Ekspert qog'ozlari - topshiriqlar**



### ***MUSTAQIL TAYYORGARLIK UChUN TOPShIRIQLAR:***

***Topshiriq 1. Zamonaviy sharoitlarda rivojlangan mamlakatlar davlat moliyasi tizimining xususiyatlarini o'rghanish.***

***Ish mazmuni:*** AQSh, Evropa, Yaponiya davlatlari davlat moliyasi tizimi, byudjet tuzilmasi va ulardagi byudjet jarayonini o'rghanish.

***Topshiriq 2. Moliyaviy siyosat va uning turlarini tavsiflash.***

***Ish mazmuni:*** Klassik tavsifdagi moliyaviy siyosat, tartibga soluvchi va rejali-direktiv tavsifdagi moliyaviy siyosat turlarini solishtshirish va tahlil qilish natijasida umumiylar xulosalar shakllantiriladi.

***Topshiriq 3.Fiskal siyosatnining turlari va ularning iqtisodiyotni tsiklik rivojlanishidagi asosiy maqsadlari nimalardan iborat ?***

***Ish mazmuni:*** Desekretsion fiskal siyosat, nodeskretsion fiskal siyosat instrumentlaridan iqtisodiyotning tsiklik rivojlanish davrlarida foydalanish xususiyatlarini tushunib etadilar. Zamona sharoitlarda rivojlangan mamlakatlar va milliy byudjet tizimiga baho beradilar.

**2- MAVZU. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida moliya tizimining shakllanishi va uni isloh qilishning ustuvor yo'naliishlari.**

#### **Reja**

- 1. Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar.**
- 2. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'naliishlari.**
- 3. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo'naliishlari.**

#### **1.Mustaqillik yillarda moliya tizimidagi islohotlar<sup>25</sup>.**

Ijtimoiy iqtisodiy O'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi

<sup>25</sup> Ушбу параграфни тайёрлашда А.В. Ваҳобов, Т.С. Маликовлар томонидан тайёрланган “Молия: умумназарий масалалар” номли ўқув қўлланмасининг 2-боби материаларидан фойдаланилди.

iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bO'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga O'tishning O'zbek modelining jahon iqtisodiy va moliyaviy hamjamiyati tomonidan sO'zsiz tan olinishining asosiy sabablari mustakillik yillarida mamlakatimiz erishgan yutuqlarning zamirida yotadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va moliya tizimini isloh qilish 3 asosiy bosqichda amalga oshirildi.

**Birinchi bosqich** mustaqillikka erishganimizdan boshlab 1994 yilgacha bO'lган davrni O'z ichiga qamrab olib, milliy davlat moliyasi tizimining shakllanish davri bO'lib hisoblanadi. Bu bosqich milliy daromadning katta qismining davlat byujetida mujassamlashtirilib, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashdagi etakchi O'rni bilan tavsiflanadi.

Bu davrda soliq va byudjet siyosati milliy iqtisodiyot poydevorini shakllantirishga, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlarini rivojlantirishga va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratishga qaratilgan edi. Ayniqsa, O'sha paytda Rossiyada O'tkazilayotgan "shok terapiyasi" siyosati sababli ijtimoiy zarur tovarlarning narxi keskin oshib ketganligi oqibatlarining oldini olish tadbirlari byudjet siyosatining eng dolzarb masalalaridan biri bO'lган edi. Jumladan un, shakar, gO'sht, sut, choy, guruch va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik bO'lган tovarlar uchun Davlat byudjetidan katta miqdordagi dotatsiyalarning ajratilishi bilan iste'mol narxlarining keskin oshishining oldi olindi, aholining yordamga muhtoj qatlamlarining ehtiyojlari qondirildi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ahillik saqlab qolindi.

**Ikkinci bosqich** 1994-1999 yillarni O'z ichiga olib, soliq va byudjet tizimining barqarorlashuvi va tarkibiy jihatdan rivojlanishi, hamda byudjet ijrosining xalqaro andozalarga O'tilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda byudjet ijrosining milliy valyuta-sO'mda amalga oshirilishi va Soliq kodeksining (1998) qabul qilinishi natijasida davlat moliyasi tizimi mohiyati jihatdan yangi mazmun va shaklga ega bO'ldi.

Soliq siyosatining fundamental masalalari bO'lган soliq turlari va stavkalari, umum davlat va mahalliy soliqlar klassifikatsiyasi, soliqqa tortish uslubiyatining asoslari va boshqa umumi iqtisodiy masalalar Soliq kodeksida aniq va ravshan belgilab berildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi xalqaro ekspertlar chig'irig'idan O'tgan zamonaviy soliq siyosatining barqaror huquqiy poydevoriga ega bO'ldi.

O'z navbatida Soliq kodeksida milliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun bir qator imtiyozlar belgilab berildi. Bu imtiyozlar quyidagi maqsadlarga qaratildi:

- ichki bozorda iste'mol mollari ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- eksportbop mahsulot ishlab chiqaruvchilarni qO'llab-quvvatlash;
- qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish va yagona er soliqini joriy qilish orqali qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi alohida O'rnini ta'minlash;
- soliq tizimi orqali kichik va O'rta tadbirkorlikni rag'batlantirish;
- xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay moliyaviy shart-sharoit yaratish va boshqalar.

Davlat byudjetining xarajatlari nuqtai nazardan qarasak davlat byudjetining tarkibi takomillashtirildi, xarajatlarning ijtimoiy yo'nalganligi kuchaydi, ko'plab turdag'i xarajatlarni dasturlar asosida moliyalashtirishga O'tildi, mahalliy byudjetlarning roli yildan yilga ortib bormoqda va byudjet taqchilligini moliyalashtirishning noinflyatsion uslublari amalga tadbiq etilib yillar mobaynida

ularning salmog'i ortib bordi.

***Uchinchi bosqich.*** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlisning birinchi chaqiriq XIV sessiyasidagi va ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'ruzalarida belgilab berilgan jamiyat xayotining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan bosh strategiyasi davlat moliyasi rivojining uchinchi bosqichini boshlab berdi.

Shunga binoan, soliq va byudjet siyosatining istiqbol yo`nalishlari deb quyidagilar belgilab olindi:

- iqtisodiyotda davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik funktsiyalarini qisqartirish;
- inflyatsiyani bosqichma-bosqich kamaytirish va uni yiliga 5-8% gacha tushirish;
- aholi daromadlarining uzlusiz oshishini ta'minlash;
- aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash tadbirlarini izchan amalga oshirish;
- sog'lom va ilg'or yosh avlodni tarbiyalash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

Shularga binoan, 2000 yilning o'zidayoq, soliq siyosatiga bir qator o'zgarishlar kiritildi. Xususan, yuridik shaxslar uchun foya (daromad) soliqi stavkasi 33% dan 31% ga, aholi daromadlariga soliqning eng yukori stavkasi 45 foizdan 40 foizgacha pasaytirildi.

## **2. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq tizimidagi islohotlar va uning ustuvor yo`nalishlari.**

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi quyidgi bo'g'inalarni o'z ichiga oladi:

1. Umumdavlat moliyasi.
2. Mulkchiliknin turli shaklarida faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub'nektlar moliyasi.

Davlat moliyasi - kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan milliy daromadni taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari tizimini o'z ichiga oladi.

Davlat moliyasining mohiyati va uning roli va maqsadlari davlatlarni bajaradigan funktsiyalarini, ishlab chiqarish usullari, ishlab chiqarish munosabatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Davlatlarning paydo bo'lishi bilan moliyaning paydo bo'lishini ob'ektiv shart-sharoitlari davlatlarning jamiyat iqtisodiy tizimidagi o'rni va unga tegishli bulgan funktsiyalarida namoyon bo'ladi.

Davlatlarning iqtisodiy roli:

- jamiyat iqtisodiy tizimida mulkchilik munosabatlarini isloh qilish;
- institutsional o'zgarishlar;
- iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy tenglik me'yorlarini ta'minlashdan iboratdir.

Ana shunday davlatlarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rolini amalga oshirishi uchun yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi va bunday moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish jarayoni davlat moliyasining mazmunini anglatadi.

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini bajarishi uchun zaruriy pul mablag'lari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan mamlakatning moliya tizimini muhim bo'g'inidir. O'zinig iqtisodiy mohiyatiga ko'ra davlat moliyasi yalpi ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonida davlat ihtiyyorida pul fondlarini shakllantirish va mazkur davlatning pul fondlaridan kengaytrilgan takror ishlab chiqarishni rivojlanтирish bo'yicha xarajatlarga, jamiyat a'zolarining o'ib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishga, mudofaa va boshqarish sohalarini moliyaviy ta'minlash bo'yicha davlat ehtiyojlarni qondirishga ishlatish bilan bog'liq makroiqtisodiy munosabatlari tizimidir. Davlat moliyasining o'ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki unda qatnashuvchi sub'ekt sifatida davlatning o'zi maydonga chiqadi.

**Davlat moliyasining asosiy bo'g'inlari** quyidagilardan iborat:

- davlat byudjeti;
- byudjetdan tashqari fondlar;
- davlat krediti munosabatlari;
- davlat korxonalari moliyasi.

Yuqorida sanab o'tilgan davlat moliyasi bug'inlarining funktional vazifalari yordamida davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning keng spektrlariga ta'sir qiladi, tarmoq va xududiy muammolarni hal qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Mahalliy moliya mahalliy davlat hokimiyyati organlari moliyaviy re6surslari fondini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq pul munosabatlari tizimini o'zida ifodalaydi. Mahalliy moliyaning muhim bo'g'inini mahalliy byudjetlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 22 dekabrdagi Parlamentga yo'llagan murojaatida byudjet tizimini qayta ko'rib chiqish, byudjet daromadlari va xarajatlarining oshkorligini ta'minlash, byudjet sohasida qarorlar qabul qilishda aholining manfaatlariga alohida e'tibor berish zarurligi ta'kidlangan edi. O'tgan yilda joylardagi davlat boshqaruv organlarining mahalliy byudjetlarni shakllantirishdagi vakolatlarini, ularning mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish va zaxiralarini aniqlashdan manfaatdorligi va javobgarligini oshirish, shuningdek shaffoflik va byudjet jarayoni ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va byudjet intizomini mustahkamlash hamda Davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar qabul qilindi. Shu bilan birga, amaldagi davlat moliyasi tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi va olib borilayotgan byudjet siyosatiga, o'rta muddatli davrda qabul qilingan davlat dasturlari bilan bog'liq byudjet xarajatlariga ob'ektiv va ishonchli baho berishga imkon bermaydi, byudjetni rejalahtirishning xalqaro e'tirof etilgan usullari kam joriy etiladi. Birinchidan, byudjetdan ajratiladigan mablag'lari bilan rivojlanтирish dasturlari o'rtasida bog'liqlik yo'q, byudjet mablag'lari byudjet resurslarini qayta taqsimlash mexanizmlarining past darajada rasmiylashtirilishi hamda moliyalashtiriladigan tadbirlar va yo'nalishlarni tanlashning aniq mezon va tartiblari mavjud bo'limgan sharoitda o'tgan yillardagi byudjet mablag'larini indeksatsiya qilish asosida taqdim etiladi. Byudjetni rejalahtirishning amaldagi tizimi yillik byudjetning balanslashgan ijrosiga yo'naltirilgan. Biroq makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, soliq-byudjet siyosatining

oldindan ko'ra bilish nuqtai nazaridan yillik rejalashtirishning salohiyati juda cheklangan. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilar va oluvchilar o'zlarining istiqbolli rejalarini rejalashtirilgan yildan ortig'iga prognozlashtira olmaydi. Yillik rejalashtirishda fiskal intizomning rejalashtirilgan natijalarga yaqinlashishiga erishish mumkin. Biroq bunday fiskal intizomning foydasi yillik davr bilan chegaralanadi. Daromadlar va xarajatlar qismida yillik rejalashtirilgan byudjetni bajarish, lekin oxirida o'rta muddatli davrda defitsitga duch kelish mumkin. Bu o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlarning va ularning byudjet daromadlariga ta'sirini baholashning mavjud emasligi bilan izohlanadi. Byudjetni rejalashtirishda joriy byudjetning Davlat rivojlanish dasturlari bilan bog'liqligi kuchsizligicha qolmoqda. Ushbu dasturlar doirasida amalga oshiriladigan loyihamlar (yangi inshootlarni qurish, foydalanishga mo'ljallangan uskunalarini etkazib berish) foydalanishga topshirilganidan keyin ularni joriy saqlash xarajatlarini talab qiladi. Biroq yillik byudjetni rejalashtirishda yangi ob'ektlarni foydalanishga topshirish byudjet prognozi bilan muvofiqlashtirilmaganlik hollari ham mavjud, ya'ni ularni joriy saqlash xarajatlari hisobga olinmaydi. Byudjet mablag'larini shakllantirish va ijro etishda byudjet mablag'ları taqsimlovchilarining vakolati va, tegishlicha, mas'uliyati cheklangan. Byudjetni boshqarish, asosan, haqiqatdagi va rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning bajarilishini nazorat qiladi, bu esa byudjet mablag'laridan foydalanishning yakuniy natijalarini va aniq maqsadlarini, shuningdek, vazirlik va idoralar – byudjet mablag'larini taqsimlovchilarining amalga oshiriladigan dasturlari baholash mezonlarini aniq ifodalamaydi. Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligi ustidan ichki audit tartib-taomillari va metodologiyasi mavjud bo'limgan holda, kassa xarajatlarining rejali ko'rsatkichlarga muvofiqligi ustidan tashqi nazorat ustunlik qiladi. Ikkinchidan, byudjetni rejalashtirish davlat moliya tizimining bo'linganligi hisobiga makroiqtisodiy tartibga solishning samarali vositasi bo'la olmadi. 36 ta vazirlik va idoralarning YaIMga nisbatan 1,5 foizga yaqin byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'ları, shuningdek hisoblangan YaIMga nisbatan 2 foizga yaqin xalqaro moliya institutlari hisobidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va infratuzilma loyihamari mablag'ları konsolidatsiyalashgan Davlat byudjetida aks ettirilmaydi. Uchinchidan, Davlat byudjetini shakllantirishning amaldagi mexanizmlari hududiy rivojlanishning barcha muammoli masalalarini qamrab olish imkonini bermaydi. Ko'p yillar davomida Davlat byudjetidan qishloq joylardagi muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish, shu jumladan, ularni ichimlik suvi bilan ta'minlash va qishloq yo'llarini qurish uchun etarlicha mablag ajratilmagan, bu olis va borish qiyin bo'lган joylarda yashovchi aholi turmush darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Byudjetni rejalashtirishning haddan tashqari markazlashuvi tufayli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha loyihamni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv organlarining shaxsiy mas'uliyat hissi sezilmaydi, xarajatlarga oid majburiyatlarini bo'yicha qarorlar moliyalashtirish imkoniyatini hisobga olmagan holda qabul qilinadi. Bugungi kunga qadar mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish sohasida ijro etuvchi boshqaruv organlari rahbarlarining aholi va xalq deputatlari Kengashlari oldida hisobot berishlari etarli darajada emas.

To'rtinchidan, Davlat byudjetini tuzish, rejalashtirish va ijro etish jarayonida

byudjet jarayonining oshkorligini ta'minlashda innovatsion mexanizmlar va yondashuvlar joriy etilmagan. Texnologik infratuzilmaning rivojlanishiga qaramasdan, byudjet jarayonining to'liq avtomatlashtirilmagani, vaqt va resurslarni ortiqcha sarflash kabi noqulayliklarga olib kelmoqda. Beshinchidan, davlat qimmatli qog'ozlar bozori, uning infratuzilmasi va boshqa zamonaviy vositalar yo'qligi Davlat byudjeti defitsitini qoplash va maqsadli davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun infliyatsiyasiz manbalarni safarbar qilish imkonini bermaydi.

Oltinchidan, amaldagi pensiya tizimi fuqarolarni qarilikda ijtimoiy himoya qilish uchun eng qulay sharoitlar yaratmaydi, pensiya miqdorini belgilash tartibi fuqarolarni sug'urta badallarini to'lash uchun rag'batlantirmaydi, pensiya miqdori va xodimning mehnatga qo'shadigan hissasi o'rtasidagi bog'liqlik past, pensiya to'lovlari yuki oshadi, ish beruvchi va ishchi o'rtasida Pensiya jamg'armasiga majburiy badallar to'lash bo'yicha javobgarliklar aniq taqsimlanmagan. Shu munosabat bilan, davlat moliyasi tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, byudjetni rejalashtirishning xalqaro e'tirof etilgan usullarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va fuqarolarni davlat moliyasini boshqarishga jalb qilish orqali byudjet tizimini isloh qilish zarur.

### **1-jadval.**

#### **Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot, mlrd.**

**so'm**

<b>Asosiy byudjet ko'rsatkichlari</b>	<b>2017 yil</b>	<b>2018 yil</b>	<b>2019 yil</b>
Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlari	44469,6	62229,5	102627,6
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	10674,2	12805,4	29125,5
Bilvosita soliqlar	24285,4	33404,3	47029,8
Resurs soliqlari	6049,5	9714,5	16906,8
Boshqa daromadlar	4360,5	6305,3	9566,3

Prognоз ко'rsatkichlarining o'sish sur'atini 2-jadvaldan ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki keyingi 3 yil mobaynida davlat byudjeti daromadlari tarkibida yuqori o'sish sur'ati bevosita soliqlarda kuzatilmoqda (7.2-jadvalga qarang). Birgina 2018 yilga nisbatan 2019 yildagi ushbu soliqlardagi yillik o'sish sur'ati 227,4 %ni tashkil qilgan. Natijada ushbu soliqlarning byudjet daromadlarini shakllantirishdagi roli ortib bormoqda.

### **2-jadval**

#### **Davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot**

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Davlat byudjeti daromadlari, mlrd so'm	21295,8	26223,2	31729,6	36184,9	40505	44469,6	62229,5	102627,6

Demak, 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, davlat byudjeti daromadlari nominal mazmunda 2012 yilga nisbatan 2017 yilda qariyib 2 barobardan ko'p miqdorda oshib bormoqda. 2017 yilga nisbatan 2019 yilgi prognoz ko'rsatkichi shcham 2 barobardan ko'p ortib bormoqda.

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, jami jamlanma byudjet daromadlari 2019 yilda 102627,6 mld. so'mga prognozlashtirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 182741,8 mld. so'mga etishi prognoz qilingan. Davlat byudjetining 2021 yilgi prognoz ko'rsatkichi 154185,5 mld. so'mni tashkil qilishi prognozlashtirilgan.

### 3-jadval

#### Davlat byudjetining 2019-2021 yilga o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlari

t/r	Manbalar nomi	2019 yil prognoz	Davlat byudjetining mo'ljal ko'rsatkichlari	
			2020 yil	2021 yil
1.	Jami jamlanma byudjet daromadlari	121830,0	149978,9	182741,8
2.	Davlat byudjeti daromadlari	102627,6	126163,5	154185,5
3.	Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlari	19202,4	23815,4	28556,3
4.	Jami transferlar	5001,2	9870,0	11350,0

“O’zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi”ning IV bo’lim, 9-bob, 50-moddacida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish tartibi va manbalari belgilangan. Xususan, davlat byudjeti daromadlari:


- soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to’lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi<sup>26</sup>.

Davlat byudjeti daromadlarining shakllanish samaradorligi va barqarorligi amalga oshirilishi ko'zda tutilgan xarajatlар ijrosining moddiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, davlat byudjeti xarajatlari davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning tom ma'nodagi ifodasini o'zida aks ettiradi.

Davlat byudjetining asosiy vazifasi davlatning fiskal siyosati mazmunini va yo'nalishlarini o'zida ifoda etadi. Kengroq ma'noda aytganda, davlat byudjetining asosiy vazifasi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, iktisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirish, ijtimoiy siyosatni moliya bilan ta'minlash, mamlakatning markazlashtirilgan pul jamg'armalarini vujudga keltirish va ulardan foydalanish

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикасининг Бюджет Кодекси, 2013 йил 26 декабр, 50 модда.

ustidan nazorat kilish hisoblanadi.



### 1-rasm. O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning xususiyatlari<sup>27</sup>.

Zamonaviy sharoitlarda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va uning nisbatlarini takomillashtirish avvalo mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishnining yangi kursi sharoitida davlat byudjeti milliy daromadni byudjet kanali orqali qayta taqsimlashnining muhim moliyaviy manbai rolini bajarishi talab qilinadi.

Davlatning fiskal siyosati iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasiga ta'sirini muvofiqlashtirish zarur. Chunki, byudjet faqat mablag'larni markazlashtirish, ularni to'plash, jamg'arishgina emas, balki to'plangan moliyaviy resurslarni oqilona sarflashni ham o'zida ifodalaydi. Buning samaradorligi esa davlat byudjetining arajalari tizimida o'zining ifodasini topadi.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari yil sayin oshib borgan. Keyingi 3 yil mobaynida jami byudjet xarajatlarining tarkibida ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar nominal mazmunda ortib borgan. Xususan, 2017 yilda 27119,0 mlrd. so'mni, 2019 yilda esa 58012,1 mlrd. so'mni tashkil qilishi ko'zda tutilgan. Ushbu holat o'z navbatida, jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

Iqtisodiyot xarajatlari esa 2017 yilda 5082,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami byudjet xarajatlarida 10,8 foizni tashkil etgan. 2017 yilga kelib ushbu xarajatlarning jami davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i 13,2 %ni tashkil etishi

<sup>27</sup> Расм муваллиф томонидан шакллантирилган.

ko'zda tutilgan. Ushbu xarajatlar nominal mazmunda keskin o'sib borgan.

#### 4-jadval

#### **Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi<sup>28</sup>**

Ko'rsatkichlar	2017 yil		2018 yil		2019 yil	
	Mlrd. so'm	%	Mlrd. so'm	%	Mlrd. so'm	%
Davlat byudjeti xarajatlari, mlrd. so'm	46943,1	100	62170	100,0	107118,1	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	27119,0	57,7	35034,1	56,4	58012,1	54,2
Iqtisodiyot xarajatlari	5082,3	10,8	6957,8	11,2	14099,8	13,2
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	2450,0	5,2	3047,6	4,9	3960,2	3,7
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	1524,2	3,2	2417,5	3,9	4068,3	3,8
Boshqa xarajatlar	10767,6	22,9	14713	23,7	26977,7	25,2

Markazlashtirilgan investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish uchun 2017 yilda 2450,0 milliard so'm, 2018 yilda 3047,6 mlrd. so'm, 2019 yilda esa 3960,2 mlrd. so'm, tashkil etishi ko'zda tutilgan. Bu o'z navbatida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamtyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda byudjet investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi jadvaldagi byudjet xarajatlari byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifoda etib, unda tabiy ravishda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ekani kuzatilmoxda. Davlat byudjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy nafaqalardan tashkil topgan. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari misolida ko'rishimiz mumkin.

Ushbu xarajatlarning tarkibida ta'lim, sog'liqni saqlash, oilalarga ijtimoiy nafaqalar asosiy salmoqqa ega bo'lmoqda. Xususan, ta'lim sohasiga qilinayotgan byudjet xarajatlari 2017 yilda 16386,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 19504,3 mlrd. so'mga prognoz qilingan. Jami byudjet xarajatlarida ta'lim tizimiga qilinayotgan xarajatlar 2018 yilda 56,4%ni tashkil qilmoqda.

#### 5- jadval

#### **Davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlar tarkibi<sup>29</sup> (prognoz)**

Ko'rsatkichlar	2017 yil		2018 yil		2019 yil	
	Mlrd so'm	%	Mlrd so'm	%	Mlrd so'm	%
Ijtimoiy soshcha va ashcholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	26769,0	100	34664	100	50334,1	100
Ta'lim	16386,1	61,4	19504,3	56,4	28394,3	56,4

<sup>28</sup> Манба: Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотларидан фойдаланилди.

<sup>29</sup> Манба: Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотларидан фойдаланилди.

Sog'liqni saqlash	6882,9	25,7	9562,0	27,6	12078	24,0
Madaniyat va sport	481,1	1,7	1165,4	3,6	1690,1	3,4
Ilm-fan	278,1	1,0	389,3	1,2	801	1,6
Oilalarga ijtimoiy nafaqalar	2506,9	9,3	3150,8	9,7	5167,2	10,3

Soliqliqni saqlash xarajatlari ijtimoiy soha xarajatlarining qariyb chorak qismidan yuqori salmog'ini tashkil qilmoqda.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlaminij ijtimoiy himoyalash xarajatlari ham ushbu tukrkum xarajatlarida sezilarli salmoqni tashkil qilmoqda.

Demak yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, milliy daromadni byudjet kanali orqali qayta taqsimlashda aholinining kam ta'minlangan ijtimoiy qatlamlarini himoyalash, ijtimoiy sohalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Davlat byudjeti xarajatlari samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi rasm ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Demak, yaqin istiqbolda byudjet xarajatlarining manzilli va maqsadli sarflanishini taxminlash kontekstida islohotlar amalga oshirilishini talab qilsa. O'rta muddatli istiqbolda byudjet xarajatlarining ijtimoiy soha va milliy iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish nisbatlarini takomillashtirish kontekstida islohotlarni chuqurlashtirish talab qilinadi.

Davlat byudjetining milliy iqtisodiyotimiz aohida tarmoqlarini rivojlanishida ahamiyati yuqoridir. Bu o'z navbatida davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlarida ifodasini topadi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

Davlat byudjetidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar 2017 yilda jami byudjet xarajatlari tarkibida 10,8%ni tashkil etgan. Ushbu xarajatlar tarkibida boshqa xarajatlar asosiy salmoqni tashkil etgan.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlarini jami byudjet xarajatlarini tarkibida 2017 yillarda 3,5%ni, 2018 yilda 3,4%ni, 2019 yilda esa 3,7%ni tashkil etishi ko'zda tutilgan.

## Ўзбекистонда давлат бюджети харажатларини шакллантиришдаги циклик тавсифдаги муаммолар

- Давлат бюджети харажатлари таркибида ижтимоий соҳа харажатлари асосий салмоқни ташкил қилиб, бюджетта юқори даражадаги молиявий юқ бўлмоқда. Жаҳон амалиётида МДни бюджет канали орқали қайта тақсимлашда даромадни яратувчи соҳалар манфаатлари нисбатан юқори даражада инобатга олинади.
- Давлат бюджети харажатларининг юқори кўлами инфляцион босимга позитив таъсир этмоқда. Лекин бюджет ташкилотларидағи иш ҳақининг оширилиши билан давлат харажатларининг оширилиги иқтисодиётдаги ялпи талабни рағбатлантириш мултипликатив самарага эга.
- Даромадларни прогнозлаштириш ва харажатларни режалаштиришда юқори ва қўйи бюджетларга нисбатан ёндашувлар турли даражадаги бюджетлардан молиялаштириладиган муассасаларда харажатларни самарали молиялаштириштизими билан боғлиқ муаммоларни юзага келтирмоқда.
- Ижтимоий соҳа харажатларининг асосий салмоғини маҳаллий бюджетларга юқлатилиши уларнининг заиф даромад базаси шароитида "ликвидлилик"ни йўқолиши эҳтимоллигини вужудга келтирмоқда. Уларнинг юқори бюджетларга молиявий қарамлигига асос бўлмоқда.
- Газначилик тизими шароитидаги юридик мажбуриятларни қабул қилиш ва молиявий мажбуриятлар бўйича тўловларни амалга оширишнинг амалдаги механизмини "Ликвидлилик"ни таъминлаш ва дефицитни бартараф қилишга йўналтирилган бўлиб, БТ харажатларини самарали ижроси контекстида такомиллаштиришни талаб қиласди .

### 2-rasm. O'zbekistonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi tsiklik tavsifdagi muammolar.<sup>30</sup>

2018 yildan boshlab aholi punktlarini bodonlashtirish, tabiatni ko'riqlash ishlari, ichimlik suvi tizimini rivojlantirishni byudjetdan moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

### 6- jadval

#### Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibi, jamiga nisbatan<sup>31</sup> %da

Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil
<b>Davlat byudjeti xarajatlari</b>	100	100	100
Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar	10,8	10,7	13,2
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlar	3,5	3,4	3,7
Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan erlearning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar	0,8	0,9	-
Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar	0,8	0,9	2,5
Boshqa xarajatlar	5,7	5,8	7,0

Umuman, давлат бюджетидан иқтисодиёт харажатлари асосан qishloq va suv xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilmoqda. Shu orqali agrar tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalarни va xususan, fermer xo'jaliklarining barqaror faoliyatini давлат tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

<sup>30</sup> Расм муаллиф томонидан шакллантирилган.

<sup>31</sup> Манба: Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотларидан фойдаланилди.

Barchamizga ma'lumki keyingi yillarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'llini o'zida mujassam etgan O'zbek modelining eng muhim tamoyillaridan biri bo'lgan davlatning bosh islohotchi ekani haqidagi printsipdan kelib chiqib, davlat tomonidan oqilona, faol investitsiya siyosati olib borilmoqda.

Umuman xulosa qilish mumkinki, davlat byudjetining jami investitsiyalardagi ulushi kamayib borayotganligi bilan bir qatorda uning nominal mazmundagi o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rnlari yaratish va shu asosda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

## **2.8. O'zbekiston Respublikasida moliya-bank tizimidagi islohotlar va ularning ustuvor yo'naliishlari.**

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining (kelgusi o'rnlarda Markaziy bank) maqsad va vazifalari, institutsional tuzilishi tubdan qayta ko'rib chiqildi. Pul-kredit siyosati mantiqan yangi tamoyillar asosida yuritiladigan bo'ldi. Xususan, mamlakatda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi Markaziy bank faoliyatining ustuvor maqsadi sifatida belgilandi. Valyuta siyosati va pul muomalasini tartibga solish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, yangi voqelikda makroiqtisodiy sohada shakllanayotgan shart-sharoitlar pul-kredit siyosatida ham muhim o'zgarishlarning amalga oshirilishiga asos bo'ldi. O'rta muddatli istiqbolda inflyatsiyaning past va barqaror darajasi ta'minlanishi makroiqtisodiy mutanosiblikning muhim omili bo'lib, mamlakatda ijtimoiy holatni yaxshilash, investitsion faollikni rivojlantirish va tarkibiy islohotlarni amalga oshirish uchun zaruriy sharoit yaratadi. Ichki narxlar barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan uzlusiz davomiy pul-kredit siyosatining yuritilishi aholi va biznes vakillari daromadlari xarid qobiliyatini saqlab qolish, ularning ishlab chiqarish, investitsiya, jamg'arish va iste'mol borasida qarorlar qabul qilishlari uchun qulay iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotda ichki narxlar barqarorligini ta'minlash bilan birga Markaziy bank tomonidan mamlakatimizda bank va to'lov tizimini rivojlanirish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kelgusida iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlab boradi

Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida iqtisodiyotda inflyatsiyaning barqaror past darajasi ta'minlanishi va narxlardagi keskin

tebranishlarning oldi olinishi, o'z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatda ichki narxlar barqaror bo'lgan sharoitda aholi va biznes vakillari uchun ish haqi, nafaqa va boshqa daromadlar, shuningdek, milliy valyutadagi jamg'armalarning qadrini saqlab qolish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu esa ularning qisqa va uzoq muddatli davrlar uchun xarajatlarni rejalshtirishda ishonch hissini uyg'otadi. Yuqori inflyatsiya darjasasi aholi daromadlarining qadrsizlanishiga hamda jamiyatda ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, past inflyatsiya darajasini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Iqtisodiyotda ichki narxlar barqarorligining ta'minlanishi tadbirkorlik faoliyati uchun ham qulay sharoit hisoblanadi. Inflyatsiya darjasasi past bo'lgan holatda korxonalarning qarz olish imkoniyatlari kengayadi. Yuqori va o'zgaruvchan inflyatsiya banklarning samarali faoliyat olib borishlari uchun ham noqulay sharoitlarni yuzaga keltiradi. Pul-kredit siyosatining o'ta qat'iylashtirilishi iqtisodiyotdagi investitsion faollikning susayishiga olib kelishi mumkin. Uning asossiz yumshatilib, kreditlash hajmlarining keskin oshirilishi esa iste'mol va investitsion talabni rag'batlantirish bilan bir qatorda inflyatsiya darajasining keskin oshib ketishiga ham sabab bo'ladi. Ta'kidlash zarurki, birgina pul-kredit siyosatining o'zi mamlakat iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirishning asosiy 9 manbai bo'la olmaydi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda raqobat muhitini yaxshilash, mehnat unumdarligi va energiya iste'moli samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini kuchaytirish, biznesni tashkil etish va yuritishni engillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Markaziy bank pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash orqali ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirishga yoki texnologik rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qila olmaydi. Bunda pul-kredit sohasidagi choralar asosan iqtisodiyotni qisqa muddatli tartibga solish, mavsumiy va davriy tebranishlarni muvozanatlashtirish hamda o'sish sur'atlarining iqtisodiy salohiyatidan og'ib ketishi oldini olishga qaratilgan bo'lib, qisqa muddatli ta'sirga ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida yuzaga kelgan bugungi makroiqtisodiy sharoitlar qisqa davr ichida iqtisodiyotni kreditlash hajmlarining keskin o'sishi, investitsiya hajmlari va iste'mol talabining oshishini rag'batlantirib, inflyatsion jarayonlarning kuchayishiga olib kelganligini ko'rsatmoqda. Xususan, yalpi talabning oshishiga mos ravishda taklif hajmlarini oshirish maqsadida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mehnat unumdarligini oshirish ma'lum bir davrni talab etadi, aynan mana shu muddat davomida iqtisodiyotda inflyatsion bosimning kuchayishi kuzatiladi. Bunda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar taklifi etarli emasligi sharoitida (ish haqi o'sishi va kreditlashning kengayishi hisobiga) ichki talabning oshishi narxlarning o'sishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, mahalliy tovarlar

miqdorining ichki bozorda etarli emasligi import tovarlariga bo'lган va bu orqali valyuta bozoridagi talabni oshirib, milliy valyuta kursining qadrsizlanishiga va pirovardida inflyatsiya kuchayishiga olib keladi. O'z navbatida, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari tezlashishi aholi va biznes vakillari daromadlarining real qiymatini pasaytiradi, daromadlarning ko'proq iste'molga yo'naltirilishiga 10 sabab bo'ladi, shuningdek, iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun oldindan aniqlash qiyin bo'lган vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, iqtisodiyotda narxlarning muttasil oshib borishi sharoitida omonatchilar o'z mablag'larini past foiz stavkalarida bank depozitlariga joylashtirishni ma'qul ko'rmaydilar va banklar depozit foiz stavkalarini ko'tarishga majbur bo'ladi. Natijada bank majburiyatları qiymati aktivlari daromadligiga qaraganda tezroq sur'atlarda o'sadi. Jalb qilingan depozitlar bo'yicha xarajatlar oshishini qoplash maqsadida banklar ham mos ravishda biznes xatarlarni kamaytirish uchun kreditlarni yuqori foiz stavkalarda hamda qisqa muddatlarga ajratishni afzal ko'radi. Bu esa iqtisodiyotda investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizda uzoq muddatli resurslar bozorining rivojlanmaganligi sababli investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yanada cheklab qo'yishi mumkin. Past va barqaror inflyatsiya esa foiz stavkaları shakllanishida inflyatsiya uchun to'lovlarni kamaytiradi hamda kreditorlar tomonidan uzoq muddatli kreditlar taklifini oshirishga imkon yaratadi. Bunda nafaqat tijorat banklari, balki mahalliy va xorijiy investorlar ham uzoq muddatli moliyaviy resurslarni past inflyatsiya darajasiga ega bo'lган iqtisodiyotlarga yo'naltirishni afzal ko'radi. Umuman olganda, yuqoridagi omillarning barchasi milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o'rta va uzoq muddatli rivojlanish modelini yaratishni, makroiqtisodiy siyosatning samarali muvofiqlashtirilishini, pul-kredit siyosatini yuritishda ehtiyyotkorona yondashuvni taqozo etadi.

Inflyatsion targetlashga o'tish bosqichida samarali va istiqbolga yo'naltirilgan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi bir qator tamoyillarning amaliyotga joriy etilishi bilan bevosita bog'liq. Pul-kredit siyosatining aniq maqsadli yo'nalishlarini belgilab olish 11 Pul-kredit siyosatiga bo'lган ishonchni oshirish va uni samarali yuritish uchun Markaziy bank aniq tasavvur va maqsadga ega bo'lishi kerak. Yaqin vaqtgacha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash bo'lган. Biroq bu maqsad milliy valyuta almashuv kursini ushlab turishga yoki past va barqaror inflyatsiya darajasini ta'minlashga yo'naltirilganligi aniq qayd etilmagan edi. Ayni vaqtda narxlar barqarorligini ta'minlash Markaziy bankning asosiy maqsadi etib belgilanishi bu noaniqlikka barham beradi. Bu, o'z navbatida, Markaziy bankka tegishli vakolatlarni berish bilan bir qatorda uning zimmasiga qo'shimcha mas'uliyatni ham yuklaydi. Inflyatsion targetlash rejimiga o'tishga tayyorgarlik bosqichi doirasida kelgusi yillarda

pul-kredit instrumentlarini takomillashtirishda mamlakatimizda inflyatsion xatarlarning xususiyatlari inobatga olinadi va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish borasida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Inflyatsiya bo'yicha maqsadli ko'rsatkich uy xo'jaliklari tomonidan eng ko'p iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining yillik o'zgarishini ifodalaydi. Iste'mol narxlarining o'sish sur'ati Davlat statistika qo'mitasi tomonidan respublikamiz uchun hisoblangan iste'mol narxlari indeksi (INI) asosida aniqlanadi. Respublikamiz turli hududlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ichki omillar sababli turli tovar va xizmatlar bozorida narxlar o'sish sur'atlari dinamikasida bir oz tafovutlar kuzatilishi mumkin. Inflyatsion targetlashga o'tish bosqichida pul-kredit siyosatining oraliq maqsadi – inflyatsiya darajasining prognoz ko'rsatkichi, operatsion maqsadi esa pul bozoridagi qisqa muddatli foiz stavkalari hisoblanadi. Oraliq maqsad pul-kredit siyosatining pirovard va operatsion maqsadlari o'rtaсидаги bog'liqlikni ta'minlaydi, shuningdek, u iqtisodiyotdagi inflyatsion kutilmalarga ta'sir qiladi.




Манба: Мазкур давлатлар марказий банки маълумотлари асосида.

A  
Ч

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning yanvar-sentyabr oyalarida iqtisodiy o'sish sur'atlari Rossiyada 1,8 foizdan 1,6 foizgacha, Xitoyda 6,8 foizdan 6,5 foizgacha, Qozog'istonda 4,3 foizdan 4,2 foizgacha, Turkiyada 10,6 foizdan 5,2 foizgacha hamda Qirg'izistonda 4,3 foizdan 1,2 foizgacha pasaygan. Shuningdek, mazkur davrda respublikamizning asosiy savdo hamkorlari hisoblangan davlatlar milliy valyutalarining sezilarli darajada qadrsizlanishi ham tashqi iqtisodiy shartsharoitlarning noqulay shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Jumladan, dollar indeksining oshishi hamda Rossiyaga nisbatan yangi sanktsiyalarning kiritilishi natijasida Rossiya rubli AQSh dollariga nisbatan 15 foizga hamda ushbu davlat iqtisodiyotiga bog'liqlik darjasini yuqori bo'lgan Qozog'iston tengesi 9,2 foizga

qadrsizlandi. Shuningdek, ushbu davrda AQSh dollariga nisbatan Xitoy yuani 6,5 foizga va Turkiya lirasi qariyb 60 foizga qadrsizlandi




Манба: Жаҳон банки маълумотлари асосида.

Bundan tashqari, joriy yilda jahon bozorlarida O’zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari qatoriga kiruvchi qimmatbaho va rangli metallar hamda xomashyo tovarlari bo'yicha narxlar kon'yunkturasining noqulay shakllanishi ham respublikamizning eksport daromadlarini pasaytiruvchi omillardan biri bo'ldi. Bunda joriy yilning I choragi davomida jahon bozorlarida respublikamizning asosiy eksport mahsulotlari narxlarining oshishi kuzatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda narxlar asosan pasayish tendentsiyasiga ega bo'ldi (2.1.2-rasm). Ushbu trendning barqaror davom etishi mamlakatimizda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, joriy yilning o'tgan davri mobaynida jahon bozorlarida oltin narxining 10 foizga arzonlashishi kuzatilgan bo'lib, ushbu holat asosan AQSh Federal rezerv tizimi tomonidan foiz stavkasining 2017 yilning dekabr hamda 2018 yilning mart, iyul va sentyabr oylarida ketma-ket to'rt marta oshirilishi natijasida AQSh dollaridagi aktivlar jozibadorligining oshishi 19 hamda oltinga investitsion aktiv sifatidagi talabning pasayishi bilan izohlanadi.

Mamlakatimizda 2018 yilning birinchi yarim yilligida nisbatan yuqori inflyatsion bosim kuzatildi, bu asosan aprel-may oylarida yoqilg'i-energetika mahsulotlari narxlarining oshirilishi, o'tgan yilga nisbatan ob-havoning nisbatan qurg'oqchil kelishi va o'tgan yillarda inflyatsiya bazasining pastligi bilan izohlanadi (2.2.3-rasm). Bunda so'm al mashuv kursining mustahkamlanishi, mintaqadagi davlatlar bilan savdo iqtisodiy aloqalar jadallahishi, shuningdek, import hisobiga bozorlarning ijtimoiy ahamiyatga ega ayrim mahsulotlar bilan to'yinganligi inflyatsiya sur'ati yanada tezlashishining oldini olishga ma'lum darajada xizmat qildi.

Yoz oylarida meva-sabzavot mahsulotlarining sezilarli arzonlashishi hisobiga keyingi oylarda yillik inflyatsiya darajasi pasayib bordi. Agar 2017 yilning iyun-avgust

oylarida mevasabzavotlar narxlari oshishi infliyatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omil (drayveri) bo'lib, ularning umumiy infliyatsiyadagi hissasi o'rtacha 5 foiz bandni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 0,6 foiz bandni tashkil etdi.



Манба: Даевлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида Марказий банк ҳисоб-китоблари.

2018 yil boshidan nooziq-ovqat tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari o'sishidagi hissasi tobora ko'payib borayotgan bir vaqtida, oziq-ovqat mahsulotlarining hissasi, aksincha, kamaydi.




Манба: Марказий банк ҳисоб-китоблари.

2018 yil 10 oyida bank tizimidagi likvidlilikning holati mazkur omillar natijasida shakllandi (2.4.1-rasm). Xususan, Hukumat tomonidan amalga oshirilgan 11,8 trln. so'mlik operatsiyalar, qimmatbaho metallar ishlab chiqaruvchilari bilan 12,4 trln. so'mlik hisob-kitoblar va Markaziy bankning 358 mlrd. so'mlik qayta moliyalash kreditlari likvidlilikni oshiruvchi asosiy omillar bo'ldi. Shuningdek, Markaziy bankning ichki valyuta bozoridagi interentsiyalari 19,5 trln. so'mga, majburiy zaxiralash tartibi o'zgartirilishi 2,9 trln. so'mga va naqd pul emissiyasi bank tizimida

likvidlilikni 4,2 trln. so'mga kamaytiruvchi omillar bo'ldi.

2018 yilda iqtisodiyotda biznes va investitsion faollikning ortishi natijasida iqtisodiyotga ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda o'sishi kuzatildi. 57 Mazkur davrda milliy valyutada ajratilayotgan kreditlar hajmining oshish tendentsiyasini bir tomonidan davlat maqsadli dasturlari doirasida davlat mablag'lari hisobidan imtiyozli kreditlar miqdorining oshishi, ikkinchi tomonidan tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilayotgan yuqori daromadlilik darajasiga ega bo'lган иштимоқларининг о'sishi bilan izohlash mumkin.



Манба: Марказий банк ҳисоб-китоблари.

Joriy yil fevral oyining ikkinchi yarmidan avgust oyiga qadar milliy valyuta – so'mning AQSh dollariga nisbatan qadri uzlusiz oshib borishi hamda Markaziy bankning milliy valyutadagi aktivlar daromadlilagini oshirishga qaratilgan foiz siyosati yuritilishi natijasida xorijiy valyutada beriladigan kreditlarga bo'lган talab oshdi. Bu esa ushbu davrda xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar hajmining o'zgarishida o'z aksini topdi. E'tiborli jihat shundaki, mazkur oylar davomida nominal almashuv kursi kreditlar umumiy hajmini pasaytiruvchi omillardan biri bo'ldi.

Iqtisodiyotga ajratilgan jami kreditlarning 55–60 foizi markazlashgan manbalar hisobidan ajratilgan kreditlar hissasiga to'g'ri kelib, mazkur kreditlar bo'yicha foiz stavkalari bozor stavkalariga nisbatan ancha past, imtiyozli shartlarda ajratilgan. Bu holat kredit kanalining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirdi.

2018 yilda ajratilgan kreditlarning tarkibi bo'yicha o'sish sur'atlari tahlili, kreditlarning o'zgarishi asosan yuridik shaxslarga to'g'ri kelib, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning o'sish sur'atlariga nisbatan 2–2,5 baravarga ko'proq oshgan.



Манба: Марказий банк ҳисоб-китоблари.

Shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan olingen kreditlarda ipoteka kreditlarining salmog'i yuqori bo'lib, ularning aksariyat qismi Hukumat tomonidan moliyalashtirilgan. 2018 yilda yuridik shaxslar uchun ajratilgan kreditlarning yuqori darajada o'sishini davlat korxonalariga berilgan markazlashgan kreditlar bilan izohlash mumkin.

2019–2021 yillarda pul-kredit siyosatining ichki sharoitlari va samaradorligi ko'p jihatdan soliq-byudjet siyosatiga bog'liq bo'ladi. Kelgusida soliq-byudjet sohasida amalga oshiriladigan keng qamrovli islohotlarning asosiy yo'naliishlari byudjet tizimini takomillashtirish, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni inflyatsiya darajasiga qarab indeksatsiya qilish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish, kichik va yirik korxonalarning soliq yuklaridagi farqni qisqartirish, qo'shilgan qiymat solig'idan kengroq foydalanish, soliq turlarini kamaytirish, majburiy to'lovlarni bixillashtirish va ayrimlarini bekor qilish orqali iqtisodiyotda soliq yukini maqbullashtirish kabi vazifalarni qamrab olgan. Moliya vazirligining hisob-kitoblariga ko'ra, taklif etilayotgan islohotlarning dastlabki bosqichida quyidagi natijalar kutilmoqda: - sotishdan tushgan tushumdan majburiy ajratmalarning to'liq bekor qilinishi natijasida korxonalar ixtiyorida qo'shimcha 5,2 trln. so'm miqdoridagi daromadlar qoladi; - jismoniy shaxslarning daromad solig'i va yagona ijtimoiy to'lovlarning pasaytirilishi hamda sug'urta badalining bekor qilinishi hisobiga aholi daromadlari 2019 yilda qo'shimcha ravishda 6,5 foizga oshadi; - yuridik shaxslar mol-mulk solig'i, foyda solig'i va kichik biznes sub'ektlari yagona solig'ining kamaytirilishi natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ixtiyorida 2 trln. so'mlik qo'shimcha mablag'lar qoladi. 77 Shuningdek, soliq kontseptsiyasida mazkur mablag'larning bir qismini soliq ma'murchiligi takomillashtirilishi hamda aholi va tadbirkorlar soliq yuki engillashtirilishi sababli soliq to'lovchilar soni va bazasining kengayishi natijasida byudjetga tushumlar ortishi hisobiga qoplash nazarda tutilgan. Ushbu o'zgarishlarning amalga oshirilishi o'rta muddatli istiqbolda (soliq islohotlarining dastlabki yillarida) byudjet daromadlari va xarajatlari orasida nomutanosibliklar vujudga kelishi orqali iqtisodiyotdagi pul oqimlarining o'zgarishi hisobiga yalpi ichki talab va pul-kredit ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholi daromadlarining

ko'shimcha ravishda oshishi, o'z navbatida, ularning iste'molini rag'batlantirib, iqtisodiyotda qo'shimcha talabni vujudga keltiradi. Bu o'zgarishlar inflyatsiya darajasiga qisqa muddatli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha o'zgarishlar, ya'ni kichik korxonalarga nisbatan QQS soddalashtirilgan mexanizmining joriy etilishi dastlabki bosqichda ushbu korxonalar uchun soliq yukining oshishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxiga ta'sir etadi. Tovar va xizmatlar tannarxining oshirilishi taklif omillari sifatida keyinchalik inflyatsiya darajasiga bir martalik ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtida o'rta muddatda soliq islohotlari doirasida QQS to'lovchilar bazasining kengaytirilishi ishlab chiqarishda qo'shimcha qiymatni yaratish jarayonlarida uzunroq zanjirlarni hosil qilish imkonini berib, iqtisodiyotda ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Yuqorida keltirilgan o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish hajmlarining kengayishi sharoitida kelgusi ikki yilda konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlarining daromadlariga nisbatan yuqoriroq bo'lishi kutilmoqda. Xususan, Moliya vazirligi tomonidan 2019 yilda davlat byudjeti defitsiti yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan 1,8 foiz, 2020 yilda esa 0,7 foiz bo'lishi hamda 2021 yilga borib davlat byudjetining muvozanatlari ijro etilishi hisobiga YaIMga nisbatan 0,1 foizlik profitsit bo'lishi prognoz qilinmoqda. 78 Byudjet taqchilligining hajmi va uni moliyalashtirish manbalari pul-kredit ko'rsatkichlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lганligi sababli soliq-byudjet siyosatining pul-kredit siyosati bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash o'rta muddatli istiqbolda ichki narxlar barqarorligini ta'minlashning muhim elementi hisoblanadi. Byudjet taqchilligining yuzaga kelishi iqtisodiyotda qo'shimcha likvidlilikni yuzaga keltirib, bank tizimida likvidlilikning tarkibiy profitsitini shakllantirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Markaziy bank tomonidan ko'rildigan chorallarda yuzaga kelgan qo'shimcha likvidlilikni tartibga solish va uning ta'sirini muvozanatlashtirish masalalari ham o'z aksini topadi. Byudjet taqchilligini qoplashda noinflyatsion manbalardan, jumladan, davlat qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish yoki xalqaro kapital bozorlaridan mablag'lar jalb qilish nisbatan kam inflyatsion oqibatlarga ega bo'lsa-da, markazlashgan xarajatlarning oshirilishi, yalpi talabning o'sishi orqali inflyatsiyaga ma'lum bir bosimni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, davlat byudjeti xarajatlarining o'sishi kelgusida mamlakatda iqtisodiy o'sish salohiyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni, jumladan, ichki narxlar barqarorligini ta'minlash vazifasi davlat qarzini samarali boshqarish va byudjetning xomashyo eksporti tushumlariga bog'liqligini pasaytirishni talab etadi. Kelgusi yildan boshlab davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash maqsadida "byudjet qoidalari" va "yig'ma byudjet" hamda fiskal cheklovlarini belgilash nazarda tutilmoqda. Xususan, 2019 yildan boshlab davlat qarzi hajmining YaIMga nisbatan chegaraviy darajasini va davlat byudjeti defitsitining cheklangan miqdorini YaIMning 2 foizigacha belgilash bo'yicha byudjet qoidalari amaliyatga joriy etish ko'zda utilayotganligi 5 Byudjet qoidalari – alohida byudjet parametrlari uchun miqdoriy chegaralarini o'rnatishni nazarda tutadi. Bunda davlat qarzi, davlat byudjeti defitsiti, xarajatlar (YaIMga nisbatan foizda, o'sish sur'ati) va daromadlarlar bo'yicha aniq miqdoriy chegaralar o'rnatiladi. Miqdoriy ko'rsatkichlarga qo'shimcha ravishda byudjetni rejalashtirishning tegishli amaliyotini joriy qilish, byudjet jarayonini

oldindan aytish va uning shaffofligini kuchaytirishga yo'naltirilgan byudjet qoidalari orqali alohida protsessual me'yorlar o'rnatilishi mumkin. Bunda byudjet daromadlari va xarajatlarining tashqi omillarga bog'liqlik darajasini pasaytirish va h.k. 79 makroiqtisodiy prognozlash va o'zaro muvofiqlikni ta'minlashda noaqniqliklarni kamaytiradi. Bunda davlat byudjetini shakllantirishda mavsumiy va davriy omillarni inobatga olish muhim hisoblanadi. Asosiy eksport tovarlari bo'yicha ijobiy kon'yunktura shakllangan davrda eksportdan kelib tushadigan qo'shimcha daromadlar byudjet xarajatlari o'sishining oldini olish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, byudjet siyosatining iqtisodiy tsikllarga qarshi yo'nalishini amalga oshirish, byudjetning ichki va tashqi shoklarga nisbatan ta'sirchanligini pasaytirish va uzoq muddatli istiqbolda ham byudjet barqarorligini saqlab qolish imkonini beradi. Umuman olganda, soliq-byudjet siyosatining isloh etilishi, pul-kredit siyosati bilan samarali muvofiqlashtirilishi va "byudjet qoidasi"ning amaliyotga kiritilishi Markaziy bankka pulkredit siyosatini amalga oshirish uchun qulay bo'lgan shartsharoitlarni hosil qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda "byudjet qoidalari"ni amaliyotga kiritish ma'lum bir muddat talab etadi. Bu, o'z navbatida, yig'ma byudjet va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlarning sifatiga ham bog'liq. O'tgan yillarda davlat byudjet xarajatlarining oshirilishi, aholi daromadlarining o'sib borishi va iqtisodiyotda kreditlash hajmlarining sezilarli darajada yuqori bo'lganligi kelgusi yillarda (asosan 2019 yilda) ishlab chiqarish amaldagi hajmi bilan salohiyatli hajmi o'rtasidagi tafovutni oshirib, iqtisodiyotda yalpi talab hajmining taklif hajmiga nisbatan yuqori bo'lgan sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.

## **V. BITIRUV ISHI UCHUN MAVZULAR**

1. Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi samaradorligini oshirish yo'llari
2. Zamonaviy moliya tizimi va uning transformallashv jarayoni
3. Inqirozing navbatdagi to'lqini sharoitida rivojlanga mamlakalar moliya tizimidagi islohotlar
4. Evropa moliyaviy iqtisodiy inqirozi va uning
5. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni davlat byudjeti bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirish yo'llari
6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tiziidagi islohotlar va uning ustvor yo'naliishlari
7. Zamonaviy sharoitlarda O'zbekiston Respublikasi moliya siyosatining strategik yo'naliishlari
8. Iqtisodiy islohotlar sharoitida davlatning pul-kredit siyosati va uning ustuvor yo'naliishlari
9. Iqtisodiy islohotlar sharoitida davlatning byudjet-soliq siyosati va uning ustuvor yo'naliishlari
10. Zamonaviy moliya tizimida uy xo'jaliklari moliyasi
11. O'zbekiston respublikasida moliya-kredit tizimini isloq qilishning ustuvor yo'naliishlari
12. Hududiy ijtmoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mahalliy byudjetlar ahamiyatin oshirish yo'llari
13. Mamlakat moliya tizimida uy xo'jaliklari moliyasining ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llari
14. Davlat aktsiyadorlik kompaniyalari moliyaviy aktivlari va uni samarali boshqarish yo'llari
15. Iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash orqali davlat byudjeti daromadlar bazasini kengaytirish yo'llari
16. Fond bozorlarini rivojlantirish orqali davlat va korporativ xaridlar tizimini takomillashtirish istiqbollari
17. Obod turmush tarzini shakllantirishda oila byudjetining roli va uni rivojlantirish istiqbollari
18. Davlat moliyasini boshqarishda hisob-kitob statistikasini rivojlantirish istiqbollari
19. Davlat moliyasi buxgalteriya hisobini jahon andozalariga moslashtirish istiqbollari
20. Davlat aktivlarini boshqarishni takomillashtirish yo'llari

## VI. KEYSALAR BANKI

### 1-keys.

#### Давлат бюджети даромадларини шакллантириш сиёсати ва уни макроиктисодий барқарорликка таъсири бўйича

#### КЕЙС СТАДИ

##### Kirish

Zamonaviy sharoitlarda davlat byudjetining daromadlari byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'zida ifodalaydi. Chunki, davlat byudjeti daromadlari soliqlar hisobiga shakllantirilib, mavjud soliqlar milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan moliyaviy tartibga solishning asosiy instrumentlaridan biridir. Quyidagi keysda daromadlarining shakllanishi va uning tarkibiy tahlili asosida davlat byudjetining milliy iqtisodiyotga ta'siri baholanib, taklif va xulosalartizimi shakllantiriladi.

##### 1. Tashkiliy ta'minot

Ma'lumki, quyidagi jadvalda davlat byudjetining 2012-2015 yilgi parametrlari keltirilgan bo'lib, Ushbu ko'rsatkichlarda davlat byudjetining soliqlar hisobiga shakllantiriladigan daromadlarining dinamikasi keltirilgan.

Asosiy byudjet ko'rsatkichlari	2012 yil (mlrd. so'm)	2013 yil (mlrd. so'm)	2014 yil (mlrd. so'm)	2015 yil (mlrd. so'm)	Byudjet daromadlarida salmog'i, %da
Davlat byudjeti daromadlari	20 614,1	25 104,9	30 160,8	36 184,9	100
Shu jumladan: Bevosita soliqlar	5 196,4	6 583,1	7 790,4	8 554,3	25,2
Bilvosita soliqlar	11 187,8	13 039,4	15 618,2	19 115,8	54,3
Resurs to'lovleri va mol-mulk solig'i	2 746,4	3 755,5	4 521,4	5 741,8	13,8
Qo'shimcha foyda solig'i	250,0	294,5	388,4	548,2	1,5
Boshqa daromadlar	1 233,5	1 432,4	1 842,4	2 224,8	5,2
Byudjet xarajatlari	21 571,7	26 312,4	31 582,3	37 967,7	Byudjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz

Manba: O'zR DSQ ma'lumotlari

Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti daromadlarining tarkibiy tahlilidan ko'rindaniki, bilvosita soliqlardan byudjetga rejalashtirilgan tushum 2012- yilda 11187,8 milliard so'm bo'lsa, 2015- yilda 19115,8 milliard so'mni tashkil etmoqda.

Bevosita soliqlar 2012 yilda 5196,4 mld. so'mni, 2015 yilga kelib esa 8554,3 mld. so'mni tashkil etadi.

**Keysning ta'limiylar maqsadi:** Davlat byudjeti parametrlari asosida byudjet soliq siyosatining strategik yo'nalishini va uni makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini iqtisodiy jihatdan baholash.

## 2. Muammo.

2.1 Soliq tizimini isloh qilishda uning fiskal ahamiyatini inobatga olgan holda qanday tarkibiy jihatdan isloh qilish zarur?

2.2. Davlat byudjeti daromadlarining tarkibi va dinamikasini tahlil qilish natijasida soliq tizimining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri qanday bo'lishi mumkin.

2.3. Soliqlarning yalpi iste'mol talabiga ta'siri qaysi ko'rsatkichlarga bog'liqdir.

## 3. Vazifalar.

1. Bilvosita, bevosita va resurs soliqlari va to'lovchlari tizimini byudjet daromadlarini shakllantirishdagi hissasini tarkibiy tahlil qiling.

2. Bilvosita, bevosita va resurs soliqlari va to'lovchlari tizimini byudjet daromadlarini shakllantirishdagi hissasining dinamikasini tahlil qiling.

3. Har bir turkum soliqlarni milliy iqtisodiyotga ta'siri to'g'risidagi fikr mulohazalarni tizimlashtiring.

## 4. Maslahatlar, tavsiyalar

1. Bevosita soliqlar soliq to'lovchilarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatsa, bilvosita soliqlar iste'molga ta'sir ko'rsatadi.

2. Bilvosita soliqlarning salmog'ini ortib borishi soliq to'lovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini, iste'molga ta'sirini baholang.

3. Mavjud byudjet parametrlari vositasida soliq yukini Laffer egri chizig'i vositasida asoslash lozim.

## 5. Vaziyatni tahlil qilish varag'i

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil natijalari
<b>Keysdagi berilgan vaziyat bilan tanishish</b>	Berilgan aniq vaziyat tahlili va vazifani echish uchun ma'lumotlarni aniqlash.	
<b>Shu kundagi vaziyat tahlili</b>	Davlat byudjeti daromadlarini shakllanish dinamikasi va tarkibini o'rganish va tahlil qilish. -maqsadlari; -kuchli va kuchsiz tomonlari; - maqsadli iste'molchilar; - rivojlanishi; - izlanish natijalari. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha haqiqiy holat ko'rib chiqiladi va vaziyatli tahlil o'tkaziladi. Shu kundagi vaziyat tahliliga nisbatan taxminlar ilgari suriladi.	
<b>Muammoni ifodalash</b>	Asosiy muammoni ajratish va uning tarkiblarini (belgilari; isbotlari) aniqlash.	
<b>Muammo echimining alternativlarini tanlash</b>	Vaziyatli topshiriqda imkoniyatli alternativ echimlarni ifodalash.	

	Byudjet daromadlarini shakllanishi asosida soliq tizimini makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholash va asoslash (individual): - ustunligi va kutilayotgan natijalar; - kamchiliklar va harajatlar.	
<b>Uning echimi va amalgamoshirilishi</b>	Aniq xulosani batafsil ishlab chiqish va tanloving maqsadga muvofiqligini tushuntirish: - Nima? - Qachon? - Qerda? - Nima uchun? - Qanday?	

## 2-keys.

### **Махаллий бюджетлар даромадларини прогнозлаштириш усулинининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш бўйича КЕЙС СТАДИ**

Zamonaviy snaroitiarda davlat byudjetining daromadlarini prognoziashtirish davlat moliyasini boshqarishnining bosh funktional elementi sifatida sohadagi islohotlar samaradorligini bosh omili hisoblanadi. Chunki, davlat byudjeti daromadlarini to'g'ri va iqtisodiy asoslangan holda prognozlashtirish, daromadlarni byudjet ijrosi jarayonidagi tushumlari samaradorligiga ta'sir etib, xarajatlarni moliyaviy ta'minlashning barqarorligini asosi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu Keysda quyi byudjetlar daromadlarini prognozlashtirishning amaldagi holatini samaradorligi ta'lil qilinadi, taklif va xulosalar tizimi shakllantiriladi.

#### **1. Tashkiliy ta'minot**

Mahalliy byudjetning daromadlarini 4 chorakda ekstrapolyatsiya usulida prognozlashtirish uchun quyidagi ma'lumotlar berilgan:

mln. so'mda

4- chorakdagi tushumlar					4- chorakdagi tushumlarning o'tgan yil 4-chorakdagi tushumlarga nisbatan o'sishi					2017 yil 4-chorak uchun proqnoz
2011 yilda	2012 yilda	2013 yilda	2014 yilda	2015 yilda	2012 yilda	2013 yilda	2014 yilda	2015 yilda	O'rtacha o'sish	
2659,3	3657,0	4064,9	4926,7	5772,0						

*Keysning ta'limiylarini maqsadi:* Quyi byudjetlar daromadlarini prognozlashtirishning samaradorligini baholash va takliflar tizimini ishlab chiqish.

#### **2. Muammo.**

2.1 Quyi byudjetlar daromadlarinpi prognozlashning qanday usullari mavjud va ularning afzallik hamda kamchiliklari nimalardan iborat?

2.2. Quyi byudjetlar daromadlarini prognozlashtirishning ekstrapolyatsiya usulining asosida kelgusi yil uchun prognoz kontingentini aniqlash.

2.3. Hozirgi kundagi soliqlarni prognozlashtirish tizimidagi asosiy muammolar.

#### **3. Vazifalar.**

3.1. 4- chorakdagi tushumlarning o'tgan yil 4- chorakdagi tushumlarga nisbatan o'sishini hisoblang.

3.2. 2009,2010,2011,2012 yillardagi mahalliy byudjet daromadlarini o'rtacha o'sish sur'atlarini hisoblang

3.3. Mahalliy byudjetning 2013 yil 4 chorak uchun daromadlarini prognoz ko'rsatkichni aniqlang

#### **4. Maslahatlar, tavsiyalar**

4.1. Davlat byudjeti daromadlarini prognozlashtirishning bir qator usullari mavjud bo'lib, ularga sharhlar beriladi.

4.2. Daromadlarni prognozlashtirishning ekstrapolyatsiya usulida 2017 yil uchun 4-chorak prognozi aniqlanadi va unda hisobga olinadigan omillar bo'yicha fikr mulohazalar shakllantiriladi.

#### **5. Vaziyatni tahlil qilish varag'i**

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil natijalari
<b>Keysdagি berilgan vaziyat bilan tanishish</b>	Berilgan aniq vaziyat tahlili va vazifani echish uchun ma'lumotlarni aniqlash.	
<b>Shu kundagi vaziyat tahlili</b>	Quyi byudjetlar daromadlari prognozini hisob-kitob qilish va tahlil qilish. - maqsadlari; - kuchli va kuchsiz tomonlari; - maqsadli iste'molchilar; - rivojlanishi; - izlanish natijalari. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha haqiqiy holat ko'rib chiqiladi va vaziyatli tahlil o'tkaziladi. Shu kundagi vaziyat tahliliga nisbatan taxminlar ilgari suriladi.	
<b>Muammoni ifodalash</b>	Asosiy muammoni ajratish va uning tarkibini (belgilari; isbotlari) aniqlash.	
<b>Muammo echimining alternativlarini tanlash</b>	Vaziyatli topshiriqda imkoniyatli alternativ echimlarni ifodalash. Quyi byudjetlar daromadlarini prognozlashtirish uslubiyotini sifat tavsifini baholash va asoslash (individual): - ustunligi va kutilayotgan natijalar; - kamchiliklar va harajatlar.	
<b>Uning echimi va amalga oshirilishi</b>	Aniq xulosani batafsil ishlab chiqish va tanloving maqsadga muvofiqligini tushuntirish: - Nima? - Qachon? - Qerda? - Nima uchun? - Qanday?	

### 3-keys.

## Давлат бюджети харажатлари орқали миллий иқтисодиётни мувозанатли ривожланишини таъминлаш

### КЕЙС СТАДИ

#### Kirish

Davlat byudjeti xarajatlari tom ma'noda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. Tadkidalanadiki, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha xarajatlarini o'sib borishi ijtimoiy islohotlarni amalgalashdagi davlatning rolini moliyaviy ifodalaydi. Lekin ushbu xarajatlar orqali nafaqat ijtimoiy siyosat realizatsiya qilinadi, balki iqtisodiyot ham qo'llab-quvvatlanadi. Shunday ekan davlat byudjeti xarajatlarini 5 yillik dinamikasi asosida uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini tadqiq qilish, uning iqtisodiyot uchun samarasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai nazardan ushbu Keysda davlat byudjeti xarajatlari quyisi byudjetlar daromadlarini prognozlashtirishning amaldagi holatini samaradorligi ta'lil qilinadi, taklif va xulosalar tizimi shakllantiriladi.

#### 1. Tashkiliy ta'minot

Davlat byudjetining 5 yillik xarajatlari dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### Maqsadli fondlarsiz davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	Mlrd.so'm	%								
Davlat byudjeti xarajatlari, milliard so'm	16802	100	21190	100	26312	100	31582	100	37967,7	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	9723	58,2	12338	58,3	15573	59,2	18873	59,7	22457,0	59,1
Iqtisodiyot xarajatlari	1938	11,5	2338	11	2791	10,6	3385	10,7	4119,7	10,1
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1037	6,1	1174	5,5	1300	4,9	1500	4,7	1800	4,7
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	627	3,7	844	3,9	825	3,1	1000	3,1	1199,9	3,1
Boshqa xarajatlar	3477	20,6	4495	21,2	5813	22,0	6903	21,8	8391,1	22,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

**Keysning ta'limiy maqsadi:** Davlat byudjeti daromad va xarajatlarini tahlil qilish, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarini miliy iqtisodiyotga ta'sirini baholash.

#### 2. Muammo.

2.1 Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini baholang?

2.2. Ijtimoiy sohaga qilingan xarajatlarning salmog'ini oshirish orqali davlat qanday tsrtageik masalalarini hal qiladi?

### **3. Vazifalar.**

3.1. Davlat byudjeti xarajatlarini tarkibi va dinamikasini tahlil qiling.

3.2. Ijtimoiy soha xarajatlarini mamlakat milliy iqtisodiyotiga qanday ta'siri mavjud.

### **4. Maslahatlar, tavsiyalar**

4.1. Xarajatlarni tarkibi va dinamikasini tahlil qilish orqali undjagi 5 yillik tendentsiyalar baholanadi.

4.2. Xarajatlar yalpi iste'mol talabga ta'sir etadi. Shuning uchun xarajatlarning multiplikativ samarasini hisoblanadi.

### **5. Vaziyatni tahlil qilish varag'i**

Tahlil bosqichining nomi	Tahlil bosqichining mazmuni	Tahlil natijalari
<b>Keysdagi berilgan vaziyat bilan tanishish</b>	Berilgan aniq vaziyat tahlili va vazifani echish uchun ma'lumotlarni aniqlash.	
<b>Shu kundagi vaziyat tahlili</b>	Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va dinamikasi. <ul style="list-style-type: none"> <li>- maqsadlari;</li> <li>- kuchli va kuchsiz tomonlari;</li> <li>- maqsadli iste'molchilar;</li> <li>- rivojlanishi;</li> <li>- izlanish natijalari.</li> </ul> Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha haqiqiy holat ko'rib chiqiladi va vaziyatli tahlil o'tkaziladi. Shu kundagi vaziyat tahliliga nisbatan taxminlar ilgari suriladi.	
<b>Muammoni ifodalash</b>	Asosiy muammoni ajratish va uning tarkibini (belgilari; isbotlari) aniqlash.	
<b>Muammo echimining alternativlarini tanlash</b>	Vaziyatli topshiriqda imkoniyatli alternativ echimlarni ifodalash.  Davlat byudjeti xarajatlari tarkibi va dinamikasini baholash va asoslash (individual): <ul style="list-style-type: none"> <li>- ustunligi va kutilayotgan natijalar;</li> <li>- kamchiliklar va harajatlar.</li> </ul>	
<b>Uning echimi va amalgga oshirilishi</b>	Aniq xulosani batafsil ishlab chiqish va tanloving maqsadga muvofiqligini tushuntirish: <ul style="list-style-type: none"> <li>- Nima?</li> <li>- Qachon?</li> <li>- Qaerda?</li> <li>- Nima uchun?</li> <li>- Qanday?</li> </ul>	

## VII. GLOSSARY

**Aylanma kassa mablag'i me'yori** - moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobvaraqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori

**Amortizatsiya** eskirishning baholangan xizmat muddati davomida aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymatini muntazam taqsimlash va qayta o'tkazish tarzida qiymat bilan ifodalanishidir.

**Asosiy vositalar** - uzoq davom etadigan vaqt mobaynida (bir yildan ko'proq vaqt davomida) moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlardir.

**Byudjet dotatsiyasi** - o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet profitsiti** - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi

**Byudjet profitsiti** - muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi

**Byudjet ssudasi** - yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

**Byudjet subventsiyasi** - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

**Byudjet taqchilligi** - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

**Byudjet taqchilligi** - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi

**Byudjetdan tashqari fondlar** – umumdavlat moliyasining muhim bug'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fodlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan, davlat hukumatining yuqori organlarini tegishli aktlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

**Byudjetlararo munosabatlar** – O'zbekiston respublikasi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjeti, shuningdek tumanlarning mahalliy byudjetlarini o'rtasida byudjet jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar majmuidir.

**Davlat maqsadli jamg'armalari** - Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi

**Daromadlar**- bu hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlar oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarni qatnashchilarning kapitaldag'i omonatlaridan farq qiluvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir.

**Investitsion soliq krediti** – investorga soliq majburiyati bo'yicha soliq

qonunchiligiga muvofiq soliq to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati.

**Korxona va tashkilotlar moliyasi-** xo'jalik yurituvchi sub'ekt va davlat pul resurslari fondini tashkil qilish va ulardan takror ishlab chiqarish, rag'batlantirish va jamiyatning itimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalanishdagi pul munosabatlarin yigindisidir.

**Korxonalarga preferentsiya berish** – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiradigan xom-ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek asbob-uskunalarni olib kirishda boj to'lovleri va boshqa jarayonlar bo'yicha engilliklar(imtiyozlar) berilishi.

**Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish** – soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i summasi doirasidagi pul mablag'larini xo'jalik yurituvchi sub'ektning bankdagi hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq summasini qaytarish muddatini uzaytirish.

**Mahalliy byudjet** - Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'naliishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Moliya** – davlatning o'z funktsiya va vazifalarini bajarishi hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shartlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

**Moliyaviy resurslar** - bu YaIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va davlatning qo'lidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'lari yig'indisidir

**Moliyaviy nazorat**- moliyani boshqarish tizimining elementi sifatida ma'lum sohalar bo'yicha nazorat qilish vazifasi yuklatilgan, davlat va boshqa mustaqil jamoat tashkilotlari tomonidan barcha iqtisodiy sub'ektlarning moliyaviy faoliyati ustidan moliyaviy- xo'jalik qonunchiligiga rioya qilishlari, amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, moliyaviy- xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tekshirish va kuzatish bo'yicha qiymat nazoratining alohida turidir.

**Moliya siyosati** – bu moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash va ishlatish shakl hamda usullarida tizimli namoyon bo'luvchi tadbirlar yig'indisidir.

**Moliya tizimi** - moliyaviy munosabatlarning turli soxalarini uz ichiga olib, xarkaysi soxalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

**Moliyaviy zahiralar** - davlat va xo'jalik sub'ektlari qo'lidagi pul resurslarining bir qismi bo'lib, o'z egasining aylanma mablag'lari oborotida vaktinchalik katnashmaydigan pul resurslaridir.

**Nolli stavka.** Chet el mamlakatlari amaliyotidan foydalanib, bizda ham QQS eksportga tovar ortganda va chetdan tovarlar keltirishda (qurilish materiallariga) nolli stavkani 1998 yildan qo'llanilmoqda. QQS bo'yicha nolli stavka eksportga tovarlar (ishlar, xizmatlar) ko'rsatilganda, qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'itlar va yoqilg'i-moylash mahsulotlari sotilganda hamda elchixonalar va vakolatxonalarga tovarlar

ortilganda qo'llaniladi. qizig'i shundaki, ilgari ham shu mahsulotlarga QQS solinmas edi. Biroq, shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ketgan hom-ashyo, yoqilg'i, elektr quvvati uchun mahsulot etkazuvchilarga to'langan QQS hisobga olinmas edi. Nolli stavkada esa mahsulot etkazuvchilarga to'langan QQS summasi hisobga olinmaydi. Nolli stavka mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish uchun juda yaxshi, chunki o'z mahsulotiga QQS hisoblamaydi, olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha QQS summasi hisobga olinadi. Shu erda o'z mahsulotlarini tamomila eksportga chiqaradigan korxonalar bo'yicha katta muammo paydo bo'ldi. Korxona o'zi QQS to'lamaganligi sababli bu soliqdan katta manfiy farq paydo bo'lib, uni korxonaga qaytarishning murakkab tartibi o'rnatildi. Bu stavka QQSni haqiqatdan ham betarafligini ko'rsatadi, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish maqsadida boshqa soliqlardan ham nolli stavkalar qo'llash amaliyotini kengaytirish lozim deb hisoblaymiz.

**Nomoddiy aktivlar** - moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'limgan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan xo'jalik faoliyatida foydalanish yoki boshqarish uchun foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek uzoq vaqt (bir yildan ko'p) ishlatish uchun mo'ljallangan mol-mulk ob'ektlari.

**Progressiv soliq** – stavkasida esa daromad, ob'ekt ko'payib borishi bilan soliq stavkasi ham yonma-yon o'sib boradi. Bu bizning soliq qonunchiligidizda faqat fuqarolarning daromad solig'ida qo'llaniladi. 2010 yilda minimal ish xaqi 6 barobariga teng qismiga 11 foiz, 6 barobaridan 10 barobarlik qismiga 17 foiz va 10 barobaridan oshgan qismiga 22 foiz soliq stavkasi belgilangan. Bu stavka xazinaviy nuqtai nazardan salmoqlidir. Ammo iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazardan unchalik yaxshi emas. Bu stavka ishchilarni ko'proq ishlab ko'proq daromad olishga, mehnat unumdarligini oshirishga yaxshi qiziqtirmaydi. Bu stavkaning yildan yilga kamaya borishi, bu kamchilikni bartaraf etishga qaratilgan. Hozirgi kunda bunday stavkani qo'llashdan maqsad pul inflyatsiyasini jilovlash, pul muomalasini mustahkamlash va byudjetga salmoqli daromad tushishini qo'zda tutadi.

**Proportsional**– soliq stavkasida ob'ekt qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir xil ulushdagi (proportsiyada) soliq to'lanadi. Masalan, QQS bo'yicha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) oborotiga 20 foizli stavka belgilangan bo'lsa, oborot 10 ming so'm bo'lsa ham, 100 ming so'm bo'lsa ham hattoki million so'm bo'lsa ham stavka 20 foiz tura beradi, ya'ni ulush o'zgarmaydi. Bu stavkani adolatli desa bo'ladi.

**Regressiv** - soliq stavkasida daromad yoki ob'ekt oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, mahsulot ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Masalan, yuridik shaxslarining foyda solig'ida, mol-mulk solig'ida eksportga tovar ishlab chiqarib, EAVda sotgan yuridik shaxslar umumiyligi ishlab chiqargan muhsulotlarga nisbatan eksport hissasiga qarab kamaytirilgan soliq to'laydilar (30 va 50 foizga). Bu 2002 yildan kiritilgan soliq siyosati bo'lib iqtisodiy rivojlanishga katta naf keltiradi.

**Respublika byudjeti** - Davlat byudjetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ularidan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

**Rejalashtirish** - har qanday sub'ekt rejallashtirish jarayonida o'zining moliyaviy holatini baholaydi va moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Rejalashtirish jarayonidagi boshqaruv karorlari moliyaviy axborotlar tahlili asosida qabul qilinadi.

**Soliq imtiyozi** – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

**Soliq krediti** – byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

**Soliq qarzini to'lashni kechiktirish** – soliq summasini bo'lib-bo'lib to'lash vaqtinchalik moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan korxonalarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadida to'lash muddatini soliq to'lovchi qarz summasini bir yo'la yoki bosqichma-bosqich to'lagan holda keyinroq muddatga ko'chirishdan iboratdir.

**Soliq manbai** – bu sub'ektning daromadidir. Ba'zi soliqlarda daromad va foyda ham soliq ob'ekti, ham soliq manbai bo'ladi. Lekin boshqa soliqlarda ob'ektlar har xil, manba esa – daromad bo'ladi. Soliqlarning shunday qonuni borki, ular hech qachon manba miqdoridan (ob'ektdan) ortib kelmasligi lozim. Aks holda manba yo'qoladi. Tarixda bunga misollar bor. Mustabid sovetlar davrida (1962y) hayvonlarga pul solig'i chiqqan edi. Bu soliq ob'ektdan katta bo'lganligidan mollar boshi keskin kamayib ketdi, chorvachilik harob bo'ldi. Har qanday to'g'ri soliq oqibat natijada daromaddan olinadi.

**Soliq ob'ekti** – soliq solinadigan daromad, xarajat, oborot yoki mulklar qiymatidir. Uning foyda, ish haqi, qo'shilgan qiymat, er, imorat, jami xarajat kabi turlari mavjud. Masalan, QQSda ob'ekt ortilgan mahsulot (bajarilgan ish va xizmatlar) oborotidir, daromad solig'ida – daromad (foyda), mol-mulk solig'ida-mulk qiymati, er solig'ida er maydoni va boshqalardir.

**Soliq og'irligi** – soliq to'lovchining hamma soliqlar va to'lovlarni davlat fondlariga to'lashdir. Mamlakat miqyosida soliq og'irligi hamma to'langan soliq va to'lovlarning YaIMdagi salmog'i sifatida ifodalanadi. Ammo soliq og'irligi aniq soliq to'lovchining olgan daromadiga nisbatan jami to'lagan soliqlari va to'lovlari salmog'idir. Bu masalada ham anchagina baxslar mavjud. Agar soliq to'lovchi soliqlarni to'g'ri to'lagan bo'lsa, unga soliq og'irligi mos keladi. Lekin, egri soliqlarda huquqiy to'lovchilari korxonalar hisoblansada, ohir oqibatda soliq og'irligi iste'molchi aholi zimmasiga tushadi. Bu erda egri soliqlar hisobiga aholining real daromadi kamayadi. Iqtisodchilar soliq og'irligini makro va mikro darajada, sohalar bo'yicha aniqlash lozimligini ko'rsatib o'tadilar. Bu muammoni echish soliqlarning eng qiyin va eng zarur masalasini hal qilish demakdir.

**Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi** – kichik biznes sub'ektlarini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladigan soliqqa tortish tartibi.

**Soliq stavkalarining turlari.** O'zbekiston soliq qonunchiligidagi soliq stavkalarning asosan uch turi amal qiladi.: proportsional, progressiv va nolli stavkalar. 2002 yildan boshlab yuridik shaxslarning foyda solig'i va mol-mulk solig'i bo'yicha asosiy stavkaga qo'shimcha regressiv stavka (imtiyoz tariqasida) qo'llanila boshlandi.

**Soliq stavkasi** – ob'ektning har birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir, ya'ni davlatning soliq ob'ektidagi ulushi, hissasidir. Soliq stavkasi ikki usulda belgilanadi: qat'iy stavkalarda (so'mlarda) va nisbiy stavkalarda – foizlarda ifodalanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va inflyatsiya sharoitida nisbiy stavkalarni

qo'llash maqsadga muvofiqli. Bunday holda byudjet inflyatsiyadan ko'p mablag' yo'qotmaydi. Agar stavka sumlarda hisobga olinsa, soliqlardan tushgan byudjet daromadi yil oxiriga borib, hech qanday iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

**Soliq stavkasi** – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yorini ifodalaydi.

**Soliq sub'ekti** – soliq munosabatlarida qatnashuvchi soliq to'lovchilardir. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga bo'linadi. Soliq munosabatlarida soliq to'lovchilardan tashqari soliq undiruvchi davlat ham qatnashadi. Soliqni davlat undiradi. Uning nomidan maxsus tashkilot – soliq xizmati idoralari qatnashadi. Soliqlarni to'g'ri hisoblash, to'liq to'lash javobgarligi soliq to'lovchi sub'ektga yuklatilgan. Sub'ekt ob'ektsiz bo'lmaydi va aksincha.

**Soliq yuki** – soliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisini ifodalaydi.

**Soliqqa tortish birligi** – bu erda ob'ektning o'lchov birligi. Bu daromad solig'ida so'm, er solig'ida kv. metr, suv solig'ida kub. metr va boshqalar.

**Soliqlarni unifikatsiya qilish** – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob'ekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini bixillashtirish.

**Sug'urta** – bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'riliши mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari majmuasidan iborat.

**Sug'urtalovchi-** cug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot. Tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta qonunchiligi yoki sug'urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar. Bugungi kunda mamlakatimizda 20 ta atrofida turli mulkchilik shakllaridagi sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

**Sug'urtalanuvchi.** O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxona, xo'jalik tashkiloti yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi hisoblanadilar. Majburiy sug'urta bqtyicha sug'urta tashkiloti riqyatidan o'tganlar yoki ixtiyoriy sug'urta bqtyicha shartnomaga tuzib, sug'urta badalini tqlaganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

**Sug'urtaning ob'ekti va predmetlari.** Mulk sug'urtasida ob'ekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarni hayoti sog'ligi va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti - ana shu ob'ektlarni tarkibiy qismlaridir, masalan, qishloq xo'jaligi sug'urta ob'ekti bo'lsa, ekinlar hosili, chorva mollarining soni, mol-mulk xillari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti hisoblanadi. Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulklar ob'ekt bo'lsa, uy-ro'zg'or buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta predmetiga ma'lum yoshga etish, mehnat qobiliyatini yuqotish va vafot etish hodisalari misol bo'la oladi.

**Sug'urta himoyasi.** Sug'urta himoyasi favqulotda, ko'zda to'tilmagan ofatlardan himoya qilishni muhim shartlaridan hisoblanadi. +adim zamonlardan shaharlar tashkil etilganda hujumlardan himoya qilish uchun devorlar qurilgan va sug'urta himoyasi ham bo'lgan. Bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Sug'urta himoyasi faqat fond emas, balki etkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta

taqsimlash munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu munosabatlar Respublika, shahar, tuman miqyosidagi ob'ektlarga etkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan himoyalashni ko'zda tutadi.

**Sug'urta manfaatdorligi.** Sug'urta masalalari bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni xavf-xatardan holi emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta ob'ekti zararlanganidan sug'urtalanuvchiga zarar summasi beriladi. Bu summa sug'urta qoplamasи deb ataladi. Sug'urtalanuvchi zarar ko'rganda uni qoplash uchun sug'urtalanuvchidan sug'urta summasini olishdan manfaatdor bo'ladi.

**Qayta sug'urta qilish.** Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazishi yoki qayta sug'urta qilish.

**Sug'urta guvohnomasi (polisi).** Sug'urta munosabatlari tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjat birinchi badal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvohnomasi (polisi)da xo'jaliklarning nomlari, sug'urtalangan shaxsning nomi, familiyasi, sug'urta summasi yoki qoplamasи, sug'urta tarifi, sug'urta badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

**Uzoq muddatli kreditor qarzdorlik** -banklar yoki moliya institutlari bergen muddatli ssudalar, shuningdek so'ndirilish muddati bir yildan ortadigan boshqa qarzdorlik majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

**Foyda-** sotilgan mahsuloning qiymati bilan unga sarflangan tannarx xarajatlari ayirmasi hisoblanib qo'shimcha qiymatning pul shaklidagi ifodasini o'zida namoyon qiladi.

**Xarajatlar-** hisobot davrida iqtisodiy foydani aktivlarning chiqib ketishiyoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

**Uy xo'jaliklari** deganda qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan va oilaviy iste'mol uchun birgalikda xo'jalik yuritadigan shaxslar guruhi tushuniladi.

**Uy xo'jaliklari daromadlari** — bu oila a'zolari tomonidan ma'lum davr ichida olingan yoki ishlab chiqarilgan pul va natural shaklidagi daromadlar yig'indisidir.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

---

### **I. Maxsus adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2909-sonli Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 21 aprel.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
5. Alan J. Auerbach Public Finance in Practice and Theory.-University of California, Berkeley, May, 2009
6. David N. Hyman Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition, 2010, 2011 South-Western Cengage Learning Mason, OH, USA
7. Wilensky, Harold L Rich Democracies: Political Economy, Public Policy, and Performance. Berkeley, Calif.: California University Press. 2002.- p.183
8. Levine, Ross. Finance and Growth: Theory and Evidence. NBER Working Paper 10766. Cambridge, Mass.: National Bureau of Economic Research. 2004.
9. Brunori, David, Local Tax Policy, 2nd edition, Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2007. A discussion of local government revenue systems in the United States within the context of the problems faced by these governments and the federal system.
10. Brunori, David. State Tax Policy. Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2001. An analysis of state tax systems within the context of a federal system where the central government is shifting more responsibility to the states.
11. Steuerle, C. Eugene, Van Doorn Ooms, George Peterson, and Robert D. Reischauer. Vouchers and the Provision of Public Services. Washington, D.C.: The Urban Institute Press, 2000. An analysis of how vouchers are used to finance public services, including education and housing, in the United States and other nations.
12. Keynes, John Maynard. 1936. The General Theory of Employment, Interest, and Money. New York: Harcourt Press.

### **Internet resurslar**

1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti.
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portalı
3. [www.lugat.uz](http://www.lugat.uz), [www.glossaiy.uz](http://www.glossaiy.uz) - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme.
4. [www.uz](http://www.uz) - O'zbek internet resurslarining katalogi:

5. Infocom.uz elektron jurnali: [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)
6. <http://www.bank.uz/uz/publisIVdoc/>
7. [www.press-uz.info](http://www.press-uz.info)
8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
9. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
10. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
11. [www.vestifinance.ru](http://www.vestifinance.ru)
12. [www.imf.org](http://www.imf.org)
13. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)